O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA-MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYORLASH VA ULARNI MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI

“DAVOLASH ISHI”
(TERAPIYA)

TOSHKENT 2022

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

OLIY TA’LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI

“Davolash ishi” (Terapiya) yo‘nalishi

“PROFESSIONAL TIBBIY TA’LIMDA INOVATSION RIVOJLANTIRISH VA PEDAGOGIK MAXORATNI YUKSALTIRISH”

M O D U L I B O‘ Y I C H A

O‘ Q U V –U S L U B I Y M A J M U A

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi:

Anvarov J.A. — TTA huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi katta o‘qituvchisi, TTA Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasi assistenti, tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Taqrizchi:

Azizova F.L. — TTA, Ilmiy ishlar va innovatsion faoliyat buyicha prorektor, t.f.d., dotsent.

O‘quv -uslubiy majmua Toshkent tibbiyot akademiyasi Kengashining 2020 yil 25-dekabrdagi 7-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

Mundarija

I. ISHCHI DASTUR 6

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI. 12

III. NAZARIY MATERIALLAR 15

IV. AMALIY MASHG’ULOTLAR MATERIALLAR 60

V. KEYSLAR BANKI 135

VI. GLOSSARIY 138

VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI 141

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g’risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g’risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g’risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi 797 sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg’or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetentsiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Professional tibbiy ta’limda innovatsion rivojlantirish va pedagogik mahoratni yuksaltirish” modulining maqsadi: tibbiy ta’limni innovatsion rivojlantirish va pedagogik mahoratni yuksaltirish bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini oshirish.

Modulning vazifalari: oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarida ta’limni innovatsion rivojlantirish va pedagogik mahoratni yuksaltirish haqida nazariy va amaliy bilimlarni, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetentsiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Professional tibbiy ta’limda innovatsion rivojlantirish va pedagogik mahoratni yuksaltirish” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida**:**

Tinglovchi:

- Ta’limni innovatsion rivojlantirish va padagogik mahoratni yuksaltirish tushunchasini;
- Ta’limni innovatsion rivojlantirish va padagogik mahoratni yuksaltirishning jaxon tajribasini;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimida ta’limni innovatsion rivojlantirish va pedagogik mahoratni rivojlantirishni rivojlantirish bo‘yicha normativ xujjatlar va boshqaruv tizimini ***bilishi*** kerak.
- Ta’lim berish jarayonida amaliy (laboratoriya ishlari), nazariy mashg’ulotlarda (ma’ruzalar) innovatsion ta’lim texnologiyalari va yangi pedagogik usullarni qo‘llash;
- Professor-o‘qituvchilarning o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «Ustoz-shogird» ishlarida pedagogik mahoratini yuksaltirishda internet tarmog’ida mavjud bo‘lgan interfaol portallar va platformalarda ishlash ***ko‘nikmalariga*** ega bo‘lishi lozim.
- Professor-o‘qituvchilar uzluksiz ravishda o‘z pedagogik mahoratlarini yuksaltirish va o‘z fanlari bo‘yicha talabalarda bilim olish samaradorligini oshirish ***kompetentsiyalariga*** ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“**Professional tibbiy ta’limda innovatsion rivojlantirish va pedagogik mahoratni yuksaltirish**” moduli ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg’ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog’liqligi va uzviyligi

“**Professional tibbiy ta’limda innovatsion rivojlantirish va pedagogik mahoratni yuksaltirish**” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Tibbiy yordam va tibbiy sug’urtani tashkil qilish tizimini samarali takomillashtirish”, “Kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish”, “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish” o‘quv modullari bilan uzviy bog’langan holda pedagoglarningta’lim jarayonida yangi tashxislash va davolash usularindan foydalanish, ta’lim va tarbiya jarayonini takomillashtirish bilan bog’liq bo‘lgan ta’lim texnologiyalari sohasida o‘qitishning innovatsion usullarini qo‘llash darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar uzluksiz ravishda o‘z pedagogik mahoratlarini yuksaltirish va o‘z fanlari bo‘yicha talabalarda bilim olish samaradorligini oshirish doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi			
		Jami	jumladan		
			Nazariy	Amaiy mashg’ulot	Ko‘chma mashg’uloti
1.	Ta’limni innovatsion rivojlantirish va pedagogik mahoratni yuksaltirish bo‘yicha jaxon tajribasi.	2	2		
2.	Ta’lim samaradorligini oshirishda pedagogning pedagogik mahorati va kempetentligi asosiy omil sifatida.	2	2		
3.	Amaliy mashg’ulotlarda (laboratoriya ishlari) innovatsion ta’lim texnologiyalari va yangi pedagogik usullarni qo‘llash.	4		4	
4.	Nazariy mashg’ulotlarda (ma’ruzalar) innovatsion ta’lim texnologiyalari va yangi pedagogik usullarni qo‘llash.	4		4	
5.	Professor-o‘qituvchilarning o‘quv va o‘quv-uslubiy ishlarida pedagogik mahoratini yuksaltirish.	4	2	2	
6.	Professor-o‘qituvchilarning ilmiy tadqiqot ishlarida internet tarmog’ida mavjud bo‘lgan interfaol portallar va platformalarda ishlash.	6		6	
	Jami:	**22**	**6**	**16**	

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-ma'ruza. Ta'limni innovatsion rivojlantirish va pedagogik mahoratni yuksaltirish bo'yicha jaxon tajribasi (2 soat).

Ta'limni innovatsion rivojlantirish va padagogik mahoratni yuksaltirish bo'yicha Janubiy Koreya va Rossiya tajribasi.

2-ma'ruza. Ta'lim samaradorligini oshirishda pedagogning pedagogik mahorati va kempetentligi asosiy omil sifatida (2 soat).

Oliy ta'lim muassasida ta'lim samaradorligini oshirishda professor-o'qituvchilarining pedagogik mahoratini yuksaltirish mezonlari.

3-ma'ruza. Professor-o'qituvchilarning o'quv va o'quv-uslubiy ishlarida pedagogik mahoratini yuksaltirish (2 soat).

Professor-o'qituvchilarning shaxsiy ish rejalariga kiritilgan o'quv va o'quv-uslubiy ishlari tarkibiy qismlari va pedagogik mahoratini oshirish omillari.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg'ulot. Amaliy mashg'ulotlarda (laboratoriya ishlari) innovatsion ta'lim texnologiyalari va yangi pedagogik usullarni qo'llash (4 soat).

Amaliy mashg'ulotlarda talabalarda klinik fikrlashni rivojlantirish uchun simulyatsion markazlar, virtual laboratoriyalar, standartlashtirilgan bemorlar, ob'ektiv tizimlashtirilgan klinik amaliyot elementlaridan foydalanish va mashg'ulotlarda pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash.

2-amaliy mashg'ulot. Nazariy mashg'ulotlarda (ma'ruzalar) innovatsion ta'lim texnologiyalari va yangi pedagogik usullarni qo'llash (4 soat).

Zamonaviy ma'ruza modifikatsiya turlari, ma'ruzalarni faollashtirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash, o'quv va ilmiy prezentatsiya tayyorlash va taqdim etish qoidalari.

3-amaliy mashg’ulot. Professor-o‘qituvchilarning o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «Ustoz-shogird» ishlarini turlari (2 soat).

Professor-o‘qituvchilarning shaxsiy ish rejalari strukturasi, yillik ish rejasini planlashtirish va uni amalga oshirish tamoyillari.

4-amaliy mashg’ulot. Professor-o‘qituvchilarning ilmiy tadqiqot ishlarida internet tarmog’ida mavjud bo‘lgan interfaol portallar va platformalarda ishlash (6 soat).

Professor-o‘qituvchilarning ilmiy tadqiqot ishlarida Scopus, SCImago journal Rank, ScienceDirect, PubMed, Cochrane Library va boshqa internet platformalari va saytlaridan foydalanish. Ilmiy maqolalarni Scopus Web of science bazalarida indeksotsiyalanuvchi Impact Factor ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan ilmiy jurnallarga tayyorlab yuborish.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg’ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- ZOOM platformasi orqali ma’ruzalar va suhbatlar tashkil etish;
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha echimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- On-line rejimda internet portallari va platformalarida ishlash;
- bahs va munozaralar (loyihalar echimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar echimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.

PRES yoki FSMUusuli

Usulning maqsadi: Mazkur usul ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg’ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg’ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g’oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog’ozlarni tarqatiladi:
-

“SWOT TAHLILI” USULI

“SWOT taxlil” usuli birinchi bo‘lib Garvardda bo‘lib o‘tgan ilmiy anjumanda biznes-siyosatshunos professor Kennet Endryus (inglizcha *Kenneth Andrews*) tomonidan kiritilgan bo‘lib, asosan iqtisodiyot sohasida kompaniyalar va biznes loyihalarni strategik rejalash va baholash uchun qo‘llanilgan. Keyinchalik bu usul boshqa sohalarda ham qo‘llanila boshlandi. Tibbiyotda esa “SWOT taxlili” tashxisot va davolash usullarini, profilaktik chora tadbirlar taxlilida qulay usul hisoblanadi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

“SWOT” qisqartmasi quyidagi inglizcha so‘zlarning bosh xarfidan olingan:

S – (strength)	• kuchli tomonlari
W – (weakness)	• zaif, kuchsiz tomonlari
O – (opportunity)	• imkoniyatlari
T – (threat)	• xavf va to‘siqlar

Bunday taxlil orqali tinglovchilar biror bir usulning kuchli tomonlari bilan birga uning zaif tomonlarini ham o‘rganadilar, bu usul imkoniyatlari bilan unga nisbatan to‘siqlar va xavflarni taxlil qiladilar.

Tepadagi ikkita katakchada taxlil etilayotgan usulning yoki ob’ektning kuchli va kuchsiz tomonlari ifodalanadi va ular ichki omillar hisoblanadi. Pastdagi ikkita katakchada taxlil etilayotgan ob’ektning imkoniyatlari va unga nisbatan mumkin bo‘lgan to‘siq va xavflar ifodalanadi va ular tashqi omillar hisoblanadi.

“Insert” usuli

Metodni amalga oshirish tartibi:

- pedagog mashg’ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“– ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman			

Belgilangan vaqt yakunlangach, tinglovchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg’ulot yakunlanadi.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-MA’RUZA. TA’LIMNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH VA PEDAGOGIK MAHORATNI YUKSALTIRISH BO‘YICHA JAXON TAJRIBASI. (2 SOAT).

Reja:

1. **Pedagogik mahoratni yuksaltirish bo‘yicha jaxon tajribasi;**
2. **Janubiy Koreya va Rossiya ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.**

Oliy ta’lim tizimida o‘quv jarayoniga ilg’or xalqaro tajribani keng joriy etish, etakchi xorijiy turdosh ilmiy-ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish orqali pedagog va ilmiy kadrlar malakasini oshirish borasida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatda ta’lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog’cha tarbiyalanuvchilari, o‘quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ta’lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o‘rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta’limning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

SHu bilan birga, milliy ta’lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma’rifat egalari, jismoniy va ma’naviy sog’lom insonlar etib tarbiyalash, ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda.

YUqoridagilarni inobatga olgan holda hamda mamlakatimiz ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda pedagog va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo‘lgan hurmat-e’tiborni yanada oshirish, ta’lim oluvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, ta’lim tizimida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida:

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

- mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g’oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo‘lgan, intellektual va ma’naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta’lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo‘lishlari uchun ularda zarur ko‘nikma va bilimlarni shakllantirish;
- dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta’lim tizimini yaratish, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o‘quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish;
- ta’lim-tarbiya muassasalarining rahbar xodimlari, pedagog va murabbiylari, professor-pedagoglari va ilm-fan sohalari vakillarining jamiyatimizdagi o‘rni va maqomini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va faoliyat samaradorligiga qarab moddiy rag’batlantirish;
- pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini “hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida takomillashtirib borish;
- ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha xususiy sektorning salmog’ini kengaytirish, hududlarda nodavlat ta’lim tashkilotlarini tashkil etish orqali raqobat muhitini shakllantirish, ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;
- ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan xolda ta’limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta’lim texnologiyalarini yanada rivojlantirish, ta’lim oluvchilar o‘rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish;
- ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy drayveriga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish, iqtidorli yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag’batlantirish, mavjud ilmiy tashkilotlar salohiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish;
- ta’lim tizimiga yuqori samarali xalqaro amaliyotni joriy etish, respublika ta’lim tashkilotlarini nufuzli xalqaro reytinglarga kiritish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish.

Ta’lim-tarbiya jarayoni pedagogning o‘rgatuvchilik faoliyatini va ta’lim oluvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o‘z ichigaoladi. SHu o‘rinda bu jarayonlarning tahliliga e’tibor qarataylik. Ta’limda pedagogning boshqaruvchilik roli o‘z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo‘lga kiritgan yutuqlarni egallashnishart qilib qo‘yadi.Bularning barchasi pedagogning ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirishida o‘z aksini topmog’ilozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta’lim jarayonidapedagogta’lim oluvchilariga qo‘lga kiritilgan bilimlarni o‘rgatadi. O‘quv faoliyatida ularni ko‘nikma va malakalar bilan qurollantiradi. SHubilan bir paytda u ta’lim oluvchilarda dunyoqarash va axloq normalarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarni shaklantiradi, ularning shaxsiy fazilatlarini rivojlantiradi. Pedagogning faoliyati ta’lim oluvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishiga katta imkoniyatlar ochib beradi. YAnada aniq qilib aytsak, butun o‘quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda ta’lim oluvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi. Ta’lim oluvchilarga qiyinchiliklarni engib o‘tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta’lim jarayonini tashxis qiladi.

O‘z navbatida ta’lim oluvchilarning faoliyati o‘quv jarayonida o‘rganishga,bilim, ko‘nikma malakahamda shaxsiy fazilatlarni egallashga, o‘zini jamiyatga foydali faoliyatga tayyorlashga yo‘naltiradi. Ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarning faoliyati ko‘p qirrali yo‘nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi. Didaktika va metodika mustahkam aloqa va o‘zaro bog’liqlikda joylashadi. Didaktika o‘qitishning umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi. Aniq bir predmetni o‘qtishning o‘ziga xos xususiyatlari xususiy metodikalarda ishlab chiqiladi.

Jahonning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlarida ta’lim-tarbiya ishlarining yo‘lga qo‘yilishi va amalga oshirilganini o‘rganish orqali biz mustaqil respublikamiz milliy ta’lim tizimlarini yangitdan tashkil qilishda, ta’lim-tarbiyada, ta’lim ishini tashkil etishda eskirib, o‘z dolzarbligini yo‘qotib borayotgan

faoliyatshakllari va usullaridan tezroq halos bo‘lish, uni munosib tarzda yangilashda qo‘shimcha boy manbalarga ham ega bo‘lamiz. Zotan, hozirgi zamon ta’limida davlat va jamiyat talabi hamda manfaatlari aks etibturishi kerak.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyutsiya sharoitida muvaffaqqiyatli faoliyat ko‘rsata oladigan jamiyat a’zolarini etishtirib berish, yosh avlodni kasb-hunarga yo‘naltirish hamda o‘rta ta’limning ko‘p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta’lim-tarbiya berishda eng ilg’or pedagogik vositalarni qo‘llash, ta’limda tashabbuskorlik vaijodkorlikka keng yo‘l ochish, uning eng maqbul tizimlarini yaratish kabi jahon tajribalarini o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda keng ko‘lamdagi islohotlarni o‘z boshidan kechirayotgan bizning ta’limimiz uchun bu katta ahamiyatga ega. Keyingi yillarda jahon ta’limi bo‘yicha ko‘pgina maqolalar, broshyuralar, qo‘llanmalarchop etildi, unga bag’ishlab seminarlar, anjumanlar, o‘qishlar, uchrashuvlar o‘tkazildi. Bu bizning ta’lim tizimimizda, chet ellarda o‘quv-tarbiya ishlarining yo‘lga qo‘yilishiga e’tibor va qiziqishning tez sur’atlar bilan o‘sib borayotganligidan dalolatdir. Xalq ta’limi tizimlarida jahon ta’lim tizimini o‘rganish bilan shug’ullanuvchi muassasalar ham tashkil topmoqda. Jahon ta’limi tizimlaridan bizning mutaxassislarni voqif kilishda BMTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi, elchixonalar, AQSHning Tinchlik Korpusi mutaxassislari, Germaniya xalkaro rivojlanish fondi, AKSELS markazi, Adenauer jamg’armasi, Frantsiya madaniyat markazi, Britaniya Kengashi, Gyote instituti, YUNESKO va YUNISEFning vakolatxonalari va boshqa ko‘plab tashkilotlar yaqindan yordam bermokdalar. Darhaqiqat, rivojlangan xorijiy davlatlarda ta’limning, mamlakat ichki siyosatiga faol ta’sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e’tirof qilingan haqiqatdir. SHu tufayli ham chet mamlakatlarida ta’lim ehtiyojini iqtisodiy ta’minlashga ajratilayotgan mablag’ miqdori yildan-yilga oshib bormoqda.

Hozirgi paytlarda rivojlangan mamlakatlar o‘quv dasturiga integratsiyalashtirilgan kurslarni kiritish to‘la amalga oshirishdi. OTMlarda amalga oshirilayotgan islohotlar ta’lim ishini tabaqalashtirish muammolarini keltirib chiqardi. Iqtisodiy rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta’limni tabaqalashtirish

engdolzarb masalaga aylangan. Ta’lim oluvchilarni tabaqalashtirib o‘qitish xorijiy mamlakatlarda asosan boshlang’ich ta’lim kursidan keyin amalga oshiriladi.

Rivojlangan davlatlarda iqtidorli talabalarga e’tibor tobora ortibbormoqda. Keyingi davrlarda o‘z tengdoshlariga nisbatan qobiliyatdabir necha barobor ilgarilab ketgan bolalar ko‘plab topilmokda. Ular o‘quvni juda erta boshlab ta’lim kurslarini o‘zlashtirishda katta shov-shuvlarga sabab bo‘ladigan darajada muvaffaqiyatlarga erishadilar.

Janubiy Koreya ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari

Janubiy Koreyada yaxshi ta’lim olish xar bir fukaroning muvafakiyatli karerasi uchun juda muxim xisoblanadi. Koreya Davlat Boshkaruv organlari maktabgacha ta’lim muassasasidan to maktablarning yukori sinflarigacha bo‘lgan ta’lim tizimini aniq tuzganlar va doimiy nazorat kiladilar.

Boshlang’ich maktablardan tortib oliy ta’lim muassasalarigacha yukori tezlikdagi Internet ta’minotini birinchi bulib Janubiy Koreya yo‘lga kuygan. Koreya ta’lim tizimida kuyidagi fanlarga aloxida e’tibor karatiladi: matematika, koreys tili va ingliz tili, aniq fanlar va jamiyat to‘g’risidagi fanlar.

Janubiy Koreyada o‘kuv yili ikkita semestrga bulingan bo‘lib, birinchi semestr mart oyidan boshlanib, iyul oyining o‘rtasigacha davom etadi. Ikkinchi semestr esa avgust oyining oxirisidan boshlanadi va fevral oyining o‘rtasigacha davom etadi.Ta’til bir yila 2 marta - yozda iyulning oxirisidan avgustning oxirisigacha, kishda esa dekabrning oxiridan fevralning oxirisigacha davom etadi. Janubiy Koreya konstitutsiyasi 9 yillik ta’limni xar bir fuqaro uchun shart qilgan. SHuning uchun xar bir koreyallik boshlang’ich va o‘rta maktab ta’limini olishlari shartdir. YUqori maktablarda o‘qish esa ixtiyoriy bo‘lib, asosan universitetlarga kirishni xolagan yoshlar yuqori maktablarda taxsil oladilar. Ammo ta’limning bu bosqichi majburiy emas (1-jadval).

SHunindek maktabgacha ta’lim muassasalariga ham bolalarni tarbiyalash shart emas. Ammo aksariyat oilalar farzandlarini maktabgacha ta’lim

muassasalariga beradilar. J.Koreyada ham davlat va xususiy maktabgacha ta’lim muassasalari mavjud.

J.Koreya maktabgacha va maktab ta’lim tizimi tuzilishi

BOSKICH	O‘QISH DAVOMIYLIGI	SHARTLIGI
Maktabgacha ta’lim	3 yil	Yo‘q
Boshlang’ich maktab	6 yil	Xa
O‘rta maktab	3 yil	Xa
YUqori maktab	3 yil	Yo‘q

Maktabgacha ta’lim rasmiy dasturga kiritilmagan va bolalarda nazariy bilimlar shakllantirishga karatilmagan. Koreyada xam davlat va xususiy maktabgacha ta’lim muassasalari mavjud bo‘lib, aksariyat koreyaliklar xususiy maktabgacha ta’lim muassasalarini ma’kul ko‘radilar. Bu boskichdagi ta’limning maksadi bolani xar tomonlama rivojlanishini ta’minlashdir, ya’ni bola maktabga utar ekan jismonan soglom, ruxiy va emotsional stoykiy va uziga nisbatan ishonch shakllangan bulishi kerak.

Maktab ta’limi. J.Koreyada maktab ta’limi 3 ta boskichda kechadi: boshlangich maktab, o‘rta maktab va yukori maktab.

Bu boskichlarda kuyidagi fanlar o‘tiladi:

- Matematika;
- Koreys tili;
- Kushimcha tillar (ingliz yoki frantsuz tili) – 3-chi sinfdan boshlab o‘rgatiladi;
- Anik fanlar;
- Jamiyat tugrisidagi fanlar;
- Musika;
- Tasviriy san’at.

Boshlangich va o‘rta maktablarda ukish xar bir koreyalik fukaro uchun majburiy bulib, bu boskichdagi ta’limning vazifasi ukuvchilarda kuyidagilarni shakllantirishdir:

- Bolani shaxs sifatida shakllanishi, mustakil fikrlash va karor kabul kila olish;
- Ta’limning keyingi boskichlarida zarur buladigan bilimlarni berish;
- Estetik tarbiya;
- Javobgarlik xissini, mustakillikka muxabbat va uzini namoyon kila olishni;
- Milliy mafkura va vatanparvarlik tuygusini shakllantirish.

YUkori maktablarda ta’lim 3 yilgacha davom etadi. Bu ta’lim boskichida ixtisoslashtirilgan yunalishlar buyicha bilim berilmaydi, ukuvchilarni universitetlarga kirishga tayyorlaydi. Fanlar ruyxati o‘rta maktab fanlaribilan bir xil.

Oliy ta’lim tizimi. Janubiy Koreyada oliy ta’lim asosan universitetlarda beriladi. SHu bilan birga qariyib 80% universitetlar xususiy universitetlar hisoblanadi. Universitet qoshida bir nechta kolledjlar mavjud. Masalan meditsina kolledji, san’at kolledji va boshq.

YUqori maktabni tamomlagan yoshlar universitetda o‘qish uchun kirish imtixonlarini topshiradilar. Bu imtixon Amerika Qo‘shma SHtatlarida o‘tkaziladigan kirish imtixonlari – SAT Reasoning test imtixoniga o‘xshash bo‘lib, koreys tili, ingliz tili, matematika, aniq fanlar va jamiyat to‘g’risidagi fanlardan test topshiriqlarini echishlari talab etiladi. Janubiy Koryadagi bunday davlat testi Sunьn deb ataladi, va 1 yilda 1 marta topshiriladi. Abiturientlar bu imtixonga jiddiy tayyorgarlik ko‘radilar. CHunki universitetda o‘qishni davom ettirmoqchi bo‘lgan yoshlar juda ko‘p, bu esa raqobatni oshiradi. Kirish imtixon natijalari bilan bir qatorda abiturientning maktabda yig’gan ballari ham inobatga olinadi. SHuning uchun xam xar bir Koreyalik o‘quvchi maktab ballarini yaxshi olishga xarakat qiladi. Undan tashqari xar bir universitet abiturient tanlagan yo‘nalishdan kelib chiqqan xolda insho yozish imtixonini xam o‘tkazadi. SHundan so‘ng

abiturientlarning kirish test natijasi, maktabda tuplagan ballari va insho baxolari qo‘shilib umumiy ball hisoblanadi.

Tibbiyot universitetlari va tibbiyot kolledjlariga xam kirish imtixonlari shu tarzda belgilangan bo‘lib, raqobat eng kuchli sohalardan biri hisoblanadi.

Oliy ta’lim tuzilishi

MUASSASA	OLINADIGAN TA’LIM
Universitet (Kolledjlar)	Oliy ta’lim
	Davlat
	Xususiy
Aspirantura	Bakalavriatura (4-6 yil)
	Magistratura (2-3 yil)
	Ph. D. dastur (4 yil)

Universitetlarda bakalavriatura ta’limi daomiyligi 4-6 yilni tashkil etadi. Tibbiyot universiteti bo‘lmish YONSEI universitetida bakalavriatura ta’limi 6 yil bo‘lib, 2 yil pre-medical course va 4 yil medical course bosqichidan iborat.

Tibbiyot universitetida o‘qish davomida talabalar fanlar bo‘yicha ma’ruzalar tinglaydilar, amaliy va seminar mashg’ulotlari o‘tadilar, simulyatsion darslarda qatnashadilar, kurs ishi va loyiha ishlari topshiradilar. O‘qish kredit tizimida olib boriladi. Bu tizimda bir o‘quv yili ma’lum kredit balliga teng bo‘lib, soatlarda 1500-1800 o‘quv soatini tashkil etadi. Bakalavr darajasini olish uchun talaba 180 dan 240 gacha kredit ballarini yig’ishi kerak. Magistr darajasini olish uchun esa bu ballar yig’indisi 300 kredit ballari bo‘lishi kerak.

Talabaning o‘quv yuklamasiga ma’ruza tinglash, seminarlarda qatnashish, dokladlar tayyorlash, referatlar yozish, kurs loyixasini tayyorlash kabilar kiradi.

Kredit ballar tizimida talbalar bilimi quyidagicha baholanadi:

- **A «A'lo»** - kursning nazariy qismi to‘liq o‘zlashtirilgan, hamma amaliy ko‘nikmalar xatosiz va kamchiliklarsiz bajarilgan, barcha topshiriqlar kamchiliksiz bajarilgan, va barcha bajarilgan vazifalar maksimal baholangan.
- **B «Juda yaxshi»** - kursning nazariy qismi to‘liq o‘zlashtirilgan, hamma amaliy ko‘nikmalar xatosiz va kamchiliklarsiz bajarilgan, barcha topshiriqlar kamchiliksiz bajarilgan, va bajarilgan vazifalar ayrimlari maksimal bahoga yaqin ballar bilan baholangan.
- **C «Yaxshi»** - kursning nazariy qismi to‘liq o‘zlashtirilgan, amaliy ko‘nikmalarni bajarishda ayrim xato va kamchiliklar bor, barcha topshiriqlar bajarilgan ammo kamchiliklari bor, va bajarilgan vazifalar ayrimlari o‘rtacha bahoga yaqin ballar bilan baholangan.
- **D «Qoniqarli»** - kursning nazariy qismi qisman o‘zlashtirilgan, amaliy ko‘nikmalarni bajarishda ayrim xato va kamchiliklar bor, barcha topshiriqlar kamchiliklari bilan bajarilgan, bajarilgan vazifalar ayrimlari o‘rtacha bahoga yaqin ballar bilan baholangan.
- **E «O‘rtacha»** - kursning nazariy qismi qisman o‘zlashtirilgan, ayrim amaliy ko‘nikmalar o‘zlashtirilmagan, topshiriqlar bajarilmagan yoki kamchiliklari bilan bajarilgan, bajarilgan vazifalar ayrimlari minimal bahoga yaqin ballar bilan baholangan.
- **Fx «Shartli qoniqarsiz», qayta topshirish imkoniyati bilan** - kursning nazariy qismi qisman o‘zlashtirilgan, amaliy ko‘nikmalar o‘zlashtirilmagan, topshiriqlar bajarilmagan yoki kamchiliklari bilan bajarilgan, bajarilgan vazifalar ayrimlari minimal bahoga yaqin ballar bilan baholangan.
- **F «Qoniqarsiz», qayta topshirish imkoniyati**siz - kursning nazariy qismi qisman o‘zlashtirilgan, amaliy ko‘nikmalar o‘zlashtirilmagan, topshiriqlar bajarilmagan yoki qo‘pol kamchiliklari bilan bajarilgan.

Koreya tibbiyot universitetlarining o‘ziga xos jixatlaridan biri bu – talabalar klinik fanlarni o‘qish vaqtida bemorlarni ko‘rish imkoniyatining cheklanganligidir.

Dars jarayonida maxsus o‘qitilgan aktyorlar bemor rolini o‘ynaydilar. Talabalar esa asosan simulyatsion mashg’ulotlarda amaliy ko‘nikmalarni bajarib o‘rganadilar.

O‘qish yakunida Davlat imtixonlari topshiriladi. Imtihon 2 bosqichdan iborat bo‘lib, talaba avval 50 kun mobaynida 72 ta fan bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni topshiradilar, shundan so‘ng professorlar bilan suxbatdan o‘tadi. Imtixonlarni muvaffaqiyatli topshirgan bitiruvchilarga M.D. (Medical Doctor) – vrach darajasi beriladi.

YONSEI universiteti – eng qadimiy universitetlardan biri bo‘lib, Janubiy Koreyadagi nufuzli universitetlardan biridir. YOnse universiteti katta kampusdan iborat. Universitetda tibbiyot kolledji, stomatologiya kolledji, xamshiralar tayyorlaydigan to‘liq bo‘lmagan kursdagi kolledj, magistratura mutaxassisliklari va aspirantura yo‘nalishlari mavjud. Sohalar turli-tuman bo‘lib, ilm-fan rivojlangan sari yana yangi yo‘nalishlar ochiladi. Misol uchun o‘zak xujayralar bo‘yicha mutaxassis, gen injineriyasi mutaxassisi, uyqu buzilishi mutaxassisi va boshq.

Universitetda 12000 ta talaba taxsil oladi, talabalarga esa ta professor o‘qituvchilar ta’lim beradila. Universitetda xorijiy talabalar ham taxsil oladilar. Xususan, Singapur, Xindiston, Xitoy, Laos, Avstraliya, Rossiya, Qozog’istondan talabalar taxsil olmoqdalar.

Rossiya Federatsiyasi ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari

Rossiyaning tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida ko‘p bosqichli uzluksiz oliy tibbiy ta’lim kontseptsiyasi qabul qilingan va amalga oshirilmoqda, bu kelajakdagi shifokorning chuqur fundamental tayyorgarligiga qaratilgan.

Rossiya tibbiyot universitetlari to‘qqiz yo‘nalish bo‘yicha (davolash ishi, stomatologiya, farmakologiya, hamshiralik ishi, pediatriya, profilaktika tibbiyoti, tibbiy biokimyo, tibbiy biofizika, tibbiy kibernetika) diplom beradi. Evropa oliy tibbiyot maktabida kadrlar tayyorlashning to‘rtta asosiy yo‘nalishi (umumiy tibbiyot, stomatologiya, farmakologiya, hamshiralik) mavjud.

Kasbiy kompetentsiyaning muhim sharti uzluksiz va samarali tibbiy ta’limdir, uni amalga oshirish shifokorga kasbiy malakasining zarur darajasini saqlab qolish va o‘z faoliyati davomida zarur ijtimoiy himoyaga ega bo‘lish imkonini beradi.

Hozirgi kunda Rossiyada quyidagi ta’lim darajalari tashkil etilgan:

1. asosiy umumiy ta’lim;
2. o‘rta (to‘liq) umumiy ta’lim;
3. boshlang’ich kasb-hunar ta’limi;
4. o‘rta kasb-hunar ta’limi;
5. oliy professional ma’lumot;
6. oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limi.

Uzluksiz ta’lim - bu asosiy tibbiy ta’limni tugatgandan so‘ng yoki mutaxassislikdan so‘ng qabul qilingan shaxs tomonidan amalga oshiriladigan va mutaxassisning malakasini oshirishga yordam beradigan mashg’ulotlar.

Bolonya jarayoni (Bolonya deklaratsiyasi)

1998 yil may oyida Frantsiya, Germaniya, Italiya va Buyuk Britaniyaning ta’lim vazirlari "Evropa oliy ta’lim tizimlarini uyg’unlashtirish to‘g’risida qo‘shma deklaratsiya" ni imzoladilar va 1999 yil iyun oyida Bolonya shahrida deklaratsiya imzolandi, keyinchalik u Bolonya deb nomlandi. U 2010 yilga qadar izchil va muvofiqlashtirilgan umumiy Evropa oliy ta’lim maydonini yaratishni nazarda tutadi. 2002 yil sentyabr oyida Berlinda bo‘lib o‘tgan Evropa mamlakatlari oliy ta’lim

vazirlarining konferentsiyasida Rossiyani Bolonya deklaratsiyasiga qo‘shilishga qaror qilindi va 2003 yildan boshlab Rossiya Bolonya jarayoniga rasman kirdi.

Bolonya jarayonining asosiy maqsadi yagona umumevropalik kuchli va raqobatbardosh ta’lim tizimini yaratish, shuningdek mutaxassislarni ish bilan ta’minlash imkoniyatlarini kengaytirishdir. Ta’lim hozirgi paytda dunyodagi barcha eng yaxshi narsalarni o‘z ichiga olishi kerak, shuning uchun Bolonya deklaratsiyasi milliy ta’lim tizimlarining o‘ziga xos xususiyatlari va an’analarini hisobga olgan holda Evropa oliy ta’limining modelini shakllantiradi.

Bolonya shartnomasining asosiy qoidalariga quyidagilar kiradi:

• milliy ta’lim tizimlarining turli an’analari madaniy boyligi va merosini saqlash;

• yagona ta’lim maydonini yaratish (ta’limning umumiy mezonlari va metodikalarini, ta’lim sifatini ta’minlash bo‘yicha kelishilgan standartlar, protseduralar va ko‘rsatmalar to‘plamini yaratish);

• Evropadagi universitetlar o‘rtasida xalqaro hamkorlikni rag’batlantirish, har qanday Evropa universitetida ta’lim olish imkoniyati;

• universitetlar va universitet muxtoriyatining asosiy rolini e’tirof etish, o‘quv muassasalariga o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarish bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilish huquqini berish.

Bolonya jarayoni bir necha asosiy vazifalarni o‘z ichiga oladi:

• aniq belgilangan va taqqoslanadigan darajalar tizimini joriy etish,

• bakalavriat - magistraturani tayyorlashning ikki bosqichli modeliga o‘tish (2003 yilda uchinchi bosqich - doktorantura to‘g’risida qaror qabul qilindi),

• kreditlar (kreditlar) tizimini shakllantirish,

• xalqaro akkreditatsiya tizimida universitetlarning ishtiroki,

• Evropa doirasida mehnat resurslarining erkin harakatlanishi uchun sharoit yaratish.

Jahon Tibbiy Ta’lim Federatsiyasi, Xalqaro Tibbiy Ta’lim Uyushmasi va Evropadagi Tibbiy Ta’lim Uyushmasi Bolonya deklaratsiyasining asosiy qoidalari bilan kelishilgan va tibbiy ma’lumotni Bolonya jarayoniga qo‘shilishini qo‘llab-

quvvatlagan Bolonya jarayoni to‘g’risida siyosiy bayonot qabul qildilar. Ammo shu bilan birga, o‘quv rejalari va dasturlarining o‘ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, Evropadagi tibbiyot maktablarining hozirgi holatini hisobga olish taklif qilindi. Tibbiyot oliy o‘quv yurtlariga ta’limning ikki bosqichli tuzilishini joriy etish majburiyatini yuklamaslik taklif etiladi, shu bilan birga uzoq muddatli bir bosqichli o‘qitishga ustunlik beriladi.

Bolonya jarayonining muhim tarkibiy qismi kredit tizimini joriy etishdir. O‘quv ishlarining barcha turlarini hisoblash uchun kredit birliklaridan foydalaniladi: bitta kredit birligi 36 akademik soatni tashkil qiladi. Kredit tizimiga o‘tish talabalarga ta’limni bir mamlakatda boshlashga va boshqalarda davom ettirishga, kredit olishga va bilim bazasini va shunga mos ravishda mutaxassis sifatida o‘z vaznini oshirishga imkon beradi. Talabalar nafaqat universitetlarda, balki umrbod ta’lim tizimida ham bunday kreditlarni olish, tizimni "umrbod o‘rganish" tushunchasi doirasida ishlashga qodir bo‘lgan kümülativ qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Bolonya jarayoni xalqaro akkreditatsiya tizimiga kirishni o‘z ichiga oladi. Bu, ayniqsa, Evropada yiliga 100 ga yaqin yangi tibbiyot universitetlari ochilayotgani bilan bog’liq bo‘lib, ularning aksariyat qismida na moddiy resurslar, na klinik bazalar mavjud. Umuman olganda dunyoda 1600 ga yaqin tibbiyot oliy o‘quv yurtlari va fakultetlari mavjud bo‘lib, ularning 40 foizi hech qanday attestatsiyadan o‘tmaydi. Akkreditatsiyani nafaqat universitetlar, balki trening o‘tkaziladigan dasturlar ham topshirishi kerak. Rossiyaning aksariyat tibbiyot oliy o‘quv yurtlari barcha oliy o‘quv yurtlari uchun majburiy bo‘lgan yagona ta’lim standartini saqlab qolishdi. Ushbu standart doirasida Rossiya oliy o‘quv yurtlarining tibbiyot va farmatsevtika ta’limi bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmasi ilmiy-pedagogik jamoalarga Evropa tizimiga mos keladigan mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda o‘quv dasturlarini 15-20 foizgacha o‘zgartirishga imkon beradi.

"Evropa oliy ta’lim zonasi" joriy etilishi bilan, Bolonya jarayoniga kiritilgan mamlakatlar o‘zlarining ta’lim tizimlarini o‘zaro uyg’unlashtirgan holda quradilar, shu tufayli bir mamlakatda berilgan diplomlar shartnomaning barcha boshqa tomonlari uchun haqiqiy deb tan olinadi.

Rossiya Federatsiyasining "Oliy va oliy oʻquv yurtidan keyingi kasb-hunar taʼlimi toʻgʼrisida" gi Qonuniga binoan, oliy oʻquv yurti talabasi ushbu oʻquv yurtiga oʻqish uchun belgilangan tartibda roʻyxatdan oʻtgan talaba hisoblanadi.

Rossiya Federatsiyasining "Oliy va oliy oʻquv yurtidan keyingi professional taʼlimi toʻgʼrisida" gi qonuniga muvofiq:

1. Barcha taʼlim muassasalari talabalari davlat taʼlim standartlariga muvofiq taʼlim olish, individual oʻquv dasturlariga muvofiq ushbu standartlar doirasida oʻqish, tezlashtirilgan oʻquv kurslari, kutubxonalarning kutubxona va axborot resurslaridan bepul foydalanish, shu jumladan qoʻshimcha maʼlumot olish huquqiga ega. pullik) taʼlim xizmatlari, taʼlim muassasasini boshqarishda ishtirok etish, insonning qadr-qimmatini hurmat qilish, vijdon, maʼlumot erkinligi, oʻz fikrlari va eʼtiqodlarini erkin ifoda etish.

2. Tegishli kafedralar va fakultetlar tomonidan taklif qilinadigan ixtiyoriy (malaka oshirishning maʼlum bir turi uchun ixtiyoriy) mutaxassisliklar va fakultativ (majburiy) kurslarni tanlang.

3. Tanlangan taʼlim yoʻnalishi yoki mutaxassisligi boʻyicha akademik fanlar bilan bir qatorda, ushbu oliy oʻquv yurtida, uning ustavida belgilangan tartibda oʻqitiladigan, shuningdek boshqa oliy oʻquv yurtlarida oʻqitiladigan (ularning rahbarlari oʻrtasida kelishilgan holda) oʻqitiladigan har qanday boshqa fanlarni ham oʻzlashtirish.

4. Tadqiqot ishlarining barcha turlarida, konferentsiyalarda, simpoziumlarda qatnashish; oʻzingizning ishingizni nashrga, shu jumladan oliy oʻquv yurtining nashrlarida taqdim eting.

5. Talabalar ushbu taʼlim muassasasining roziligi va sertifikatlashni muvaffaqiyatli yakunlashlari bilan tegishli darajadagi taʼlim dasturini amalga oshiradigan boshqa taʼlim muassasasiga koʻchirilish huquqiga ega.

6. Taʼlim muassasasi oʻquvchilarning sogʻligʻini muhofaza qilish va mustahkamlashga kafolat beradigan sharoitlarni yaratadi.

7. Talabalarning oʻquv yuki, oʻqish tartibi sogʻliqni saqlash organlari bilan kelishilgan tavsiyalar asosida taʼlim muassasasining ustavi bilan belgilanadi.

8. Ta’lim muassasalari o‘quvchilarining o‘qishi, ishlashi va dam olishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish uchun javobgarlik Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga va ushbu ta’lim muassasasining ustaviga muvofiq ta’lim muassasalarining mansabdor shaxslari tomonidan qoplanadi.

9. Kunduzgi bo‘lim talabalariga o‘qish paytida harbiy xizmatdan keyinga qoldiriladi.

10. O‘qishni ish bilan birlashtirgan kunduzgi bo‘lim talabalariga ta’til beriladi, lekin ish joyida ish haqi to‘lanmasdan:

- test va imtihonlarni topshirish uchun o‘quv yilida 15 kalendar kun;

- davlat imtihonlarini topshirish uchun - 1 oy.

11. Oliy kasbiy ta’limning o‘quv dasturlari bo‘yicha o‘qishni tugatgan va yakuniy attestatsiyadan o‘tgan shaxslarga tegishli ma’lumot to‘g’risidagi hujjatlar beriladi.

12. Davlat tomonidan akkreditatsiyadan o‘tgan oliy o‘quv yurti o‘z bitiruvchilariga Rossiya Federatsiyasining rasmiy ramzlari bilan tegishli ta’lim to‘g’risidagi davlat tomonidan tan olingan hujjatlarni taqdim etadi.

13. Universitetlar talabalari, o‘z navbatida, bilim olishga, oliy o‘quv yurtlarining o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarida nazarda tutilgan barcha turdagi vazifalarni o‘z vaqtida bajarishga, universitet ustaviga, yotoqxonaning ichki tartib qoidalariga va qoidalariga rioya qilishga majburdirlar.

“Davolash ishi” mutaxassisligi bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish darajasini tekshirish.

2) yakuniy sinov imtihoni.

3) yakuniy suhbat: ichki kasalliklar, jarrohlik kasalliklari, akusherlik va ginekologiya.

UNIVERSITETNING TA’LIM FAOLIYATI

1. Kunduzgi va sirtqi bo‘lim talabalari uchun eng katta o‘quv yuklama hajmi haftada 54 soatni tashkil etadi, shu bilan birga barcha auditoriya va auditoriyadan tashqari (mustaqil) o‘quv ishlari olib boriladi va o‘quv rejasi mazmuni bilan

belgilanadi. Mustaqil ish butun o‘quv yuklamasining 1/3 qismini tashkil qiladi. Universitetda olti kunlik o‘quv haftasi mavjud.

2. O‘quv yilida kunduzgi va sirtqi ta’lim shakllari talabalari uchun ta’tillar umumiy davomiyligi kamida 7 hafta, shu jumladan qishda kamida 2 hafta davom etadigan ta’tillar belgilanadi.

3. Auditoriya darslarining barcha turlari uchun (amaliyotdan tashqari) akademik soat 45 minut, darslar orasidagi tanaffus kamida 10 minut qilib belgilangan.

4. Ta’lim dasturlarini ishlab chiqish sifati Universitetda doimiy monitoringni amalga oshirish, talabalarni oraliq attestatsiyadan o‘tkazish va bitiruvchilarni yakuniy sertifikatlash orqali amalga oshiriladi.

5. Oliy kasb-hunar ta’limi dasturlari bo‘yicha Universitetga o‘qishga kirgan talabalar, oraliq attestatsiya paytida, o‘quv yili davomida 10 dan ortiq imtihon va 12 ta kredit topshiradilar. Belgilangan raqam jismoniy tarbiya va fakultativ fanlardan imtihonlar va kreditlarni o‘z ichiga olmaydi.

6. Universitet talabalariga akademik ta’til federal ta’lim ma’muriyati tomonidan belgilangan tartibda beriladi.

7. O‘quv dasturining barcha talablarini bajargan talabalar yakuniy davlat attestatsiyasiga qabul qilinadi. Universitet bitiruvchisini yakuniy attestatsiyasi majburiy bo‘lib, ta’lim dasturini to‘liq o‘zlashtirgandan so‘ng amalga oshiriladi.

8. O‘qishda alohida muvaffaqiyatlarga erishgan Universitet talabasi, davlatning qarori bilan o‘quv imtihonlarining kamida 75 foizida "a’lo" baho bilan, qolgan fanlari uchun esa "yaxshi" baholarga ega bo‘lgan va "eng yaxshi" baholarga ega bo‘lgan davlat attestatsiyasidan o‘tgan. attestatsiya komissiyasi imtiyozli diplom bilan taqdirlanadi.

9. Universitet talabalarni ish bilan ta’minlash sohasidagi vaziyat to‘g’risida xabardor qiladi va ularning ish bilan ta’minlanishiga ko‘maklashadi.

O‘QITISH TARTIBI

1. O‘quv yili 1 sentyabrda boshlanadi, ikki semestrdan iborat va ushbu o‘quv va kasbiy dasturning o‘quv rejasiga muvofiq tugaydi.

2. Ilmiy kengash o‘quv yilining boshini o‘zgartirish to‘g’risida qaror qabul qilishga haqlidir.

3. Universitetda quyidagi asosiy mashg’ulotlar turlari tashkil etilgan: ma’ruza, seminar, maslahat, amaliy dars, laboratoriya ishlari, bemorlar kuratsiyasi, amaliyot.

4. Darslarning jadvali fakultet dekani tomonidan tasdiqlanadi va mashg’ulotlar boshlanishidan 7 kundan kechiktirmay belgilangan joyda joylashtiriladi.

5. Auditoriya mashg’ulotlarining barcha turlari uchun akademik soat 45-50 minutni tashkil qiladi. Akademik soat tugaganidan keyin 10 daqiqalik tanaffus belgilanadi. To‘rt soatlik mashg’ulotlardan so‘ng - 20-30 daqiqalik tushlik tanaffusi.

6. Darslar boshlangandan so‘ng, barcha auditoriya xonalari va unga tutash binolar odatdagi o‘quv mashg’ulotlari uchun zarur bo‘lgan sukunat va tartib bilan ta’minlanishi kerak. O‘quv mashg’ulotlarini to‘xtatib qo‘yish, ular davomida auditoriyaga kirish va chiqish yo‘l qo‘yilmaydi.

7. Amaliy va seminarlarni o‘quv xonalarida, laboratoriyalarda, klinikalarda, o‘quv ustaxonalarida o‘tkazish uchun har bir kurs talabalarning akademik guruhlariga bo‘linadi. Akademik guruhlarning tarkibi fakultet dekanining ko‘rsatmasi bilan belgilanadi.

8. Har bir guruhda mudir eng muvaffaqiyatli va intizomli talabalar orasidan fakultet dekani tomonidan tayinlanadi. Guruh mudiri bevosita fakultet dekanining kurs bo‘yicha o‘rinbosariga bo‘ysunadi va uning barcha buyruqlari va ko‘rsatmalarini bajaradi.

O‘QITISH DASTURLARINING SIFATINI BAHOLASH

Turli kafedralarda bilimlarni boshqarish darajasi va nazorat shakllariga talablar biroz farq qilishi mumkin (ular kirish darslarida yoki ma’ruzalarda bayon qilinadi). Quyida, misol tariqasida, psixiatriya va narkologiya kafedrasida bilimlarni o‘zlashtirish darajasiga qo‘yiladigan talablar keltirilgan.

Talabalarining bilimlarini tekshirish mezonlari:

1. "A’LO" belgisi dastur materialini, shu jumladan ma’ruza materialini chuqur va qat’iy o‘zlashtirgan talabaga bilet savoliga javob berishda izchil, aniq va mustaqil

ravishda (etakchi savollarsiz) beriladi. Agar savol amaliy bo‘lsa, talaba unga umumiy amaliyot shifokori nuqtai nazaridan javob berishi kerak.

2. "YAXSHI" belgisi dastur materialini, shu jumladan ma’ruza materialini yaxshi biladigan, bilet savoliga malakali va mohiyatan javob beradigan va jiddiy noaniqliklarga (etakchi savollar bilan tuzatib bo‘lmaydigan yoki muhim amaliy bo‘lmagan) noaniqliklarga yo‘l qo‘ymaydigan talabaga beriladi. qiymatlar). Xuddi shu narsa amaldagi muhim masalalarni yoritishda ham qo‘llaniladi.

3. "QONIQARLI" belgisi asosiy material to‘g’risidagi bilimlarini ochib bergan, ammo uning tafsilotlarini bilmagan, noaniqliklar qilgan, so‘zlarning etarlicha to‘g’ri emasligi, materialni ketma-ketliksiz taqdim etgan, imtihon beruvchining yordami yoki tuzatishlari bilan amaliy savollarga javob beradigan talabaga beriladi.

4. Dastur materialining muhim qismini, shu jumladan ma’ruza materialini bilmagan talabaga "QONIQARSIZ" belgisi qo‘yiladi. Umumiy amaliyot shifokori nuqtai nazaridan amaliy muhim masalalarni hal qilishda jiddiy xatolarga yo‘l qo‘yadi. "Qoniqarsiz" belgisi, agar siz kursning asosiy bo‘limlaridan birini bilmasangiz ham, imtihon chiptalarining qolgan savollariga javoblarni ijobiy baholash mumkin bo‘lsa ham beriladi.

5. Belgilangan mezonlardan foydalangan holda bilim har bir savol uchun alohida baholanadi. Umumiy ball o‘rtacha arifmetik sifatida aniqlanadi.

"Imtihon va testlarni qayta topshirish tartibi to‘g’risida"

1. Imtihonni yoki testni ikki martadan ortiq takrorlashga yo‘l qo‘yilmaydi.

2. Imtihonni qayta topshirish uchun talaba o‘z kursi dekanatiga fakultet dekani nomiga qayta topshirish sanasini ko‘rsatgan holda ariza topshirishi kerak.

3. Takroriy qaytarib olingan taqdirda (istisno tariqasida) komissiya tuziladi, uning tarkibi dekanat taqdimotiga binoan buyruq bilan tasdiqlanadi.

4. Takroriy imtihonlar o‘quv ishlari bo‘yicha prorektorning buyrug’ida belgilangan kunlarda o‘tkaziladi.

5. Semestr davomida o‘tkazilmagan takroriy imtihonlar kreditlash haftasida, qayta topshirish esa sessiya takrorlanadigan kunlarda o‘tkaziladi. Qayta qabul qilish kunlari kurs dekani tomonidan belgilanadi.

6. Sessiyaga kirish barcha o‘rganilgan fanlardan kreditlar olgandan keyin mumkin.

7. Yakuniy davlat attestatsiyasiga qabul qilishda barcha fanlardan akademik qarzdorlik, shu jumladan boshqa fanlardan imtihonlarni qayta topshirish bilan bartaraf etish kerak.

8. O‘quv yilining oxiriga qadar o‘quv dasturlarining kelishmovchiliklari uchun akademik qarzini to‘lamagan akademik ta’tildan universitetga tiklangan yoki boshqa tibbiyot oliy o‘quv yurtlaridan ko‘chirilgan talabalar qo‘yilmaydi.

Oliy tibbiy ma’lumot diplomini olganidan so‘ng, universitet bitiruvchisi ikki yo‘lga ega - tibbiy amaliyotni uchastka shifokori / pediatri sifatida boshlash (akkreditatsiyadan o‘tganidan keyin) yoki yashash joyida bebaho tajriba to‘plash va tor profilli mutaxassis (gastroenterolog, ginekolog va boshqalar) bo‘lish.

REZIDENTURA (ORDINATURA)

Tibbiyot bilim yurtlarini ma’lum bir mutaxassislik bo‘yicha tajriba orttirish va chuqurroq bilim olishni istagan bitiruvchilari rezidenturaga kirishadi. Aholini kasalxonaga yoki klinikaga tayinlashadi, u erda ular yordamchi vazifasini bajaradilar. YOsh mutaxassisning ishini amaliyotchi shifokor nazorat qiladi va u unga ishining turli qirralarini ko‘rsatib beradi. Ammo ko‘pincha talaba bemorning yozuvlarini to‘ldirish, smenalar va boshqa ko‘p narsalarni o‘z ichiga olgan juda qiyin ishlarni bajarishi kerak. Kasalxonadagi ishi bilan bir qatorda rezident universitetdagi ma’ruzalarda qatnashadi va imtihon topshiradi. Ta’lim muddati rezident egallashni istagan mutaxassislikka bog’liq va 2 yildan 6 yilgacha o‘zgarib turadi. Rezidentlik tugagandan so‘ng talaba yakuniy imtihonlarni topshiradi, undan so‘ng u tor profilli ixtisoslik bo‘yicha to‘liq tibbiy amaliyotni boshlashga imkon beradigan sertifikat oladi.

Rezidenturaga kirish uchun tibbiyot oliy o‘quv yurti bitiruvchisi test sinovlari shaklida kirish imtihonini topshirishi kerak. Umuman olganda, murojaat etuvchiga 60 daqiqada 60 ta topshiriqni bajarish taklif etiladi. Imtihon natijalari 1 kalendar yil davomida amal qiladi.

ASPIRANTURA

O‘zining ilmiy salohiyatini rivojlantirishdan manfaatdor bo‘lgan chet ellik talaba mutaxassislikdan so‘ng darhol amaliyotni chetlab, aspiranturaga o‘qishga kirishi mumkin. Magistratura talabasi bo‘lish uchun u kirish testlarini topshirishi va mutaxassis diplomiga ega bo‘lgan universitet Ilmiy Kengashining tavsiyalariga ega bo‘lishi kerak. Ham byudjet, ham shartnoma uchun murojaat qilishingiz mumkin. SHtat ishchilari uchun katta plyus - bu oylik stipendiya to‘lovlarining mavjudligi.

Aspiranturani uzluksiz ta’lim bilan taqqoslash mumkin, aspirant tibbiyotda ma’lum bir yo‘nalishni chuqur o‘rganadi, shu asosda u ilmiy dissertatsiya yozadi. Aspirantning muvaffaqiyati va ilmiy ish yozishda erishgan yutuqlari kurator tomonidan nazorat qilinadi, shuningdek u o‘zi uchun dissertatsiya yozish vaqtini belgilaydigan individual ish rejasini tuzadi. SHunisi e’tiborliki, agar ushbu reja bajarilmasa, aspirant chetlashtirilishi mumkin.

Aspirantning vazifalariga ilmiy ishlarini yozishdan tashqari qo‘shimcha darslarga qatnashish, shuningdek, o‘zi biriktirilgan bo‘lim ishlarida faol qatnashish kiradi. Ko‘pincha aspirantlar kichik o‘quvchilar uchun ma’ruzalar yoki amaliy mashg’ulotlar o‘tkazadilar. Dissertatsiyani himoya qilgandan so‘ng, aspirantga fan nomzodi ilmiy darajasi beriladi, bu unga o‘z ona yurtida yoki boshqa biron bir universitetda o‘qituvchilik faoliyatini boshlashi yoki ilm-fan bilan uzoqlashishi uchun imkon beradi. Tibbiy mutaxassislik bo‘yicha aspiranturada o‘qish muddati 3 yil (kunduzgi) yoki 4 yil (sirtqi).

DOKTORANTURA

Doktorantura tibbiyot universiteti bitiruvchisi uchun ilmiy sohada karerasini davom ettirish uchun ajoyib imkoniyatdir. Tibbiyot universitetida doktorant bo‘lish uchun siz fan nomzodi unvoniga, mutaxassislik bo‘yicha ish stajiga, shuningdek kamida 3 yillik ilmiy ish tajribangizga ega bo‘lishingiz kerak. Bundan tashqari, doktorant ilmiy ishlarini nashr ettirgan bo‘lishi kerak. Doktoranturada o‘qish uchun uch yillik muddat davomida doktorant jiddiy ilmiy tadqiqot ishlarini bajarishi kerak: ilmiy dissertatsiya rejasini tayyorlash va tayyor ishni kafedraga topshirish.

Doktorantga yordam berish uchun universitet doktorlik darajasiga ega bo‘lgan ilmiy maslahatchi tayinlaydi va agar kerak bo‘lsa, boshqa ta’lim muassasalarining mutaxassislari maslahatchi sifatida taklif qilinadi. Dissertatsiyani himoya qilgandan so‘ng doktorantga ilmiy daraja beriladi, u tegishli hujjatlar - doktorlik diplomlari bilan tasdiqlanadi. Muhim jihat: doktoranturada o‘qitish faqat kunduzgi shaklda amalga oshiriladi.

Nazorat savollari:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g’risida” PF-5847-son farmoning asosiy mazmuni?
2. Janubiy Koreyada Oliy ta’lim strukturasi qanday tuzilgan?
3. Rossiya Federatsiyasida Oliy ta’lim strukturasi qanday tuzilgan?
4. Janubiy Koreyada tibbiyot universitetlarida o‘qish davomiyligi nechchi yil va qanday bosqichlardan iborat.
5. Jahon ta’limi tizimlari bilan bizning mutaxassislarni tanishtirish maqsadida O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan qanday tashkilotlar ishtirok etmoqda?

2-MA’RUZA. TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGNING PEDAGOGIK MAHORATI VA KOMPETENTLIGI ASOSIY OMIL SIFATIDA (2 SOAT).

Reja:

1. Ta’lim samaradorligini oshirishda pedagogning pedagogik mahoratining va kompetentligining muximligi;

2. Pedagogning kasbiy faoliyatiga qo‘yiladigan talablar.

Mahorat (arab. “mohirlik”, “ustalik”, “epchillik”) – 1) biror ish, kasb uchun zarur yoki shu sohada orttirilgan ustalik, san’at, mohirlik; 2) bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o‘ta mohirlik bilan bajarish; 3) muayyan ish, xatti-harakat yoki kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san’atkorona tashkil etilishiga imkon beradigan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui.

Pedagogik mahorat - o‘kituvchining shaxsiy-kasbiy faoliyati natijasi umumlashmasi bo‘lib,muayyan bilim, ko‘nikma, malakalaryig’indisidan iborat.

Pedagogik mahorat:

1) kasbiy koʻnikmalarning yuksak darajada rivojlanishi;

2) shaxsning kasbiy sifatlari, layokat kobiliyatlari majmui;

3) san'at darajasidagi maxorat;

4) pedagogik mohirlik, san'at va bilimdonlikni ifodalovchi atama.

Pedagogik mahorat kuyidagi muayyan shakllarning yoʻnalishlariga ega:

1. Oʻkuv pedagogik faoliyat yunalishi. Bunda oʻkituvchi oʻzi dars berayotgan oʻkuv predmeti, pedagogika, psixologiya, metodika fanlarini ilmiy texnikaviy taraqqiyot va davr talablari darajasida bilishi zarurligini nazarda tutadi.

2. SHaxsiy faoliyat yoʻnalishi. Bu yunalishda oʻkituvchi oʻzi, oʻz ishi, xamkasblari, oʻkuvchilari, ularning ota-onalariga boʻlgan munosabatini ifodalaydi. Bu oʻkituvchining oʻz mavkeini tushunishi, oʻz-oʻziga baxo berishi, oʻz-oʻzini anglashi, mustakil bilim olishga intilishi, kasbiy rivojlanishi, oʻz kasbiy faoliyatini rivojlaitirishi, bunyodkorlik, ijodkorlik, tadbirkorlik layokati, yangilnkka muntazam intilishida namoyonboʻladi.

3. Ijtimoiy pedagogik faoliyat yunalishi. U oʻkituvchilarning ta'lim oluvchilar jamoasini xis eta olishi, ularning tuyg'ularini anglashi, qiziqish va extiyojlari, duch keladigan qiyinchiliklarini bilib olishi;

- har bir ta'lim oluvchining individual isixologik xususiyatlarini ilg'ay olishi;

- darsda va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni tashkil kilish buyicha bilim, koʻnikma va malakalarning shakllanganligi;

- turli ijtimoiy foydali ishlarga oʻkuvchilarni jalb eta olishi;

- fan. xayot, san'at, ijtimoiy foydali mexnatga qiziqish uyg'ota olishini ifodalaydi.

4. Axborot-kommunikativ faoliyat yunalishi. Oʻkituvchining ma'lumot axborotga ega ekanligi; voqelik, pedagogik jarayondagi voqea-xodisalar tug'risidagi ma'lumotlar bilan qurollaganligi, axborot va kommunikativ texnikadan ma'lumotlar ola bilishi, ular ustida qayta fikrlashi, xamkasblari va oʻkuvchilarga etkaza olish qobiliyatiga ega ekanligini koʻrsatadi.

Qayd etib o‘tilgan hamda tavsiflangan pedagogik mahoratni egallashning mazkur yunalishlari o‘kituvchi faoliyatining asosini tashkil kiladi.

Pedagogik mahorat yaxlit tizim sifatida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- pedagog shaxsining insonparvarlik yo‘nalishiga ega bo‘lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo‘nalishlarining oliy maqsadga-barkamol avlod tarbiyalab etishtirishga yo‘naltirilganligi;

- mutaxassislik fanlari, o‘qitish metodikasi, pedagogika va psixologiyadan professional bilimlarga ega bo‘lishi;

- pedagogik qobiliyatga ega bo‘lishi (muloqotga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash);

- pedagogik texnikani egallashi, ya’ni o‘z-o‘zini boshqara olishi, o‘zaro ta’sir etish va hamkorlikda ishlashni uddalashi.

Pedagog shaxsining insonparvarlik yo‘nalishga ega bo‘lishi-ta’lim oluvchi shaxsini hurmat qilishi, ayrim masalalarni o‘zini ta’lim oluvchi o‘rnida sezib hal etishi, adolatli bo‘lishi, pedagogik faoliyatni pirovard maqsadga – barkamol avlod tarbiyalashga yo‘naltirishda ifodalanadi. Buyuk mutafakkirimiz Ibn Sino ham o‘qituvchi shaxsida halollik, adolat, poklik, mehnatsevarlik, fidoiylik, odamgarchilik kabi xislatlarni qadrlagan.

Insonparvar bo‘lish mahoratli pedagog faoliyatining bircha jihatlarini qamrab oladi va uning aniq vazifalarini ham belgilab beradi. Insonparvarlik deganimizda, ta’lim oluvchilarning dini, irqi, millati, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar, ularning barchasiga bir xil munosabatda bo‘lishni tushunamiz. Har bir ta’lim oluvchiga insonparvarlik nuqtai nazaridan yondoshishimiz darkor. Bolalarni seva olish, ularga o‘z ota-onalaridek mehribonlik ko‘rsata bilish mohir pedagogning muhim insonparvarlik fazilatlaridan biridir. Pedagog har doim, hamma vaqt ta’lim oluvchilarga mehribonlik ko‘rsata olishi lozim. O‘z ta’lim oluvchisi to‘g’risida shoshma-shosharlik bilan xulosa chiqarmaslik, ular haqida salbiy yoki ijobiy fikrga kelmaslik kerak. Ta’lim oluvchilar orasida uning “sevimli” yoki “yomon” ko‘radigan tarbiyalanuvchilarni bo‘lishi ta’lim oluvchida pedagogga bo‘lgan hurmatni so‘ndiradi. Har qanday bo‘sh va past o‘zlashtiradigan, “tarbiyasi qiyin” ta’lim

oluvchi bilan ishlaganda pedagogning vazifasi shundan iboratki, ta’lim oluvchidagi ana shu bilinar bilinmas lekin eng muhim ijobiy fazilatni topa olish va shu fazilatga tayanib ta’lim oluvchi mulkidagi, o‘tmishidagi salbiy xususiyatlarni tugatishga intilmog’i lozim. Pedagog shaxsiy fazilatlari tizimida pedagoglik faoliyatga bo‘lgan ehtiyoj nomli muhim kasbiy yo‘nalish mavjudki, u pedagogik mahoratni egallash uchun katta rol’ o‘ynaydi.

Ta’lim beruvchining kompetentsiyasi

Mehnat bozorining o‘zgarib borishi, taraqqiyot jadallashuvi, axborot muhiti glabollashishi ta’sirida maktab bitiruvchisiga qo‘yilayotgan talablar murakkablashib boraveradi. SHu nuqtai nazardan, zamonaviy maktab o‘z faoliyatini tashkil etishda nafaqat bugungi davr talablarini inobatga olishi, balki ta’lim oluvchilarni ertangi kun talablariga ham tayyorlashi zarur. Albatta, XXI asrning ikkinchi yarmida hayot qanday kechishi, qanday bilimlar kerak bo‘lishini shiddat bilan rivojlanib, o‘zgarib borayotgan zamonda aniq prognoz qilish qiyin. SHu bois maktab ta’lim oluvchilariga bilim berish bilan birga, ularda mustaqillik, tashabbuskorlik, hamkorlik, vaziyatni real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va undan oqilona foydalanish, tez kirishuvchanlik xususiyatlarini shakllantirib, har qanday o‘zgarishlarga konstruktiv moslasha olish qobiliyatini rivojlantirib borish lozim.

Oldimizda turgan bu dolzarb vazifa mustaqil hayotiy pozitsiya, ijtimoiy faollik, yuksak aqliy va ma’naviy salohiyatni shakllantirishga qaratilgan shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni hayotga yanada kengroq tatbiq etishni taqazo etadi.

Buning uchun ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan har bir pedagogning kompetentsiyaga ega bo‘lishi muhimdir.

“Kompetentsiya” tushunchasi lotincha competere degan so‘zdan olingan bo‘lib, “loyiq”, “mos kelmoq”ma’nosini beradi.

Kompetentsiya – olingan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuasini amaliyotga qo‘llay olish qobiliyati va layoqati.

Kompetentlilik deganda, aniq vaziyatda kompetentsiyani namoyon qilish tushuniladi.

Kompetentlilik – shaxsning bilim, koʻnikma va tajribalarining ijtimoiy-professional mavqei va oʻziga tegishli vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga qodirligi hamda haqiqiy moslik darajasi tushuniladi. Demak, kompetentsiyaviy yondashuv bilim, koʻnikma va malakani inkor etmagan holda, egallangan bilimlarni amalda qoʻllay olish qobiliyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi.

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor oʻrin egallagan kuchli raqobatga bardoshli boʻlish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega boʻlish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xoʻsh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog oʻzida qanday kompetentlik sifatlarini yorita olishi zarur? Ayni oʻrinda shu va shunga yondosh g'oyalar yuzasidan soʻz yuritiladi.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning oʻzini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan oʻzaro munosabatlarda yangi yoʻl tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga toʻla ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

"Kompetentlik" (ingl. "competence" – "qobiliyat") – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy koʻnikma, malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur boʻlgan bilim, koʻnikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qoʻllay olinishi

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yoʻnalish boʻyicha integrativ bilimlar va harakatlarning oʻzlashtirilishini nazarda tutadi. SHuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni oʻrganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va oʻz faoliyatida qoʻllay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon boʻladi:

- murakkab jarayonlarda;

- noaniq vazifalarni bajarishda;

- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;

- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda

Kasbiy kompetentsiyaga ega mutaxassis:

- o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;

- yangi axborotlarni o‘zlashtiradi; - davr talablarini chuqur anglaydi;

- yangi bilimlarni izlab topadi;

- ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi

Kasbiy kompetentlik sifatlari. Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, bilim, ko‘nikma va malakani izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi.

Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

a) psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog’lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

b) metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g’ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

c) informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig’ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

d) kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

e) innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g’oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

f) kommunikativ kompetentlik – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish.

3) SHaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

4) Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik bilim, ko‘nikma va malakani boyitadigan ilg’or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

5) Ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g’ri harakatlanish malakasiga egalik.

MUTAXASSIS MODELI

Kasbiy shakllanish jarayonida o‘qituvchilarning individual xususiyatlarini o‘rganish, o‘zlashtirish jarayonini tashkil etish hamda uning natijalarini baholash muhimdir. O‘quv faoliyatining zarur tarbiyaviy natijasini aniqlashga xizmat qiluvchi mahoratlar alohida tizimni tashkil etadi. Ma’naviy dunyoqarash va uning mohiyati hamda umumiy madaniyatlilik darajasiga qo‘yiluvchi talablarni o‘z ichiga oladi.

Tuzilishi nuqtai nazaridan mutaxassis modeli uni o‘zgartirish va tuzatish imkonini beruvchi, faoliyat samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi va oson tashhis (diagnostika) qilinadigan tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olishi zarur. Ikki qismli tuzilmaga ega bo‘lgan mutaxassis modeli eng ko‘p tarqalgan model hisoblanadi.

Mutaxassis modeli – bu ishlab chiqarish sohasida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni muvaffaqiyatli hal etilishini ta’minlovchi, ma’lum sifatlarni ta’riflovchi

hamda kasb egasining mustaqil bilim olishi va o‘zini rivojlantirishini aks ettiruvchi andoza hisoblanadi.

Ushbu modelni yaratishda kasbiy faoliyatning ma’lum turi uchun muvofiq keladigan shaxsiy sifatlar to‘plami tartibga solinadi. Mutaxassis modelining turlaridan biri malakaviy tavsifnoma hisoblanadi. Uning mazmunida quyidagi holatlar aks etadi: turli lavozim va turli ish joylari uchun xos bo‘lgan kasbiy faoliyat turlari, vazifa va majburiyatlar, shaxsiy sifatlar, bilim va ko‘nikmalar. Bunday modellar kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, ularni attestatsiyadan o‘tkazish, shuningdek, mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarini tuzishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Malakaviy tavsifnoma me’yoriy model deb ham ataladi. Bu mutaxassis faoliyati va shaxsiga qo‘yiladigan umumiy talablarni aks ettiruvchi maxsus pasportdir.

Malakaviy tavsifnoma borasidagi yaxlit va amaliy ahamiyatga ega ma’lumotlar E.M.Borisova tomonidan aniqlangan. Muallif fikricha, malakaviy tavsifnomaning tuzilmasi quyidagilardan iborat:

1. SHaxsiy xususiyatlar.

2. Faoliyatning asosiy soha va turlari.

3. Ular faoliyat olib boruvchi tashkilotlarning turlari.

4. Ular egallashi mumkin bo‘lgan lavozimlar.

5. SHaxsiy sifatlarga nisbatan qo‘yiluvchi talablar.

6. Kasbiy mahorat qo‘yiluvchi talablar.

7. Lavozim bo‘yicha amalga oshiriluvchi vazifalarning tartibi.

8. Kasbiy bilim darajasiga qo‘yiladigan talablar.

O‘qituvchining malakaviy tavsifnomasida qo‘yidagilar o‘z ifodasini topadi:

I. Faoliyatning asosiy sohasi va turlari:

a) faoliyat sohasi: 1) ta’lim; 2) boshqaruv va boshqalar.

b) faoliyat turlari:1) o‘quv; 2) metodik; 3) tarbiyaviy; 4) tashkiliy; 5) ilmiy (rahbarlik); 6) kadrlar bilan ishlash; 7) tadbirkorlik; 8) ekspertlik va boshqalar.

II. Ular faoliyat olib boruvchi tashkilotlar:*1) oliy ta’lim muassasalari; 2) oliy ta’limdan keyingi ta’lim muassasalari (malaka oshirish kurslari va kadrlarni qayta tayyorlash markazlari); 3) ta’limni boshqarish organlari;*

III. SHaxsiy sifatlarga talablar: 1) psixologik; 2) mulohazali; 3) axloqiy; 4) faoliyatni tashkil etish mahorati va usullariga qo‘yiluvchi talablar.

Kasbiy tavsifnoma ma’lum soha bo‘yicha faoliyat yurituvchi mutaxassisning muvaffaqiyatli ravishda umumlashtirilgan namunaviy modeli sanaladi. Biroq ayrim holatlarda professiogrammada «o‘rta» darajadagi kasbiy faoliyatni bajarish variantlari ham inobatga olinadi. Professiogrammaningmazmuni va tuzilishiga nisbatan turli yondashuvlar mavjud.

Namunaviy kasbiy tavsifnoma quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

1) mutaxassislik ta’lim yo‘nalishi, bilim sohasi va ixtisoslik nomi;

2) kasbiy ta’lim (ta’lim shakllari, o‘qishga kirish shartlari, ta’limning davomiyligi, egallanadigan malaka darajasi, kasbiy jihatdan o‘sish imkoniyatlari), o‘qishni davom ettirish;

3) kasbiy faoliyati (vazifasi) xususiyatlari, faoliyatning ustuvor jihatlari, malakaviy talab hamda egallanishi zarur bo‘lgan asosiy malakalar;

4) psixogramma kasbiy – yo‘naltirilgan talablar, ijtimoiy madaniy sifatlar, mutaxassislikka xos bo‘lgan sifatlar (kasbiy yo‘nalganlik, bilimdonligi, kasbiy layoqat);

5) mehnatning sanitariya-gigienik sharoitlari (ish tartibi, sensomotorli va pertseptiv doiradagi tibbiy ko‘rsatmalar).

Mehnat faoliyatining umumiy (ijtimoiy, texnologik, iqtisodiy, sanitariya-gigienik) xususiyatlari eng ommalashgan kasbiy tavsifnomada kasbiy faoliyatning maqsadi, predmeti, usuli, natijalarni baholash mezoni, zarur malakaviy xususiyatlari, vositasi, sharti, tashkil etilishi, mehnat kooperatsiyasi, mehnat omilkorligi, xavf-xatar turlari va ularning ishchi hayoti va faoliyatiga bo‘lgan salbiy ta’siri yoki faoliyat natijasi uchun foydasi kabi holatlar o‘z aksini topadi.

So‘nggi paytlarda taklif etilayotgan tahliliy kasbiy tavsifnomada «kasbiy faoliyat va shaxsning kasbiy ahamiyatli sifatlari, uning alohida jihatlari emas, kasb (yoki

kasbiy faoliyat)ning psixologik tuzilmasini umumlashtiruvchi me’yoriy va morfologik ko‘rsatkichlar» yoritiladi.

Tahliliy kasbiy tavsifnomada quyidagi ikki blokning alohida qayd etishning zarurligi ta’kidlanadi: 1) ma’lum shaxsga bog’liq bo‘lmagan va ijtimoiy tajribalarga asoslanuvchi kasbiy faoliyatning ob’ektiv xususiyatlarini tavsiflash; 2) ob’ektiv faoliyatga simmetrik, biroq u bilan mos kelmaydigan psixologik mazmunga ega faoliyat va uning sifatlarini tavsiflash. Boshqacha qilib aytganda, analitik professiogrammada kasbiy faoliyat me’yori, psixologik tuzilmasi hamda ishchining psixologik sifatlari alohida qayd etiladi.

Ancha murakkab turdagi professiogrammaning tarkibiy tuzilmasi, kasbiy faoliyatning mohiyati, shuningdek, mutaxassis shaxsini tavsiflash (trudogramma va psixogramma) imkoniyatini beruvchi tuzilma bilan tanishamiz.

«Kasbiy faoliyat tavsifi» ning mazmunida quyidagilar aks etadi:

1. Kasbning yo‘nalganligi, vazifasi, uning jamiyatdagi o‘rni va roli (moddiy mahsulot yoki g’oyalar ishlab chiqarish, turli ijtimoiy sohalarda xizmat ko‘rsatish, axborotlarni to‘plash, saqlash va tarqatish) ning insonga yo‘naltirilganligi.

2. Kasbning keng tarqalganligi (ushbu kasb bo‘yicha faoliyat olib boruvchi tashkilotlar).

3. Kasbning mehnat predmeti – inson uchun mehnatni tashkil etish jarayonida ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy omillar (moddiy buyumlar, ijtimoiy-g’oyaviy predmetlar – madaniyat, axborot, ma’lum shaxs yoki ommaning ijtimoiy ongi, notabiiy buyumlar).

4. Kasbiy bilimlar muayyan yo‘nalishda faoliyatni tashkil etishning turli jihatlari borasidagi ma’lumotlar to‘plami sifatida.

5. Samarali natijaga erishish uchun faoliyat jarayonida qo‘llaniluvchi texnika, texnologiya, harakat, usul, mahorat va ish metodlari, faoliyatlar hamda ularning ko‘lami, umumlashtirilgan va avtomatlashtirilganligi.

6. Mehnat vositalari – zarur mehnat mahsulotini olish yo‘lida xususiy maqsadni amalga oshirish, mehnat predmetiga ta’sir ko‘rsatish maqsadida inson tomonidan

foydalanadigan ijtimoiy (moddiy va ma’naviy) omillar. Mehnat vositalari sirasiga ish qurollari, asbob-uskunalar, kopyuterlar hamda mantiqiy fikrlash, axloqiy va estetik baholash tizim va ko‘rsatkichlari kiradi.

7. Mehnat sharoitlari: mehnat va dam olish tartibi, ularni o‘zgartirish imkoniyatlari; ijtimoiy muhit xususiyatlari; mehnatning sanitariya-gigienik omillari; ish joyi, mehnat sur’ati, jadalligi va ishning davomiyligi.

8. Mehnatni tashkil etish va bu borada hamkorlikka erishish: ushbu kasb uchun xarakterli bo‘lgan individual, hamkorlikka asoslanuvchi va guruhli faoliyat turlari: kasbiy munosabatlar turlari va unda uning ishtirokchilari tutgan o‘rin, ular o‘rtasida mehnat vositalari va mahsulotlarning almashishi; ishni bajarish me’yorlari va muddati; lavozimlar yoki lavozimlar tartibi bo‘yicha bo‘ysunish, kasb doirasidagi ijtimoiy mavqe va mansab.

9. Mehnat mahsuloti (yoki uning natijasi): inson tomonidan mehnat jarayonida sodir etiluvchi sifat va miqdor o‘zgarishlari, mehnat natijalarini baholash ko‘rsatkichlari, mehnat natijasining muayyan darajasi (mehnatni kasb taqozosi uchungina bajarilishidan ijodiy xususiyat kasb etishiga erishilishi), qat’iy tartiblarning belgilab qo‘yilishi.

10. Kasbiy mahoratning mavjud darajalari va malakaviy razryadlar, ularga haq to‘lash tartibi.

11. Mutaxassisning xulqi: psixologik va ijtimoiy xavfsizlik, kasbiy faoliyatida qulay mikromuhitning mavjudligi; ijtimoiy kafolatlar, mehnat va dam olishga haq to‘lash, mehnatni muhofaza qilish; mehnat faoliyatini bajarishning individual metodini tanlash va operatsiyalarni individual tarzda o‘zgartirish huquqining mavjudligi, malakani oshirish, turdosh kasblar bo‘yicha qayta tayyorlash borasidagi imtiyozlar, lavozim bo‘yicha «o‘sib borish» tartibi va mutaxassisning kasbiy jihatdan o‘sishining rag’batlantirilishi.

12. Mutaxassisning majburiyatlari: kasbiy malakani egallash, kasbiy hulq-odob qoidalarining majburiyligini bilish (kasbdoshlari bilan munosabatda samimiy, axloqli bo‘lish); ish jarayonida kasbiy va xizmat sirlarini saqlash qoidalariga amal qilish, hujjatlarni to‘g’ri yuritish; muayyan cheklanishlar (ya’ni, ushbu faoliyat jarayonida

ma’lum xatti-harakatlarni sodir etishning ta’qiqlanganligi); lavozim bo‘yicha vazifalar va majburiyatlar (u yoki bu tashkilotda muayyan lavozimga ko‘ra mutaxassisning qanday vazifalarni qay tarzida bajarishi).

13. Kasbning inson xulq-atvori va yashash tarziga ko‘rsatuvchi ta’siri.

14. O‘z-o‘zini shakllantirish, fiziologik-psixologik rivojlanish yo‘nalishlari, biopsixologik o‘zgarishlar, kasb vositasida qaror topuvchi individuallik, uning shaxsni rivojlantirish borasidagi imkoniyatlari, kasbiy jihatdan tarkib topgan muayyan jamoa hamda ijtimoiy guruhga mansublik.

15. Kasbiy faoliyatning salbiy jihatlari: qiyinchiliklar, kasbiy faoliyat jarayonida yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatolar, ularning turlari va ko‘lami, ro‘y berish ehtimoli bo‘lgan moddiy hamda ma’naviy yo‘qotishlar, murakkab vaziyatlarning mavjudligi, vaziyatning o‘zgaruvchanligi yoki to‘xtalishlarning sodir bo‘lishi, monotonlik, vaqtning chegaralanganligi, axborot etishmovchiligi yoki ularning ko‘pligi; avariya holatlarining sodir etilish ehtimoli, kasbiy kasalliklarni keltirib chiqaruvchi va boshqa psixologik holatlar; kasbiy jihatdan yuqori lavozimlarga ko‘tarilishning mumkin emasligi, past darajadagi mehnat samaradorligi, mavjud qoidalarni buzganlik uchun belgilanuvchi ma’muriy jazo (jarimalar) turlari.

Psixologik tavsifnoma (psixogramma - mutaxassisning ma’naviy-axloqiy va ruhiy qiyofasi). Kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishda ijtimoiy-kasbiy munosabatlar, kasbiy jihatdan o‘sish, shuningdek, sodir bo‘lish ehtimoli bo‘lgan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun talab etiluvchi psixologik sifatlari muhim ahamiyat kasb etadi, ularning sirasiga quyidagilar kiradi:

1) shaxsiy ehtiyojlar, hayotiy maqsad, vazifalar, talablar, qiziqishlar, shaxs ishtirokida tashkil etiluvchi munosabatlar mazmuni, qadriyatli yo‘nalishlar, psixologik pozitsiya;

2) kasbiy intilishlari, talablari, kasbiy jihatdan o‘zini baholash, o‘zini mutaxassis sifatida anglash;

3) psixik holat va hissiy (emotsional) qiyofa;

4) mehnat, uni tashkil etish jarayoni va natijalardan qoniqish (mutaxassisning operatsional xususiyatlari);

5) mehnat va kasb borasidagi psixologik bilimlar;

6) psixotexnologiyalar, psixologik harakatlar, usullar, metodlar, mahorat va texnikasi (ularning, shaxsning o‘zi va boshqalarga ta’siri);

7) kasbiy qobiliyat, kasbiy salohiyat, kasbiy jihatdan o‘sish imkoniyatlari;

8) kasbga xos, shu jumladan, ijodiy fikrlash, kasbiy tajribani boyitish imkoniyatlari;

9) kasbiy jihatdan o‘sishni rejalashtirish va rivojlanish;

10) psixologik ziddiyatlar (kasbiy faoliyatga mutlaqo yoki muayyan darajada mos kelmaydigan psixik sifatlar, bu o‘rinda kasbga xos operatsional ziddiyatlarni aniqlab olish maqsadga muvofiqdir);

11) kasbiy jihatdan o‘sish yo‘nalishlari.

Bizning nazarimizda kasbiy tavsifnoma mazmunida, yana shuningdek, kasbiy jihatdan tayyorlash va qayta tayyorlash, alohida psixologik sifatlarini mashq qildirish, o‘zgartirish, o‘rnini to‘ldirish, kasbiy malakani oshirish va turdosh kasbga yo‘naltirish (shaxsning individual xususiyatlarini inobatga olish asosida) masalalarining yoritilishi maqsadga muvofiqdir.

Mutaxassis shaxsi va faoliyatini modellashtirishga nisbatan yondashuvlarning turlicha bo‘lishiga qaramay, ilmiy tadqiqotlarda kasbiy pedagogik tayyorgarlik tizimida mutaxassisning kasbiy va shaxsiy kamoloti, shuningdek, mutaxassisni kasbiy tayyorlash jarayonining modelini yaratish muammosi tadqiq etilmagan.

Buyuk Britaniyalik olim M.Rozenberg o‘qituvchi faoliyatining to‘qqiz yo‘nalishi va ularga nisbatan qo‘yiluvchi quyidagi kasbiy talablarni ishlab chiqdi:

- o‘quvchilarning talab va ehtiyojlarini bilish;
- faoliyat samaradorligini baholay olish;
- o‘quv dasturlarini ishlab chiqa olish layoqatiga egalik;
- kasbiy mahoratga ega bo‘lish;
- maslahatchi bo‘la olish;
- kommunikabellik layoqatiga ega bo‘lish;
- ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish qobiliyatiga egalik;

– doimiy ravishda kasbiy mahoratni takomillashtirib borishga erishish;

– shaxsini madaniy jihatdan takomillashuviga erishish.

Nazorat savollari:

1. Oliy ta’lim tizimi pedagogi “Mutaxassis modeli” tushunchasi mohiyatini nimalar tashkil etadi?
2. Oliy ma’lumotli mutaxassislar tomonidan tashkil etiluvchi faoliyat turlariga ko‘ra barcha talablarni qanday uchta guruhga birlashtirish mumkin?
3. Psixologik tavsifnoma (psixogramma) nima?
4. “Pedagogik mahorat” tushunchasiga ta’rif bering.
5. Pedagogning kommunikativ kompetentligi nima?

3-MA’RUZA. PROFESSOR-O‘QITUVCHILARNING O‘QUV VA O‘QUV-USLUBIY ISHLARIDA PEDAGOGIK MAHORATINI YUKSALTIRISH. (2 SOAT).

Reja:

1. Professor-o‘qituvchilarning shaxsiy ish rejasi tarkibiy qismlari;

2. Professor-o‘qituvchilarning o‘quv-uslubiy ishlarini belgilash.

Oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilari tarkibi mehnatini normalashtirish har o‘quv yili uchun professor-o‘qituvchilar va kafedra mudiri tomonidan tuziladigan hamda prorektorlar bilan kelishilgan holda o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor (fakultet dekani) tomonidan tasdiqlanadigan o‘quv yili bo‘yicha shaxsiy ish rejalariga asoslanadi.

Professor-o‘qituvchilarning o‘quv yili bo‘yicha shaxsiy ish rejasi tarkibiga o‘quv yuklamasi hamda o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «ustoz-shogird» ishlarining turlari kiritiladi. Ish turlari professor-o‘qituvchilarning o‘quv yili bo‘yicha shaxsiy ish rejalarida to‘liq va aniq aks ettirilishi kerak. Joriy o‘quv yili yakunida faqat mazkur o‘quv yili davomida amalga oshirilgan ishlar hisobga olinadi.

O‘quv yili davomida bajarilgan qo‘shimcha ish turlari professor-o‘qituvchilarning yillik shaxsiy ish rejalariga kiritib borilishi mumkin.

Professor-o‘qituvchilarning shaxsiy ish rejasi tarkibiga kiritiladigan o‘quv yuklamasi hamda o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «ustoz-shogird» ishlari:

- to‘liq shtatda faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituvchilar uchun professor-o‘qituvchilarning lavozimlariga qo‘yilgan malaka talablari asosida;
- to‘liq shtatda bo‘lmagan va o‘rindosh sifatida faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituvchilar uchun ularning stavkalariga muvofiq tarzda professor-o‘qituvchilarning lavozimlariga qo‘yilgan malaka talablari asosida;

shuningdek, mehnatga haq to‘lashning soatbay shartlari asosida faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituvchilarning o‘quv yuklamasi ushbu Qoidalarga muvofiq shakllantiriladi.

Professor-o‘qituvchilarning o‘quv yili bo‘yicha shaxsiy ish rejasining bajarilishi muntazam ravishda kafedra mudiri, har semestr yakunida fakultet dekani, dekan o‘rinbosarlari, fakultet tuzilmasi bo‘lmagan oliy ta’lim muassasalarida o‘quv bo‘limi va tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha prorektorlar tomonidan nazorat qilib boriladi.

Professor-o‘qituvchilarning o‘quv yuklamasini hisoblash

Professor-o‘qituvchilarning o‘quv yili bo‘yicha shaxsiy ish rejasiga kiritilgan, uning asosiy qismi bo‘lgan o‘quv yuklamasining soatlardagi hajmi 1-jadval nazarda tutilgan Oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilarining o‘quv yuklamasi hajmini hisoblashning vaqt me’yorlarida belgilangan ish turlaridan kelib chiqib, professor-o‘qituvchilarning lavozimlariga qo‘yilgan malaka talablari asosida hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilarining o‘quv yuklamasi hajmini hisoblashning vaqt me’yorlari

T/r	Ish turlari	Ish turlari uchun ajratilgan vaqt me’yori	Ish turlarining bajarilganligini aniqlash
1.	O‘quv (ma’ruza, amaliy, seminar, yakka va laboratoriya) mashg’ulotlarini o‘tkazish.	bir akademik soat uchun — 1 soat	O‘quv mashg’ulotlari o‘quv rejaga muvofiq bir akademik soatdan (45 minut) yoki tanaffussiz ikki akademik soatdan (80 minut) o‘tkaziladi. Bunda: amaliy va seminar mashg’ulotlari talabalar soni, odatda, 25 nafargacha talaba bo‘lgan akademik guruhlarda; ma’ruza mashg’ulotlari, odatda, 100 nafardan oshmagan birlashgan akademik guruhlarda (potok), tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida klinik kafedralarda tsiklga kelgan guruhlarda (potok); laboratoriya mashg’ulotlari va chet (rus) tilini o‘qitish, chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanidan amaliy mashg’ulotlar, tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida tibbiy-biologik, klinikagacha bo‘lgan va gigienik fanlar (tibbiyot oliy ta’lim muassasalari uchun) o‘qitish, nofilologik yo‘nalishlarda fanni chet tilida o‘qitish, odatda, 12 — 15 nafargacha talaba bo‘lgan kichik guruhlarda; madaniyat, san’at va sport yo‘nalishlarida yakka tartibdagi mashg’ulotlar, odatda, 1 — 10 nafargacha, ansambl mashg’ulotlarida 2 — 12 nafargacha talaba bo‘lgan kichik guruhlarda; tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida klinik fanlarni o‘qitish, odatda, 5 — 10 nafargacha talaba bo‘lgan kichik guruhlarda o‘tkaziladi. O‘quv mashg’ulotlarining o‘tkazilganligi guruh jurnalida qayd etiladi. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalari uchun o‘quv mashg’ulotlarining o‘tkazilganligi o‘quv jurnalida qayd etiladi.
2.	YAkuniy davlat attestatsiyasi belgilangan fanlardan umumlashgan ma’ruzalar va maslahatlar o‘tkazish	bitta fanga (bitta potok uchun) — 6 soat	Umumlashgan ma’ruzalar va maslahatlarning o‘tkazilishi yakuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazish jadvalida qayd etiladi.

3.	Kurs ishlari va kurs loyihalariga rahbarlik qilish, ular bo‘yicha maslahatlar berish.	bir kurs ishi uchun — 2 soat; bir kurs loyihasi uchun — 3 soat.	Bir professor-o‘qituvchi bir semestr davomida, odatda, 50 nafargacha talabaga (ko‘pi bilan 1-2 ta akadem guruh talabalariga) kurs ishi (loyihasi) berishi mumkin. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalari uchun o‘quv rejada ko‘rsatilgan fanlar bo‘yicha o‘tkaziladi.
4.	Kurs ishi (kurs loyihasi) himoyasini o‘tkazish.	bir kurs ishi himoyasi uchun — 0,4 soat; bir kurs loyihasi himoyasi uchun — 0,6 soat. Bunda professor-o‘qituvchining bir kunlik ish soati hajmi 8 soatdan oshmasligi lozim.	Kurs ishi (loyihasi) himoyasida kamida 2 nafar professor-o‘qituvchi ishtirok etadi. Jami soatlar himoyada ishtirok etgan professor-o‘qituvchilar soniga bo‘linadi va ular o‘rtasida teng taqsimlanadi. Professor-o‘qituvchining kurs ishi (loyihasi) himoyasini o‘tkazishda ishtirok etishi tegishli qaydnomalarda aks ettiriladi.
5.	YAkuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazish.	yozma ish shaklida bir akadem guruh uchun — 3 soat; og’zaki shaklda bitta talaba uchun — 0,2 soat, ijodiy ishlarda bitta talaba uchun — 0,3 soat; yozma ish (ijodiy ish) ni tekshirish uchun har bir ishga — 0,2 soat; test shaklida bitta akadem guruh uchun — 1 soat. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida klinikagacha bo‘lgan integrallashgan imtihon va bemorda o‘tkazilgan klinik imtihon bo‘yicha bir nafar talaba uchun — 0,5 soat (integrallashgan attestatsiya uchun). YAkuniy davlat attestatsiya komissiyasi raisiga komissiyaning bitta a’zosi uchun beriladigan jami soatga qo‘shimcha ravishda 20% qo‘shiladi. Komissiya a’zolariga beriladigan bir kunlik o‘quv yuklamasi hajmi 8 soatdan oshmasligi lozim.	Bir potok (akadem guruh) da yozma ish o‘tkazish jarayonida ishtirok etgan komissiyaning har bir a’zosi (kuzatuvchi professor-o‘qituvchi)ga 3 soatdan beriladi. Og’zaki shaklda o‘tkazilgan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari jami soati unda ishtirok etgan komissiyaning har bir a’zosiga beriladi. YOzma ish shaklida o‘tkazilgan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarining jami soati yozma ishni tekshirishda ishtirok etgan komissiya a’zolari umumiy soniga bo‘linadi hamda komissiya a’zolariga teng taqsimlanadi. Test shaklida o‘tkazilgan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari jami soati unda ishtirok etgan komissiyaning har bir a’zosiga beriladi. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida klinikagacha bo‘lgan integrallashgan imtihon va bemorda o‘tkazilgan klinik imtihonda jami soatlar imtihon olishda ishtirok etganlar orasida teng taqsimlanadi. YAkuniy davlat attestatsiyasida ishtirok etish tegishli buyruq va qaydnomalarda aks ettiriladi. YAkuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi tarkibini oldindan aniqlash imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, komissiya a’zolari (kuzatuvchi

			professor-oʻqituvchi)ga komissiya oʻz ishini tugatgandan soʻng, soatbay haq toʻlanadi. Bunda ushbu soatbay ish turi professor-oʻqituvchining yillik shaxsiy ish rejasiga kiritilmaydi.
6.	Namunaviy oʻquv dasturlarida koʻzda tutilgan nazorat, hisoblash va hisob-grafik ishlarini tekshirish, maslahatlar berish, taqriz yozish va qabul qilish. Tibbiyot oliy taʼlim muassasalarida klinik fanlarni oʻqitishda ishchi oʻquv dasturlarida koʻzda tutilgan kasallik tarixlari va ekspertiza bayonnomalarini tekshirish, maslahatlar berish va qabul qilish.	bitta topshiriq uchun 0,3 soat, biroq bitta fanga koʻpi bilan — 1 soat. Bitta kasallik tarixi va ekspertiza bayonnomasi uchun — 0,5 soat	Bir professor-oʻqituvchiga kafedra qaroriga asosan koʻpi bilan 3 tagacha akademik guruh talabalari biriktiriladi. Tibbiyot oliy taʼlim muassasalarida kasallik tarixi tegishli kafedrada bir yil davomida saqlanadi. Mazkur ishlarning bajarilishi talabalarni baholash jurnallarida aks ettiriladi.
7.	Oraliq va yakuniy baholashlarni oʻtkazish, shuningdek talabaning qoldirgan (oʻzlashtirmagan) darslarini qayta topshirishini qabul qilish.	fan boʻyicha oraliq baholashlarda jami har bir talaba uchun — 0,2 soat; yakuniy baholashda har bir talaba uchun — 0,3 soat. Qoldirilgan (oʻzlashtirilmagan) darslarni qayta topshirishni qabul qilishda har bir talaba uchun — 0,3 soat. Bunda bir oʻquv semestri davomida bir professor-oʻqituvchiga koʻpi bilan 20 soat beriladi.	Semestr davomida bitta fandan koʻpi bilan 2 tagacha oraliq baholash oʻtkaziladi. Bunda modul tizimida oʻqitilmayotgan va hajmi (umumiy auditoriya soati) semestr davomida haftasiga toʻliq 2 akademik soatdan (tibbiyot oliy taʼlim muassasalarida 4 akademik soatdan) kam boʻlgan fanlardan oraliq baholash oʻtkazilmaydi. Oraliq va yakuniy baholashlar oʻtkazilishi tegishli jadvallarda aks ettiriladi. YOzma ishlar natijalari eʼlon qilingandan soʻng 6 oy davomida saqlanadi. Baholashlar jadvali (grafigi) semestr boshlangan muddatda talabalarga professor-oʻqituvchi tomonidan eʼlon qilinadi. Darslarni qayta topshirish tegishli jurnal yoki qaydnomalarda aks ettiriladi.
8.	Bakalavriat taʼlim yoʻnalishi talabalari amaliyotiga rahbarlik qilish, ularning	Malakaviy amaliyot oʻtayotgan har bir talaba uchun bir ish kuniga — 0,5 soat. Bunda:	Mazkur ish turi boʻyicha professor-oʻqituvchining soatlari hajmi oʻquv ishlari yuklamasining 20% idan oshmasligi lozim.

	hisobotlarini tekshirish va baholash.	o‘quv amaliyotiga rahbarlik qilish 1 akadem guruh uchun bir ish kuniga — 6 soat; ishlab chiqarish va pedagogik amaliyotga rahbarlik qilish: agar ishlab chiqarish va pedagogik amaliyot o‘talayotgan tashkilot oliy ta’lim muassasasi joylashgan hudud doirasida bo‘lsa, bir ish kuniga 1 akadem guruh uchun — 3 soat; agar ishlab chiqarish va pedagogik amaliyot o‘talayotgan tashkilot oliy ta’lim muassasasi joylashgan hudud doirasida bo‘lmasa, amaliyotga rahbarlik qilish bir ish kuniga — 6 soat. Individual holda o‘tkaziladigan amaliyotlarda butun amaliyot davriga bir talaba uchun — 2 soat.	Mazkur ishlarning bajarilganligi amaliyot o‘tash bo‘yicha oliy ta’lim muassasasi buyrug’i, talabaning amaliyot kundaligi va amaliyot uchun baho qo‘yilgan tegishli qaydnomalar asosida aniqlanadi.
9.	Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalarining bitiruv malakaviy ishiga (diplom loyihasi, diplom ishi) rahbarlik qilish, xulosalar yozish.	bir o‘quv yiliga har bir talaba uchun — 25 soat, texnik yo‘nalishlarda har bir talaba uchun – 30 soat	Bir o‘quv yilida bitta professor-o‘qituvchiga 7 nafargacha talaba biriktiriladi. Professor-o‘qituvchining bitiruv malakaviy ishiga (diplom loyihasi, diplom ishi) rahbarlik qilganligi, xulosalar yozganligi oliy ta’lim muassasasi buyrug’i, yozilgan xulosa va ishning himoyaga taqdim etilganligi asosida aniqlanadi.
10.	Talabalarning bitiruv malakaviy ishi (diplom loyihasi, diplom ishi, magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasida ishtirok etish.	bir bitiruv malakaviy ishi (diplom loyihasi, diplom ishi) uchun — 0,4 soat; bir magistrlik dissertatsiyasi uchun — 0,8 soat. Professor-o‘qituvchiga beriladigan bir kunlik o‘quv ishlari yuklamasi hajmi, odatda, 8 soatdan oshmasligi lozim.	A’zolarning yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasidagi ishtiroki oliy ta’lim muassasasi buyrug’i hamda himoya natijalari to‘g’risidagi qaydnomalar asosida aniqlanadi. Jami soat yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasida ishtirok etgan har bir a’zoga beriladi. Bir YADAK yig’ilishida 4 tagacha magistrlik dissertatsiyasi, 8 tagacha BMI himoyasiga ruxsat beriladi. YAkuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi tarkibini oldindan aniqlash imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, komissiya a’zolariga komissiya o‘z ishini tugatgandan so‘ng, soatbay haq to‘lanadi. Soatbay ish turi professor-o‘qituvchining yillik shaxsiy ish

			rejasiga kiritilmaydi.
11.	Magistratura talabalarining ilmiy pedagogik faoliyati va amaliyotiga rahbarlik qilish. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalari uchun klinik ordinatorlarning o‘quv va klinik amaliyotiga rahbarlik qilish.	bir o‘quv yiliga bitta talaba uchun — 50 soat. Bir o‘quv yiliga bitta klinik ordinator uchun — 50 soat.	Professor yoki fan doktori 5 nafargacha, dotsent, fan nomzodi va mutaxassis 3 nafargacha talabaning ilmiy pedagogik faoliyati va amaliyotiga rahbarlikni amalga oshirishi mumkin. Professor, fan doktori, dotsent, fan nomzodi va mutaxassis 4 nafargacha klinik ordinatorning o‘quv va klinik amaliyotiga rahbarlikni amalga oshirishi mumkin. Talabaning ilmiy pedagogik faoliyatiga rahbarlik qilganlik talabaning kalendar ish rejasidagi topshiriqlarni bajarishi bilan aniqlanadi. Amaliyotga rahbarlik qilganlik oliy ta’lim muassasasining amaliyot o‘tash bo‘yicha buyrug’i, talabaning amaliyot kundaligi va amaliyot uchun baho qo‘yilgan tegishli qaydnomalar asosida aniqlanadi.
12.	Magistratura talabasining magistrlik dissertatsiyasi va ilmiy-tadqiqot ishiga rahbarlik (ilmiy maslahatchilik) qilish.	bir o‘quv yiliga bitta talaba uchun — 50 soat.	Professor yoki fan doktori 5 nafargacha, dotsent, fan nomzodi va mutaxassis 3 nafargacha talabaning magistrlik dissertatsiyasi va stajirovkasiga (ilmiy maslahatchilik) rahbarlikni amalga oshirishi mumkin. Mazkur ish turining bajarilganligi oliy ta’lim muassasasi buyrug’i, talabaning kalendar ish rejasi va magistrlik dissertatsiyasining himoyaga taqdim etilgani asosida aniqlanadi.
13.	Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlarni, shuningdek magistratura va klinik ordinatura mutaxassisliklari qabuli jarayonida kirish sinovlarini o‘tkazish komissiyasida, tayanch doktorant (PhD), doktorant va mustaqil izlanuvchilar tanlovi komissiyasida va malaka imtihonida	yozma ish shaklida o‘tkazilganda bir potok (abiturientlar guruhi) uchun — 3 soat; og’zaki shaklda o‘tkazilganda, bitta abiturient uchun — 0,3 soat; test shaklida o‘tkazilganda, bir potok (abiturientlar guruhi) uchun — 1 soat; har bir yozma ish (ijodiy ish)ni tekshirish uchun — 0,3 soat. Professor-o‘qituvchiga beriladigan bir kunlik o‘quv ishlari yuklamasi hajmi 8 soatdan oshmasligi lozim.	Bir potok (abiturientlar guruhi)da yozma ishni o‘tkazish jarayonida ishtirok etgan har bir professor-o‘qituvchiga 3 soatdan beriladi. YOzma ish shaklida o‘tkazilgan imtihon va sinovlarning jami soati yozma ishni tekshirishda ishtirok etgan komissiya a’zolari soniga teng bo‘linadi hamda ular o‘rtasida teng taqsimlanadi. Og’zaki (test) shaklida o‘tkazilgan imtihon va sinovlarning jami soati unda ishtirok etgan komissiyaning har bir a’zosiga beriladi. Qabul imtihonlari va sinovlarida ishtirok etganlik oliy ta’lim muassasasining tegishli buyrug’i va tegishli qaydnomalar asosida

	ishtirok etish.		aniqlanadi. Komissiya a’zolari tarkibini oldindan aniqlash imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, komissiya a’zolariga komissiya o‘z ishini tugatgandan so‘ng, soatbay haq to‘lanadi. Soatbay ish turi professor-o‘qituvchining yillik shaxsiy ish rejasiga kiritilmaydi.
14.	Oliy ta’lim muassasasidagi doktorant va mustaqil izlanuvchiga ilmiy maslahatchilik qilish.	bir nafar doktorant uchun bir o‘quv yilida — 100 soat; bir nafar mustaqil izlanuvchi uchun bir o‘quv yilida — 50 soat.	Fan doktori, professor va fan nomzodi, dotsent o‘zi ishlayotgan oliy ta’lim muassasasida 3 nafargacha doktorant va mustaqil izlanuvchiga ilmiy maslahatchilik qilishi mumkin. Ilmiy maslahatchi bo‘lganlik oliy ta’lim muassasasining tegishli buyrug’i, doktorant va mustaqil izlanuvchining yakka tartibdagi ish rejasi bajarilishi asosida aniqlanadi.
15.	Ochiq, muammoli, integratsiyalashgan ma’ruzalar va master-klasslarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish.	bir akademik soat ochiq lektsiya va master-klass uchun — 5 soat; ochiq, muammoli, integratsiyalashgan ma’ruza uchun bir o‘quv yilida ko‘pi bilan — 30 soat. Master-klass: oliy ta’lim muassasasi miqyosida o‘tkazilganda, bir o‘quv yilida ko‘pi bilan 30 soat; respublika miqyosida o‘tkazilganda, bir o‘quv yilida ko‘pi bilan 40 soat; xalqaro miqyosda o‘tkazilganda, bir o‘quv yilida ko‘pi bilan 60 soat.	Oliy ta’lim muassasalarida o‘tkazilgan ochiq, muammoli, integratsiyalashgan ma’ruza va master-klasslar tegishli rejalar va ularning o‘tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida aniqlanadi.
16.	Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o‘qish.	qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o‘qiganlik uchun — haftasiga 36 soatdan.	Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o‘qiganligini tasdiqlovchi hujjat asosida aniqlanadi.
17.	Sirtqi bo‘lim talabalarining nazorat ishlariga taqriz yozish.	1 nazorat ishiga 0,75 soat; nazorat ishi bo‘yicha suhbatga 0,25 soat, bir fanga bir semestrga 1,5 soat;	Nazorat ishlari (grafigi) semestr boshlangan muddatda talabalarga professor-o‘qituvchi tomonidan e’lon qilinadi.

Professor-o‘qituvchilarning egallab turgan lavozimlari bo‘yicha o‘quv yuklamasi hajmi fakultet dekani (kafedra mudiri)ning taklifiga muvofiq oliy ta’lim muassasasining Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

O‘quv yuklamasi bo‘yicha hisoblangan soatlar hajmi oliy ta’lim muassasasining shtat birliklari sonini hamda professor-o‘qituvchilarning oylik maoshlarini belgilash uchun asos bo‘lmaydi.

SHtat birliklari professor-o‘qituvchilarning talabalar soniga nisbati bo‘yicha, oylik maoshi esa xarajatlar smetasi bo‘yicha tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 11 martdagi 133-son qarori bilan tasdiqlangan Ijodiy ta’tillar berish tartibi hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan normalarga muvofiq olib borilayotgan ilmiy-metodik va ilmiy-tadqiqot ishlarini rag’batlantirish maqsadida professor-o‘qituvchilarning o‘quv ishlari yuklamasi hajmi kafedra yig’ilishining taklifiga asosan oliy ta’lim muassasasi kengashining qarori bilan o‘zgartirilishi mumkin. Bunda professor-o‘qituvchilarning tegishli o‘quv yuklamasining muayyan qismi kafedraning boshqa professor-o‘qituvchilarining o‘quv yuklamasiga qo‘shimcha ravishda taqsimlanadi.

Ma’ruza mashg’ulotlari ilmiy unvon va ilmiy darajaga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchilar tomonidan o‘tkaziladi. Zarur hollarda (ma’ruza mashg’ulotlari hajmi ko‘p bo‘lganda yoki professor, dotsent va katta o‘qituvchilar etarli bo‘lmaganda) oliy ta’lim muassasasi Kengashining qaroriga asosan kamida 3 yillik ilmiy-pedagogik ish stajiga ega bo‘lgan, biroq ilmiy unvon va ilmiy darajasi bo‘lmagan o‘qituvchilarga bir o‘quv yilida 250 soatgacha hajmda ma’ruza mashg’ulotlarini o‘tishga ruxsat beriladi.

Professor-o‘qituvchilarning o‘quv (ma’ruza, amaliy (yakka), seminar va laboratoriya) soatlari hajmi 400 soatdan kam bo‘lmasligi tavsiya etiladi. Kafedraga sohaning etakchi mutaxassislari (akademiklar va professorlar) jalb etilganda, ushbu o‘quv soatlari hajmiga oliy ta’lim muassasasi Kengashi qaroriga muvofiq o‘zgartirish kiritish mumkin.

Professor-o‘qituvchilarning o‘quv-uslubiy ishlarini belgilash

Professor-o‘qituvchilar faoliyatining o‘quv-uslubiyishlari bo‘yicha soatlar hajmi hisoblanmaydigan ish turlari 2-jadvalda nazarda tutilgan Oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilarining o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «ustoz-shogird» ishlari turlaridan kelib chiqib, professor-o‘qituvchilarning lavozimlariga qo‘yilgan malaka talablari asosida belgilanadi.

Oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilarining o‘quv-uslubiy ishlarini turlari

T/r	Ish turlari	Ish turlarini amalga oshirish mexanizmi (professor-o‘qituvchining shaxsiy ish rejasida qayd etiladigan tadbirlar)	Ish turlarining bajarilganligini aniqlash
O‘quv-uslubiy ishlar			
1.	YAngi ma’ruza matnlari, mashq (masalalar) to‘plami, laboratoriya, ijodiy ishlari bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalarni ishlab chiqish, yozish va nashr etish.	YAngi ma’ruza matnlari, mashq (masalalar) to‘plami, laboratoriya, ijodiy ishlar bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar yaratish	Oliy ta’lim muassasasi (fakultet) O‘quv-uslubiy (ilmiy) kengashi qarori bilan nashr etishga tavsiya etilgan ishlanmalar asosida aniqlanadi.
2.	Tarqatma o‘quv materiallari, elektron o‘quv dasturlar va video mashg’ulotlar (fan doirasida), shuningdek tegishli kompyuter dasturlaridan foydalangan holda taqdimot slaydlari, o‘qitish dasturlarini tayyorlash (yaratish).	YAngi tahrirdagi tarqatma o‘quv materiallarini tayyorlash; fan bo‘yicha kompyuter dasturlaridan foydalangan holda taqdimot slaydlari, o‘qitish dasturlarini tayyorlash; elektron o‘quv dasturlar va video mashg’ulotlar fan doirasida yaratish.	Oliy ta’lim muassasasida joriy o‘quv yilida qo‘llanilgan materiallar (dasturlar) asosida aniqlanadi.
3.	Darslik, o‘quv qo‘llanmalar yozish va nashr etishga tayyorlash.	Darslik va o‘quv qo‘llanmalarni yozish va nashrga tayyorlash.	Oliy ta’lim muassasasi (fakultet) O‘quv-uslubiy (ilmiy) kengashi qarori bilan nashr etishga tavsiya etilgan darslik va o‘quv qo‘llanma asosida aniqlanadi.
4.	Darslik, o‘quv qo‘llanmalarni to‘ldirilgan va o‘zgartirilgan holda	Darslik va o‘quv qo‘llanmalarga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish va nashrga tayyorlash.	Oliy ta’lim muassasasi (fakultet) O‘quv-uslubiy (ilmiy) kengashi qarori bilan nashr etishga tavsiya etilgan darslik va o‘quv qo‘llanma

	qayta nashr etish.		asosida aniqlanadi.
5.	Uslubiy qo‘llanma (ko‘rsatma, risola)lartayyorlash va nashr etish.	Ta’limga tegishli bo‘lgan Uslubiy qo‘llanma (ko‘rsatma, risola)lar tayyorlash va nashr etish.	Oliy ta’lim muassasasi (fakultet) O‘quv-uslubiy (ilmiy) kengashi qarori bilan nashr etishga tavsiya etilgan uslubiy qo‘llanma (ko‘rsatma, risola) asosida aniqlanadi.
6.	Fanning o‘quv-uslubiy majmuasini ishlab chiqish va fanning elektron modul papkasini yaratish.	Fanning o‘quv-uslubiy majmuasini yaratish.	O‘quv jarayonida qo‘llanilgan ishlar asosida aniqlanadi.
7.	Mavjud laboratoriya ishini yangilash.	Mavjud laboratoriya ishini yangilash.	Kafedra yig’ilishi bayonnomasi va laboratoriya ishi bo‘yicha joriy o‘quv yilida tayyorlangan yangi uslubiy ko‘rsatmalar asosida aniqlanadi.
8.	YAngi laboratoriya ishini tayyorlash va joriy etish, shuningdek virtual laboratoriya ishini tayyorlash va joriy etish.	YAngi laboratoriya ishini tayyorlash va joriy etish.	Kafedra yig’ilishi bayonnomasi va laboratoriya ishi bo‘yicha joriy o‘quv yilida tayyorlangan yangi uslubiy ko‘rsatmalar asosida aniqlanadi.
9.	Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi (magistratura, klinik ordinatura mutaxassisligi) bo‘yicha malaka talabi, namunaviy o‘quv reja, yangi fan uchun namunaviy o‘quv dasturlarini ishlab chiqish.	Malaka talabi, o‘quv reja, va o‘quv dasturini ishlab chiqish.	Joriy o‘quv yili uchun tasdiqlangan malaka talabi, namunaviy o‘quv reja va dasturlar asosida aniqlanadi.
10.	Ishchi o‘quv reja, fan bo‘yicha ishchi o‘quv dasturini ishlab chiqish	Ishchi o‘quv reja va fan bo‘yicha ishchi o‘quv dasturini ishlab chiqish	Kafedra yig’ilishi bayonnomasi va kafedrada mavjud bo‘lgan, joriy o‘quv yilida tayyorlangan ishchi o‘quv reja va dasturlar asosida aniqlanadi.
11.	Darslik, o‘quv qo‘llanmalar va boshqa materiallarni tarjima qilish.	Darslik, o‘quv qo‘llanma va fan doirasida boshqa materiallarni tarjima qilish.	Oliy ta’lim muassasasining tegishli buyrug’i, O‘quv-uslubiy (ilmiy) kengash qarori bilan joriy o‘quv yilida tayyorlangan tarjima materiallari asosida aniqlanadi.
12.	Fanlar bo‘yicha nazorat savollari (test, masalalar va boshqa), oraliq va yakuniy baholashlar	Oraliq va yakuniy baholashlar uchun nazorat savollari (test, masalalar va boshqa), topshiriqlar ishlab chiqish.	Ishlab chiqilgan hamda kafedra bayonnomasi bilan joriy etilgan topshiriqlar to‘plami asosida aniqlanadi.

	uchun topshiriqlarni ishlab chiqish.		

Professor-o‘qituvchilarning o‘quv-uslubiy ishlari hajmi mazkur ish turlarini bajarish zaruriyatidan kelib chiqib, professor-o‘qituvchilarning lavozimlariga qo‘yilgan malaka talablari asosida fakultet dekani (kafedra mudiri)ning taklifiga muvofiq oliy ta’lim muassasasi Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Professor-o‘qituvchilarning ilmiy-pedagogik, ijodiy mahoratini uzluksiz oshirib borish, talabalarda chuqur nazariy bilim, amaliy va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish, ilm-fanga bo‘lgan qiziqishni uyg’otish, ularga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, har tomonlama etuk mutaxassis tayyorlashni nazarda tutgan holda kafedra mudiri o‘qitishni ilg’or pedagogik va kompyuter texnologiyalari, yangi avlod o‘quv adabiyotlari asosida tashkil etish hamda o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «ustoz-shogird» ishlar bo‘yicha aniq topshiriqlarni belgilaydi.

Nazorat savollari:

1. Professor-o‘qituvchilarning shaxsiy ish rejasi nechta tarkibiy qismlardan iborat?
2. Professor-o‘qituvchilarning o‘quv yili bo‘yicha shaxsiy ish rejasiga kiritilgan, uning asosiy qismi bo‘lgan o‘quv yuklamasining soatlardagi hajmi nimalarga qarab belgilanadi?
3. Oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilarining o‘quv yuklamasi hajmini hisoblashning vaqt me’yorlarida qanday ish turlari assistentlar uchun belgilangan?
4. “Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari amaliyotiga rahbarlik qilish, ularning hisobotlarini tekshirish va baholash” ish turining bajarilganligi qanday aniqlanadi?
5. Professor-o‘qituvchilarning o‘quv yili bo‘yicha shaxsiy ish rejasiga kiritilgan “Ochiq, muammoli, integratsiyalashgan ma’ruzalar va master-klasslarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish” ish turiga nechchi soat ajratilishi mumikn va u qanday isbotlanadi?

IV. AMALIY MASHG’ULOTLAR MATERIALLAR

1-AMALIY MASHG’ULOT. AMALIY MASHG’ULOTLARDA (LABORATORIYA ISHLARI) INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VA YANGI PEDAGOGIK USULLARNI QO‘LLASH (4 SOAT).

Reja:

1. Virtual laboratoriyaning ta’lim sohasidagi ahamiyati;

2. Talabalarda kasbiy-amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda simulyatsiyaga asoslangan tibbiy ta’lim o‘rni.

O‘quv virtual laboratoriya - bu yakunlangan dasturli mahsulot bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyati avtomatlashtirilgan hamda loyihalashtirish samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan katta dasturli tizimlarni loyihalashtirishning zamonaviy konsepsiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Metodologik jihatdan virtual laboratoriyalarni sun’iy intellekt tizimlarida qabul qilingan jarayon, deklarativ va gibrid tizimlari turlariga asoslangan bilim berish, tasavvur modellaridan kelib chiqib, guruhlash mumkin. Virtual o‘quv laboratoriyadagi amaliy jarayon asosini amaliy dasturlar o‘quv paketi yoki ularning sanoat analoglari tashkil etadi. Ularni yaratishda asosiy e’tibor odatda matematik modellash, o‘rganilayotgan jarayon yoki obektlar optimallashtirish va hisob ishlariga qaratiladi. Amaliy dasturlar paketi bilan o‘quv ishlarida talabalar maxsus mutaxassislik malakalariga ega bo‘ lishlari kerak, ko‘pchilik hollarda ular hali malakalarga ega bo‘lmaydilar. Bunda quyidagi tamoyillarga asoslangan maxsus didaktik interfeys, stsenariyli sxemalar yordam berishi mumkin:

- o‘rganish faoliyatini faollashtirish uchun musobaqalashish vaziyatlarini yaratish;
- talabalarning bilish faoliyatini siklik, yopiq boshqarishni tashkil etish;
- qiziqarli namunaviy yoki o‘rgatuvchi masala yoki masalalar to‘plamini tanlash.

Bu tamoyillarni amalga oshirish tajribasi ularning yuqori didaktik samarasini ko‘rsatadi.

Virtual laboratoriyaning ahamiyati.

Texnik ma’lumotga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashda texnik obektlar loyihasini o‘rganish bo‘yicha laboratoriya ishlari katta ahamiyatga ega. SHu maqsadda maxsus o‘quv xonalari yaratilyapti. Ammo ularni yaratish uzoq vaqtni, jihozlash va tarkibi esa - katta moddiy resurslarni talab qiladi. Ta’lim jarayonida virtual xonalardan foydalanish haqiqiy o‘quv xonalaridan foydalanishni butunlay chetlashtirmaydi. Lekin, bunday mashg’ulotlarning elektron ko‘rinishi quyidagilarga imkon beradi:

- talabalarning o‘quv ishlarida faolliklari va mustaqilliklarini oshiradi;
- o‘quv materialining multimedia ko‘rinishidaligi bilan uni qabul qilishni osonlashtiradi;
- har bir talabaning materialni o‘zlashtirishi bo‘yicha to‘liq nazoratni ta’minlaydi;
- imtihon va reyting nazoratlari tayyorlanishda takrorlash va trening jarayonini osonlashtiradi;

Virtual laboratoriyada bilish bosqichlari.

Virtual laboratoriya o‘quv multimedia majmualaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Bilish faoliyatining asosiy bosqichlariga quyidagilar:

- Tanishuv, qabul qilish: metodik tavsiyalar, bosma qo‘llanmalar.
- Anglash, mustahkamlash va bilimlarni tekshirish: elektron o‘quv qo‘llanmalar, test tizimlari, virtual o‘quv xonalari.
- Kasbiy yo‘nalgan ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, intuitsiyani rivojlantirish: matematik yoki immitatsion modellash, trenajerlar va boshqa o‘quv tizimlari.
- Loyiha-tadqiqotchilik o‘quv faoliyati: o‘quv yoki ishlab chiqarish qo‘shimcha dastur paketlari kiradi.

Uzluksiz ta’limda biokimyo fani bo‘yicha virtual laboratoriyaning ishlari uchun namunalar.




Лабораторная работа 2.4. Свойства солей
Опыт 1: Разложение солей при нагревании
$KMnO_4$
Азот
Наблюдайте за изменениями, происходящими с исследуемой солью и с веществами в поглотительных приборах.
Журнал

Лабораторная работа 3.3. Ароматические углеводороды
Опыт 1: Бромирование бензола
Коллекция
Таблицы
Br_2
Бензол
H_2O
Лакмус
Fe
В капельную воронку прилейте бром.
Журнал

"Virtual laboratoriya" tushunchasining mohiyati tarkibiy qism bo‘lgan virtual asbob yordamida (oddiy elektron asbob bilan ishlagandek) kompyuterda ishlash imkoniyatini beradigan, oddiy kompyuterga qo‘shimcha qilingan apparatli va datsurli vositalar to‘plamini ifodalashdan iboratdir. Virtual asbob va virtual laboratoriyaning muhim qismi - foydalanuvchining samarali grafik interfeysi (ya’ni, foydalanuvchining kompyuter bilan o‘zaro aloqalarining qulay, interfaol rejimini ta’minlovchi), odatiy predmetli sohada ko‘rgazmali grafik namunalar ko‘rinishida grafik menyu tizimi bilan datsurli asbob hisoblanadi.

Ushbu bitiruv malakaviy ish mavzusi asosiy maqsadi talaba yoshlarning biokimyodan oladigan nazariy bilimlarini virtual laboratoriyalar asosida mustahkamlash va tajriba yo‘li bilan sinab ko‘rishdan iborat. Laboratoriya mashg’ulotlarini maruza bilan paralel ravishda o‘tkazilishi mashg’ulotlarning unumli va foydali bo‘lishiga yordam beradi. O‘tilgan material yuzasidan tajriba o‘tkazilib, unda bayon etilgan fikrlarning to‘g’riligiga amalda ishonganidan keyingina talaba ma’ruza materialini puxta egallaydi.

Bugungi kunda kompyuter texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi barcha sohalar kabi ta’lim sohasida xam yangi talablarni qo‘ymoqda. Ta’limning masofiy o‘qitish usuli xozirgi kunda o‘zining dolzarbligini ko‘rsatmoqda. Bir qator OO‘YUlari qoshida masofiy ta’lim muassasalari ochilmoqda. Demakki, o‘z-o‘zidan elektron darslikka bo‘lgan extiyoj kelib chiqmoqda.

SHunday ekan elektron darslik va ularni yaratish, uni oliy o‘quv yurtlarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, institutlarda qo‘llash hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib kelmoqda. Xozirgi kunda elektron darslikni qo‘llash uchun har bir oliy o‘quv yurtlari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida texnik bazalar mavjud. Rivojlangan mamlakatlarda bunday darsliklardan keng faydalanilyapti va samarali natijalarga erishilyapti.

Ta’limda biokimyo fanini o‘qitish yildan-yilga yaxshilanib bormoqda. CHunki xalq ho‘jaligining biror sohasi yo‘q-ki, biokimyo bilan bog’liq bo‘lmagan. SHuning uchun ham biokimyo fani chuqur nazariy asoslar bilan nazariy jihatdan

mustahkamlanib, biokimyo laboratoriyalari yangi zamonaviy jihozlar bilan boyitilmoqda. Ta’lim jarayoni murakkab bo‘lgan fanlar sirasiga kiruvchi biokimyo fanini o‘qitish birgina jihozlarning zamonaviylashishinigina ta’lab etmasdan balki,ta’lim sohasida ham muhim o‘zgarishlarni talab etadi. SHunga ko‘ra ushbu bitiruv malakaviy ishida ta’limni axborotlashtirish bo‘yicha - biokimyo fanida virtual laboratoriyani joriy qilish asosiy dolzarb masala sifatida o‘rtaga tashlangan.

Ta’limni axborotlashtirishda, bo‘lajak kadrlarning axborot va kommunikasion texnologiyalarni o‘zlashtirishlari bilan bir qatorda, aniq fan sohasida kadrlar tayyorlashni axborot va kommunikasion texnologiyalarni kommunikasion texnologiyalari vositalari yordamida jadallashtirish lozim. Keyingi vaqtlarda, ta’limda axborot va kommunikasion texnologiyalaridan foydalanish sohasida yangi atama "Virtual o‘quv laboratoriya" paydo bo‘ldi. Virtual o‘quv laboratoriya ochiq va masofaviy o‘qitish g’oyasiga muvofiq bo‘lib, ta’lim jarayonidagi moddiy-texnik ta’minot borasidagi muammolarni oz bo‘lsada dolzarbligini kamaytiradi.

Virtual o‘quv laboratoriya bo‘yicha ilmiy-metodik ishlarning mavjudlari ham asosan virtual asbob va ularni laboratoriya mashg’ulotlarida qo‘llashning yoritilishi bilan cheklangan, biroq, bizning fikrimizcha, virtual o‘quv laboratoriyasida faqatgina virtual asboblar emas, balki virtual o‘quv xonalari texnik ob’ektlar loyihasi, matematik va imitasion modellash tizimlari, amaliy dasturlar o‘quv va ishlab chiqarish paketlarini o‘z ichiga oladi. Virtual o‘quv laboratoriyaning o‘zi esa faqatgina laboratoriya mashg’ulotlarida emas, balki talabalarning kurs va diplom loyihalarida, o‘quv-tadqiqot ishlarida qo‘llanilishi mumkin.

Simulyatsiyaga asoslangan tibbiy ta’lim

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, shuningdek oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg’or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish xozirgi kun dolzarb yo‘nalishlardan biridir.

Dunyo bo‘yicha tibbiyot sohasi jadal rivojlanib bormoqda. Yildan yilga yangi diagnostika va davolash usullari amaliyotga tadbiq etilmoqda. Bu esa tibbiyot oliy ta’lim muassasalari oldiga davr bilan hamohang rivojlanishni va amaliyotga tadbiq etilayotgan yangiliklardan boxabar bo‘lishni taqozo etadi.

SHu bilan birga bemor huquqlari va tibbiy sohadagi yuridik munosabatlar ham yildan yilga takomillashib, noziklashib bormoqda. Bu esa bo‘lajak shifokorlardan ular qaysi sohada faoliyat ko‘rsatishidan qat’iy nazar o‘z kasbiga sidqidildan yondashuv va klinik ko‘nikmalarni mukammal darajada o‘zlashtirishni talab etmoqda. YUqoridagilar inobatga olinadigan bo‘lsa, hozirgi zamon talabidan kelib chiqqan holda “Simulyatsiyaga asoslangan tibbiy ta’lim”ni rivojlantirish juda muhimdir.

Simulyatsiyaga asoslangan tibbiy ta’lim tarixiga nazar tashlasak, rasmiy xabarlarga ko‘ra XVIII asrda birinchi fantomlar paydo bo‘lgan. 1712-1789 yillarda yashagan frantsiyalik doya Anjelika de Kyudre o‘z davri uchun noyob bo‘lgan fantomni yaratgan. Bu fantom tug’uruq jarayonini simulyatsiya qiluvchi fantom bo‘lib, 1758 yili Frantsiya Xirurglar Akademiyasi tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida foydalanish uchun tasdiqlangan va ruxsat berilgan.

Frantsiyalik doya Anjelika de Kyudre yaratilgan birinchi fantom

XX asrda elektronika va polimerlar rivojlanishi natijasida 1957 yili AQSHlik Piter Safar “ABC of Resuscitation” (yurak-o‘pka reanimatsiyasi) nomli kitobini chop ettirdi. Bu qo‘llanma asosida 1960 yili Norvegiyalik vrach Born Lind va tadbirkor Asmund Laerdal hamkorlikda sun’iy nafas berish mumkin bo‘lgan maneken yaratishdi. Bu maneken ham bir necha yillar davomida shoshilinch yordam ko‘rsatuvchi vrachlar uchun qo‘llanildi. Kompyuterlar rivojlanib borar ekan simulyatsion robotlarning yangi va yangi turlari yaratila boshlandi (CASE – o‘rgatuvchi anesteziologik simulyatsion muhit, GAS – anesteziologik simulyator). Keyinchalik esa nafaqat robot yoki fantom, balki butun bir operatsion, reanimatsion yoki tug’uruq xonalari simulyatsion markazlari yaratilib amaliyotga tadbiq etila boshlandi.

CASE – o‘rgatuvchi anesteziologik simulyatsion muhit

Simulyatsiyaga asoslangan tibbiy ta’lim bir qator rivojlangan davlatlarda faol qo‘llanilib kelmoqda. Masalan, AQSHdagi Garvard universtiteti tibbiyot kolledji, Kanadadagi Toronto universiteti tibbiyot fakulteti va Isroildagi tibbiyot oliygohida zamon talablari va standartlariga to‘la mos keladigan simulyatsiya markazlari foliyat ko‘rsatib kelmoqda. Bu markazlarda multi-ditsiplinar dasturlar orqali bakalavriatura va magistratura dasturlari bo‘yicha simulyatsiyaga asoslangan tibbiy ta’lim olib borilmoqda. SHuningdek, shifokorlar, hamshiralar, feldsherlar, oddiy fuqarolar uchun turli darajadagi ta’lim va zamonaviy tibbiy mashg’ulotlar amalga oshirilmoqda.

Tibbiy ta’limning islohot vazifalaridan kelib chiqqan holda ta’lim jarayonida zamonaviy o‘quv-texnik vositalari, birinchi navbatda kompyuter texnologiyalarining eng so‘nggi yutuqlari, tibbiy yordam ko‘rsatishda simulyatsion robotlar, kompyuter tizimlari va simulyatsiya dasturlari, masalan, “Standartlashtirilgan bemor” simulyatsion tizimining o‘quv jarayoniga kiritilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘qitish jarayonida simulyatsiya texnologiyalarini qo‘llash talabalar aqliy salohiyatining rivojlanishiga, birinchi yordam ko‘rsatish ko‘nikmalarining

shakllanishiga, aniq vaziyatlarda aniq harakatlar va real vaziyatlarda tezkor qarorlar qabul qilishni o‘rgatishga katta yordam beradi.

Tibbiy ta’limda “Simulyatsiyaga asoslangan tibbiy ta’lim”ni rivojlantirish, zamonaviy robotlar va simulyatsion tizimlarni o‘quv jarayoniga bosqichma-bosqich tadbiq etib borish tibbiyot sohasining rivojlanishiga va tibbiy xizmat sifatini oshirishga ulkan hissa qo‘shadi.

Janubiy Koreyaning Koreya Universiteti tibbiyot Kolledjida ham simulyatsion markaz bo‘lib, ushbu markaz ham eng ohirgi avlod mulyajlari bilan jixozlangan. Bu mulyajlar kompyuterlashtirilgan bo‘lib, talabalar amaliy ko‘nikmalar o‘zlashtirishda juda muximdir.

Koryo Universiteti Tibbiyot kolledji

Bu simulyatsion markazda mulyajlar turli tuman bo‘lib, talabalar bu mulyajlarda eng oddiy amaliy ko‘nikmalardan tortib (palpatsiyasi va perkussiya texnikasi, auskultatsiya va boshq.), murakkab amaliy ko‘nikmalarni (EKG o‘tkazish, intubatsion trubka qo‘yish, fiziologik tug’uruqni amalga oshirish va boshq.) ham o‘rganadilar.

KOREYA UNIVERSITETIDAGI SIMULYATSION MARKAZ

Simulyatsion markaz umumiy ko‘rinishi



Birlamchi amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun mulyajlar

Tezkor holatlarda yordam berish ko‘nikmalarini o‘rganuvchi manekenlar

Intubatsion trubka qo‘yish uchun mulyaj

Reanimatsion muolajalarni amalga oshir uchun simulyator-robot

Tug’uruq jarayonini o‘rgatuvchi simulyator robot

Oliy tibbiy ta’limda simulyatsion markazlarni rivojlantirish, bu markazlarda simulyatsiyaga asoslangan ta’limni keng joriy etish, zamonaviy robotlar va simulyatsion tizimlarni o‘quv jarayoniga bosqichma-bosqich tadbiq etib borish tibbiyot sohasining rivojlanishiga va tibbiy xizmat sifatini oshirishga ulkan hissa qo‘shadi. O‘qitish jarayonida simulyatsiya texnologiyalarini qo‘llash esa talabalar aqliy salohiyatining rivojlanishiga, birinchi yordam ko‘rsatish ko‘nikmalarining

shakllanishiga, aniq vaziyatlarda aniq harakatlar va real vaziyatlarda tezkor qarorlar qabul qilishni o‘rgatishga katta yordam beradi.

Tibbiyot universitetida qo‘llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar

Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonida talabalarni fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish maqsadida yangi innovatsion ta’lim texnologiyalari va usullarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

“Loyihalash” usuli. Albatta oliy ta’limning ikkinchi bosqichi bo‘lmish magistratura mutaxassislik yo‘nalishlariga o‘qishga kirgan talabalar ilmiy ish bilan shug’ullanadilar va magistrlik dissertatsiyasini himoya qiladilar. Afsuski, magistraturaga kirgan talabalarning hammasida ham ilmga nisbatan qiziqish yo‘q. SHu maqsadda bakalavriatura talabalarida ilmiy izlanishga bo‘lgan qiziqishni hosil qilish, ilm bilan shug’ullanish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida “Loyihalash” usuli o‘quv jarayonida qo‘llanilishi muxim ahamiyat kasb etadi.

“Loyihalash” usulining maqsadi quyidagilardir: talabalarni muammoni echishda maqsad va vazifalarni shakllantirishga o‘rgatish, ma’lumotlar bilan ishlash, yig’ilgan ma’lumotlarni tahlil qilish, statistik ishlov berish, tibbiy hujjatlar bilan ishlash, muammo echimini izlash ko‘nikmalarini shakllantirish va ilmiy ish yozishga bo‘lgan qiziqishni paydo qilishdir.

“Loyihalash” usuli talabalarda ilmiy izlanuvchanlik qobiliyatini (vaziyatni baholay olish, muammoni ajratib olish, zarur ma’lumotlarni tanlab olish, xulosalar qabul qilishni), guruhda ishlash qobiliyatini (bir maqsad yo‘lida gruhdosh talabalar bilan ishlashni), muloqotga kirishish qobiliyatini (o‘z fikrini bayon qila olish, boshqalarni tinglay olish, to‘g’ri tanqid qila olish, alternativ echimlar taklif qila olish) shakllanishiga yordam beradi.

“Loyihalash” usulini amalga oshirish uchun quyidagi shart-sharoitlar talab etiladi:



“Loyihalash” usulini amalga oshirish bosqichlari. “Loyihalash” usulining quyidagi bosqichlari bor: izlanish bosqichi, analitik bosqichi, amaliy bosqichi va xulosalash bosqichlari.

Izlanish bosqichida – mavjud muammo aniqlanadi va taxlil etiladi; loyiha mavzusi (loyiha maqsadi) tanlanadi; loyihaning bosqichlari va vazifalari rejalashtiriladi; loyiha mavzusi bo‘yicha ma’lumotlar yig’iladi, o‘rganiladi va taxlil qilinadi.

Analitik bosqichda – vazifalarning optimal echimi izlanadi; alternativ echimlar ham ko‘rib chiqiladi; maqsadga erishish optimal yo‘li tanlanadi va harakatlar

algoritmi tuziladi; manbalar tahlili o‘tkaziladi; loyihani amaliyotga tadbiq etish rejasi tuziladi.

Amaliy bosqichda – barcha rejalashtirilgan bosqichlar amalga oshiriladi; loyihani amalga oshirish sifati tekshiriladi; zaruriy hollarda kerakli o‘zgartirishlar kiritiladi.

Xulosalash bosqichida – loyiha natijalari rasmiylashtiriladi, loyiha taqdimoti o‘tkaziladi; pedagog tomonidan loyihaning bajarilish sifati baholanadi; natijalar tahlil etiladi; loyiha natijalarini amaliyotga tadbiq etish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

“Loyihalash” usulini amalga oshirishda pedagoglar ta’lim olayotgan talabalar loyihani amalga oshirishida tashkilotchilik vazifasini ham bajaradi. Pedagoglar oddiy o‘qituvchi sifatida emas balki, ilmiy rahbar sifatida talabalarga maslahatlar beradilar. Loyihani amalga oshirish bosqichida pedagoglar muammoning echimini osonlashtirish maqsadida seminar tashkil etib, muammo echimini jamoaviy bo‘lib izlashga talabalarni yo‘naltiradi.

Pedagog ish jarayonida quyidagi vazifalarni bajaradi: 1. Loyiha maqsad va vazifalarini shakllantirishga yordam beradi. 2. Ma’lumotlar manbalarini izlashga ko‘rsatmalar beradi. 3. Talabalarni loyiha bosqichlari davomida qo‘llab-quvvatlaydi. 4. Muntazam ravishda qayta bog’lanib, talabalarda paydo bo‘layotgan muammolarni o‘rganadi va ularni bartaraf etishga ko‘rsatmalar beradi. 5. Loyihani amalga oshirayotganlarga maslahatlar beradi.

“Loyihalash” usulini bakalavriatura ta’lim bosqichida amaliy mashg’ulotlar vaqtida (UASH terapiya, UASH jarrohlik, UASH pediatriya, UASH ginekologiya tsikllarida), talabalar ilmiy jamiyati konferentsiyasiga tayyorgarlik vaqtida, kafedralarda tashkil etilgan fan bo‘yicha talabalar to‘garaklarida, magistratura ta’lim bosqichida seminar mashg’ulotlarida va klinik ordinatura ta’lim yo‘nalishlarida qo‘llash mumkin.

“SWOT tahlili” usuli. “SWOT tahlili” – nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni o‘rganish, g’oya, jarayon, tajriba hamda ish natijalarini tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarini topish, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholash, tanqidiy fikrlash, analitik tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bu usulni birinchi bo‘lib 1963 yili Garvardda bo‘lib o‘tgan ilmiy konferentsiyada biznes-siyosatshunos professor Kennet Endryus taklif etgan va asosan iqtisodiyot sohasida biznes loyihalarni strategik rejalash va baholash uchun qo‘llanilgan. Keyinchalik bu usul boshqa sohalarda ham qo‘llanila boshlandi. Tibbiyotda esa “SWOT tahlili” usulini diagnostika va davolash usullari, profilaktik chora-tadbirlarning tahlilida qo‘lash mumkin.

“SWOT” qisqartmasi quyidagi inglizcha so‘zlarning bosh harfidan olingan:

- S – Strengths (ob’ekt yoki usulning kuchli tomonlari);
- W – Weaknesses (ob’ekt yoki usulning zaif tomonlari);
- O – Opportunities (ob’ekt yoki usulning imkoniyatlari);
- T – Threats (ob’ekt yoki usulga nisbatan xavf yoki to‘siqlar).

Bunday tahlil orqali talabalar biror bir usulning kuchli tomonlari bilan birga uning zaif tomonlarini ham o‘rganadilar, bu usul imkoniyatlari bilan unga nisbatan to‘siqlar va xavflarni tahlil qiladilar.

“SWOT tahlili” usulini o‘tkazishda 4 ta katakli jadvaldan foydalaniladi:

	Ijobiy ta’sir	**Salbiy ta’sir**
Ichki omillar	Strengths (tahlil etilayotgan ob’ekt yoki usulning kuchli tomoni)	Weaknesses (tahlil etilayotgan ob’ekt yoki usulning zaif tomonlari)
Tashqi omillar	Opportunities (tahlil etilayotgan ob’ekt yoki usulning imkoniyatlari)	Threats (tahlil etilayotgan ob’ekt yoki usulga salbiy ta’sir etuvchi tashqi ta’sirlar)

YUqoridagi ikkita katakda tahlil etilayotgan usulning yoki ob’ektning kuchli va kuchsiz tomonlari ifodalanadi va ular ichki omillar hisoblanadi. Pastdagi ikkita katakda tahlil etilayotgan ob’ektning imkoniyatlari va unga nisbatan mumkin bo‘lgan to‘siq va xavflar ifodalanadi va ular tashqi omillar hisoblanadi.

“SWOT tahlili” usulini o‘tkazishda vazifalar guruhli tarzda yoki talabalarga yakka tartibda berilishi mumkin. Bu usul talabalarda analitik fikrlash, bilimlarni mustahkamlash, o‘tilganlarni takrorlash, tanqidiy mulohaza yuritish va tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi. O‘rganilayotgan ob’ekt, ya’ni diagnostika va davolash usulini 4 tomonlama tahlil etadilar. “SWOT tahlili” usulini boshqa fanlarning amaliy mashg’ulotlarida ham shu tarzda o‘tkazish mumkin.

YUqorida ta’riflangan ikkita yangi pedagogik usullarni amaliy mashg’ulotlarda qo‘llash orqali ta’lim oluvchilarda darsning nazariy qismida o‘tilgan mavzuni mustaxkamlashga erishish mumkin. “SWOT tahlili” o‘tilayotgan fan mavzularidagi diagnostika va davolash usullarini, profilaktika chora-tadbirlarini analitik tahlil etish imkoniyatini beradi. Bu orqali esa talabalarda analitik fikrlash rivojlanadi. “Loyihalash” usulini qo‘llash esa ta’lim oluvchilarda ilmiy izlanishga nisbatan qiziqishni oshiradi. Albatta, bunday usullarning ta’lim jarayonida qo‘llanilishi fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tanlanadi.

SINKVEYN

Metodning maqsadi:“Sinkveyn” so‘zi frantsuzcha so‘zdan olingan bo‘lib, “besh misradan iborat she’r” tarjimasini beradi. Amaliyotda “Sinkveyn”: murakkab axborotlarni sintezlash quroli va tushunchalar zahirasini baholash vositasi; ijodiy ifodalilikvositasi sifatida juda foydalidir. “Sinkveyn” tayanch kasbiy tushunchalar va axborotlarni refleksiyalash, sintezlash va umumlashtirishda tezkor vosita hisoblanadi.

“Sinkveyn”tuzish qoidasi quyidagicha:

- birinchi qatorda bir so‘z bilan mavzu yoziladi - odatda ot turkumidagi oid so‘z bilan;
- ikkinchi qatorda mavzu ikki so‘z bilan ta’svirlanadi - sifat turkumiga oid ikki so‘z bilan;
- uchinchi qatorda ushbu mavzu bo‘yicha xatti-harakatlar uch so‘z bilan ta’svirlanadi;
- to‘rtinchi qatorda mavzuga aloqadorlikni ko‘rsatuvchi to‘rtta so‘zdan iborat gap yoziladi;
- beshinchi qator mavzu mohiyatini takrorlovchi bir so‘zdan iborat sinonim shakllantiriladi.

- O‘qish
- Qizikarli yangilik
- Fikrlash kobiliyatini rivojlantiradi
- Ma’naviy tarbiyalashga yordam beradi
- Mutoala

PRES yoki FSMUusuli

Usulning maqsadi: Mazkur usul ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg’ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg’ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g’oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog’ozlarni tarqatiladi:
-



Muammoga asoslangan o‘qitish yoki Problem-based Learning

Muammoga asoslangan o‘qitish yoki PBL (Problem-based Learning) – bu shunday o‘qitish yo‘nalishiki, bunda talabalarni o‘qitish maqsadida real muammolar qo‘llaniladi. Bu muammolarni taxlil etish va echish orqali talabalar yangi bilimlar

oladi va ularda real xayotda uchraydigan muammolarni echish ko‘nikmalarini shakllantiradi.



Muammoga asoslangan o‘qitishda guruhdagi talabalar muammoli vaziyatni o‘rganib, bu muammo bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirib, muammoni echimini kichik guruhlarda va individual tarzda izlashlari kerak bo‘ladi. Muxokama so‘ngida esa fikrlar jamlanib, bir to‘xtamga kelinadi. Bu jarayon quyidagi diagrammada keltirilgan.

Muammoni echish bosqichlari

Amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishning 4 pog’ona usuli

Bu usulda amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayoni 4 pog’ona doirasida kechadi. Bu pog’onalarning nomi: «Tushuntirish», «Nima qilish kerakligini ko‘rsatib berish», «Ko‘rsatilgan tarzda qaytarish», «Mashq qilish». YA’ni amaliyot o‘qituvchisi talabalarga avval kichikroq bir ish bosqichini tushuntirib beradi, keyin nima qilish kerakligini qilib ko‘rsatadi. So‘ng talaba shu ish bosqichini ko‘rsatilgan tarzda qaytarishi (imitatsiya qilishi) kerak. Talaba qaytarib qilayotgan paytida amaliyot o‘qituvchisi xatolarini to‘g’rilab turadi (maqtaydi yoki tanqid qiladi). Undan keyin esa shu ish bosqichi mashq tarzida talaba uni mukammal o‘zlashtirgunicha ko‘p marotaba qaytariladi.

4 pog’ona usuli doirasidagi harakatlar

1-pog’ona: Tushuntirish-qiziqtirish (motivatsiya). Amaliyot o‘qituvchisi nima qilish kerakligini tushuntiradi. U talabalarga ma’lum bir ish bosqichi yoki bir ko‘nikmani qo‘llash uchun kerakli barcha ma’lumotlarni beradi. Amaliyot o‘qituvchisi ish bosqichlarini ularning ketma-ketligida tushuntiradi. Talabalar esa amaliyot o‘qituvchisi og’zaki tushuntirishlarini tinglashadi yoki yozib olishadi.

2-pog’ona: Nima qilishni ko‘rsatib berish - demonstratsiya (namoyish). Amaliyot o‘qituvchisi tushuntirilgan ish bosqichi qanday qilinishi kerakligini qilib ko‘rsatadi, talabalar esa qarab turishadi. Odatda amaliyot o‘qituvchisi nima qilayotgani haqida talabalarga izohlar berib boradi. YA’ni bu erda namoyish etish tushunchasi ham ishlatilishi mumkin. Biror ko‘nikmani 3 marta namoyish qilinishi tavsiya etiladi. Amaliyot o‘qituvchisi namoyish vaqtida amaliy ko‘nikmani ikki xil tezlikda namoyish etishi maqsadga muvofiqdir:

1-namoyish: atayin sekin tezlikda o‘tkaziladi. Har bir bosqichni alohida va xususiyatlarni yaxshiroq ko‘rsatish hamda mehnat xavfsizligi qoidalarini tushuntirish uchun.

2-namoyish: oddiy tezlikda o‘tkaziladi. Ko‘nikmani yana bir marta to‘la ravishda ko‘rsatish va o‘quvchilarda «ichki sur’at» (ya’ni aniq tasavvur) paydo

bo‘lishi uchun. Namoyish qilayotgan paytda amaliyot o‘qituvchisi har bir qadamini izohlab boradi. So‘ng bevosita instruktaj qismi tugaydi.

3-pog’ona: Ko‘rsatilgan tarzda qaytarish - taqlid (imitatsiya). Talabalar amaliyot o‘qituvchisi ko‘rsatib bergan ish bosqichini ko‘rsatilgan tarzda qaytaradilar. Talabalar ishlayotgan paytda amaliyot o‘qituvchisi o‘z fikrini bildiradi, yaxshi ishni maqtab yomon ishni tanqid qiladi va nima qilishni yana bir marta ko‘rsatadi.

4-pog’ona: Mashq qilish. Har bir talaba ish bosqichini ko‘rsatilgan tarzda qaytarib, ko‘rganidan va ish bosqichini to‘g’ri bajarish bo‘yicha amaliyot o‘qituvchisining izohlarni tushunganidan keyin, bu ish bosqichi ko‘p marotaba mashq qilinadi va kerakligicha ya’ni maqbul natijaga erishilmagunicha takrorlanadi.

Bu 4 pog’ona usulining asosiy belgilari

- amaliyot o‘qituvchisi tomonidan boshqarilgan nazariy va amaliy ma’lumot berish davrlari (fazalari) eng boshida turadi so‘ng esa talabalarning harakatlari bilan almashinadi;
- talabalarning harakatlari amaliyot o‘qituvchisi ko‘rsatib bergan harakatlar doirasi bilan cheklangan;
- talabalar individual o‘rganishga (o‘zlashtirishga) yo‘naltiriladilar;

- ishni tashkillashtirishda (ish tartibi) odatda hechqanday qo‘shimcha materiallar talab qilinmaydi (amaliy ko‘nikma jixozlaridan tashqari).

Amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatishda bu usul o‘zini juda ham yaxshi oqladi. SHuning uchun bu usul tibbiyot oliy o‘quv yurtalarida bakalavriatura va magistratura talabalar shuningdek klinik ordinatorlarga amaliyotda kerakli bo‘ladigan amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatishda muhim o‘rin tutadi.

Nazorat savollari:

1. O‘quv virtual laboratoriyalari nima va bunday laboratoriyalarni qaysi fanlarda qo‘llash mumikn?
2. O‘quv virtual laboratoriyaning ahamiyati, avzalliklari va kamchiliklari nimada?
3. Simulyatsiyaga asoslangan tibbiy ta’lim o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsating?
4. Simulyatsiyaga asoslangan tibbiy ta’lim avzalliklari va kamchiliklari?
5. Reallikka yaqinligi bo‘yicha simulatsion jixoz va muxitlarning tasnifi?

2-AMALIY MASHG’ULOT. NAZARIY MASHG’ULOTLARDA (MA’RUZALARDA) INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VA YANGI PEDAGOGIK USULLARNI QO‘LLASH. (4 SOAT).

Ma’ruza – biror bir mavzuni (muammoni) tizimli ketma-ketlikda va aniq bayon etilishidir. Umumiy aytganda, jonli va tushunarli nutq yordamida tanlangan mavzu (muammo) tinglovchilarga tizimli, tushunarli va mantiqan ketma-ketlikda yoritilishidir.

Ma’ruza (arabcha, lektsiya (lotincha - “lectio”) - o‘qish) – o‘quv materiallari, biror masala, mavzu kabilarning izchil, ma’lum bir tizimiga solingan bayonidir. O‘zbek tiliga arab tilidan kirib o‘zlashtirilgan ma’ruza so‘zi qo‘llaniladi. Ma’ruza o‘qitishni tashkil etishning etakchi shakli hisoblanib, quyidagi vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi:

- Yo‘naltiruvchilik – talabalarni o‘quv materialining asosiy holatlariga, uni kelgusi ish faoliyatidagi o‘rni va ahamiyatiga diqqat qilishlariga imkon beradi;
- Axborotlilik – o‘qituvchi ma’ruza vaqtida holat, asosiy ilmiy dalillar va xulosalar mohiyatini ochib beradi;
- Metodologik – ma’ruza vaqtida o‘qitish usullari taqqoslanadi, ilmiy izlanishning asosiylari namoyon etiladi;
- Tarbiyalovchilik – ma’ruza o‘quv materialiga hissiy-baholash munosabatida bo‘lishni uyg’otish;
- Rivojlantiruvchilik – bilim olish qiziqishlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Xozirgi vaqtda ma’ruzalarni faollashtirishdan maqsad nima? Nima uchun klassik ma’ruzalar o‘z dolzarbligini yo‘qotmoqda? Sababi avvalambor kundan-kunga ilm-fan, texnika, axborot-kommunikatsiya vositalari rivojlanib bormoqda. SHuningdek ta’lim oluvchilarda informatsiyaga bo‘lgan tashnalik ortmoqda. Zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llab ma’ruzalarning salmog’i, qimmati yanada ortadi.

Ma’ruza o‘quv jarayonining asosiy bo‘g’ini, oliy o‘quv yurtida dars berishning asosiy shakllaridan biridir. U talabalarning dunyoqarashini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi.

Ma’ruzada mavzuning asosiy savollari ketma-ketlik asosida yuritiladi. Ma’ruza ilmiy xarakterga ega bo‘lishi, turli nazariy yo‘nalishlar, ilmiy maktablarning asosiy g’oyalarini talabalar onggiga etkazishi va olgan bilimini ishonchga aylantirishi kerak. Har qanday ma’ruzaning eng zarur sharti tinglovchilar bilan qizg’in aloqaga kirishishdir. Ma’ruzani ko‘tarinki ruh bilan o‘qish kerak. Ma’ruza o‘qish eng avvalo, unga tayyorlanishdan boshlanadi. SHuning uchun birinchi navbatda ma’ruza mavzusi bo‘yicha adabiyotlar tanlash, hamda ular bilan tanishib chiqish kerak.

Ma’ruzalarga qo‘yilayotgan asosiy talablar:

- Ilmiylik, dolzarb bo‘lishi, tushunarli bo‘lishi, ma’ruza tarkibi va shakli bir xil bo‘lishi, ma’ruza o‘qishda emotsionallik;
- Misollar va aniq dalillar, statistik ma’lumotlar bilan boyitilgan bo‘lishi;
- Ta’limning boshqa turdagi shakllari (amaliy mashg’ulotlar, seminarlar) bilan bog’liq bo‘lishi.
- Ma’ruzada muammo ko‘tarilgan bo‘lsa, uni echish yo‘llari keltirilishi;
- Ma’ruzadan so‘ng talabalarni ushbu muammo ustida o‘ylashiga majbur qilishi;
- Talabalarni mustaqil qo‘shimcha ma’lumotlar bilan ishlashga undashi;
- So‘ngi va yangi ma’lumotlar keltirilishi;
- Ko‘rgazmali bo‘lishi, ya’ni diagrammalar, sxemalar, audio-, video-, fotovizualizatsiyadan va jadvallardan foydalanish;
- Xar bir yangi terminlarni tushuntirilishi;
- Tushunarli va ravon nutq yordamida o‘qilishi;
- Auditoriyaga moslashtirilgan bo‘lishi.

Ma’ruzada talabalar o‘tilayotgan fanning dasturi asosida mavzuga oid bilimlar va unga doir oxirgi erishilgan yutuqlar bilan birinchi marta tanishtiriladi, echimini

topgan va echimini kutayotgan muammolar haqida tushunchalar beriladi. Ma’ruza – bilimlar majmuasini berishning eng ratsional usulidir.

Ma’ruza talabalar bilan muloqotda bo‘lishning alohida shakli bo‘lib, uni boshqa hech qanday o‘quv shakli bilan almashtirib bo‘lmaydi. Ma’ruzaning oldiga qo‘yiladigan maqsad har xil bo‘lib, bu maqsad maksimal darajada amalga oshishi uchun uning funktsiyalariga ahamiyat berish kerak.

Ma’ruzaning funktsiyalari:

- professional ta’lim berish va dunyoqarashni shakllantirish.
- talabalarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish. Ularni axloqiy, ma’naviy jihatdan barkamol bo‘lishi, mehnatga munosabati, sotsial-psixologik hislatlarini shakllantirish.
- bilim berish, o‘rganayotgan fani bo‘yicha axborot olish, olgan axboroti asosida tadqiqot o‘tkazib, xulosa chiqarishga o‘rgatish.

Ma’ruzaga qo‘yiladigan talablar.

Ma’ruza ma’lum bir yo‘nalishga: YOsh avlodning dunyoqarashini shakllantirish, hayot kechirish tarzini tanlashning tarbiyaviy ahamiyatini oshirishi lozim.

Ma’ruzada asosiy maqsadga etish uchun talabalarda fanlarni o‘rganishga barqaror qiziqish uyg’otish kerak. Ma’ruzani shunday tuzish kerakki, talabada fanni chuqur o‘rganish uchun mustaqil ravishda adabiyotlarni topish, ularning ustida

ishlash, tushunishga hohish-istak tug’ilsin. SHuning uchun zarur material, kitoblar, jurnal va boshqa ma’lumotlar tanlash printsipial ahamiyatga ega.

SHu bilan birga talabalarga duch kelinadigan qiyinchiliklarni, ularni ob’ektiv va sub’ektiv tomonlarini ham tushuntirish kerak.

Tajriba ko‘rsatadiki, talabaga dekloratsiya, shiorlar emas, balki ishonchli dalillar, chuqur tahlil ko‘proq ta’sir qiladi. Har qanday fanlarni o‘qitish ham ishonchli dalillar, ma’lumotlar, nazariy va amaliy xulosalarga tayanadi.

Ma’ruzaning ilmiyligi materialni bayon qilishning izchilligi, savollarni aniq, tushunarli qo‘yilishini nazarda tutadi. Ma’ruzaga tayyorlanish jarayonida o‘qituvchi mavzu bo‘yicha savollarni qanday bayon qilishni, qanday uslublar qo‘llashini ko‘z o‘ngiga keltirishi kerak. Mavzu bo‘yicha adabiyotlarni, zarur ma’lumotlarni ana shundagina to‘g’ri tanlashi mumkin. YAna shuni ham hisobga olishi zarurki, agar o‘qituvchi zarur dalillar, ma’lumotlarga ega bo‘lsada, ularni ishonarli, asoslangan holda bayon qilmasligi, fandagi dolzarb savollarga javob berishdan chetlab o‘tishi yoki chetga chiqishi mumkin. Bu talabalarda ma’ruzadan qoniqmaslikka olib keladi.

Ma’ruza shaklida ta’lim berishning o‘ziga xos xususiyatlari

Ma’ruza shakllari	**O‘ziga xos xususiyatlari**
Kirish ma’ruzasi	Ma’ruzaning eng an’anaviy turi. *Pedagogik vazifalar:* o‘quv ma’lumotini bayon qilish va tushuntirish
Umumlashtiruvchi qisqa ma’lumotli ma’ruza	Kursni yoki uning bitta bo‘limlarini bayon etilgan nazorat holatlari negizini avvalo ilmiy-tushunchaviy va kontseptual asos tashkil etadi. *Pedagogik vazifalar:* Ilmiy bilimlarni tizimlashtirishni amalga oshirish. Ichki va fanlararo aloqani yoritib berish.
Muammoli ma’ruza	YAngi bilimlar savol, vazifa, vaziyatlarni muammoligi orqali amalga oshiriladi. Bunda talabalar bilimi o‘qituvchi bilan hamkorlikda va suhbatda tadqiqotchilik faoliyatiga olib kelinadi.

	Pedagogik vazifalar: yangi o‘quv ma’lumotini yoritib berish; muammoni aniqlash uni echish, jamlash va an’anaviy va zamonaviy nuqtai nazarni tahlil qilishni tashkillashtirish.
Ko‘rgazmali yoki vizual ma’ruza	Bunday ma’ruzani olib borilishi ko‘rilayotgan materiallarni ochiq holda va qisqa sharhlashga olib kelinadi. *Pedagogik vazifalar:* ma’lumot mazmunini ta’limning texnikaviy vositalari yoki audio texnikalar yordamida yoritib berish.
Binar yoki ikki kishilik ma’ruza	Bunday ma’ruzani olib borilishi ikki o‘qituvchi, 2-maktab vakillari, olim va amaliyotchilar, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi suhbatni namoyon qiladi. *Pedagogik vazifalar:* yangi o‘quv ma’lumotlarini ikki tomon nuqtai nazarlarini taqqoslash orqali yoritib berish
Oldindan rejalashtirilgan xatoliklar bilan o‘qiladigan ma’ruza	O‘qituvchi ongli ravishda yo‘l qo‘ygan mazmunli, metodologik xatolarni: talabalar tomonidan topishga qaratilgan. Ma’ruza yakunida talabalarning tashhisi va qo‘yilgan xatoliklari tahlili olib boriladi. *Pedagogik vazifalar:* yangi material mazmunini yoritib berish; talabalarni taklif etilayotgan ma’lumotni doimo nazorat qilishlariga qiziqtirish.
Anjuman yoki press-konferentsiya ma’ruzasi	O‘qituvchi tomonidan tayyorlangan dastur miqyosida, oldindan belgilangan muammo va ma’ruza tizimi bilan ilmiy-amaliy mashg’ulot olib boriladi. *Pedagogik vazifalar:* yangi o‘quv ma’lumotini izlash va tizimlashtirishga harakat qildirish
Maslahatli ma’ruza	Turli yo‘l bilan o‘tkazilishi mumkin. 1. “Savol-javob”. O‘qituvchi ma’ruza davomida butun kurs yoki bo‘lim bo‘yicha talabalarning savollariga javob beradi. 2. “Savol-javob-munozara”. YAngi ma’lumotni nafaqat

	bayon etadi, balki qo‘yilgan savollarga javob izlab topishni tashkillashtiradi. *Pedagogik vazifalar:* talabalar bilimini mustahkamlash, rivojlantirish, ularni yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirish

Albatta ma’ruzachi ma’ruza o‘qishidan oldin auditoriyaga e’tibor berishi kerak, ya’ni kimlarga ma’ruza o‘qimoqchi, talabalargami, magistratura talabalarigami yoki vrachlarga. SHunga ko‘ra tayyorlanadigan ma’ruza murakkabligi va ma’ruza turi tanlanadi. Masalan, muammoli ma’ruzani talabalar bilan o‘tkazish bir muncha mushkuldir. Sababi, ular ayni muammoni xali darsda o‘tmagan va tushunmagan bo‘lishlari mumkin. Odatda muammoli ma’ruzalar magistratura talabalariga va klinik ordinaturada taxsil olayotgan talabalarga mos keladi.

Vizual ma’ruza esa talabalarga juda mosdir va ular uchun qiziqarlidir. Vizual effektlardan foto, turli illyustratsiyalar, videorolik, audioyozuv, diagrammalar, jadvallar va mantiqiy sur’atlar sifatida foydalanishi mumkin. Bunday ma’ruzalar anatomiya, gistologiya, topografik anatomiya, patologik anatomiya, normal va patologik fiziologiya fanlarini ukitishdakuprok samara beradi.

Ma’ruza – konferentsiya tipidagi ma’ruza – ta’lim tarbiyaviy harakterga ega bulishi lozim – ya’ni ta’lim orkali talabalarda dunyokarashni tarbiyalash, xayotiy muammolarni xal etishga tayyor bulish ruxida tarbiyalash, ishlab chikarishga, pedagogik faoliyatga tayyorlash kerak. Ma’ruzalar jarayonida talabalar umumiy xirurgiyadan nazariy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaydilar. Bu jarayon o‘qituvchi va talabaning faoliyati xamkorlikda bulsagina muvaffakiyatli amalga oshadi, ulardan birining sustkashligi esa muvafakkiyatsizlikka olib keladi. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim tugrisida»gi Konuniga asosan ta’limni shunday tashkil etish vazifasi kuyilmokdaki u o‘quvchilarning akliy tarakkiyotini maksimal darajada ta’minlaydigan, o‘quvchi (talaba) shaxsini har tomonlama ma’naviy – ma’rifiy axlokiy jixatdan etuk barkamol tarkib toptiruvchi bulmogi lozim. SHuning uchun xozirgi davrda ma’ruzalarni tashkil etishda konferentsiya tipida

tashkil etish maqsadga muvofikdir. Masalan umumiy xirurgiya fanidan 9 ta mavzu o‘tilishi rejalashtirilgan bo‘lsa ulardan 2 yoki 3 tasini shu tipda tashkil etish mumkin. Bu tipdagi ma’ruzalarni tashkil etishda guruxdagi barcha talabalarga tayyor ma’ruza matni avvaldan beriladi, ular xammalari tayyorlanadilar (ko‘shimcha adabiyotlar xam tavsiya etiladi va ularni talabalar mustakil o‘rganadilar albatta). Ulardan bir nechalarini ma’ruzachi kilib tayinlanadi, mavzudagi savollarni ular navbati bilan ochib beradilar, guruxdoshlarini faol, mustakil, ijodiy fikrlashga chakiradilar va kuyilgan muammolarni birgalikda xal etadilar. O‘qituvchi raxbarlik kilib, ba’zan savollarni yunaltirib, kerak paytda xulosa chikarib, darsni yakunlaydi. Faol ishtirok etgan talabalar ragbatlantirilib boriladi, faol bulmagan – passiv talabalarga xam e’tibor berib borish zarur, - ularning u yoki bu masaladagi fikrlarini surash, ba’zan urtoklari fikrini kaytarishni iltimos kilish, ogoxlantirish va boshka usullar orkali.

Ma’ruzachi – pedagog ma’ruza jarayonining asosiy tashkilotchisidir. U uzining fikrlari, so‘z va iboralari, shaxsiy namunasi, talabalarga bulgan muomala munosabati, aql-idroki, irodasi, dunyokarashi xamda e’tikodi bilan ta’sir kiladi. U uz fanini yaxshi bilishi bilan birga odob-aklokda xam namuna bulishi kerak, ma’naviy-ma’rifiy jixatdan etuk – barkamol bulmogi, avvalo uz Vatanini, milliy tili, urf-odati, kadriyatlarni e’zozlashi, ta’lim mazmunini jaxon mezonlari darajasiga kutarishga intilmogi kerak.

U eng avvalo pedagogik kasbiga xos xislatlarga - pedagogik psixologik bilim, ko‘nikma va malakalarni egallagan bulmogi lozim, kasb sifatlarini egallamagan pedagog talabalarga nazariy bilimlarni bera oladi, lekin ularning ruxiyatiga, shaxsiga maqsadga muvofik pedagogikpsixologik ta’sir ko‘rsata olmaydi, uz faniga kiziktira olmaydi. Bunday sifatlarga – insonparvarlik, adolatli bulish, tugrisuzlik, talabchanlik uzgalar urniga uzini kuya bilish, yoshlarga mexr-muxabbatli bo‘lish, uz kasbini sevish, pedagogik odob va madaniyat kabilaridir.

Pedagogik kasbining eng nozik ijtimoiy kirrasi – talaba bilan mulokotda unda insonparvarlik goyasini, milliy g’urur, mustakillik goyasini singdirib borishi, ma’ruza davomida ularning ma’naviyatini, ruxiy dunyosini, ichki kechinmalarini bilib borishi va kizikishi zarur.

Ma’ruzachi – pedagogning dikkati va kuzatuvchanlik kobiliyati xam ma’ruzaning muvaffakiyatli olib borilishida muxim axamiyatga ega. O‘qituvchi izchil va kuzatuvchan bulishi kerak, darsni tushuntiriyotganda, surayotganida, doskaga yozayotganida talabalar mavzuni kanday idrok kilayotganliklarini kuzatib borishi kerak, (darsdan chalgigan talabalarga karab kuyadi, ovozini balandlaydi yoki suzga urgu beradi va x.k.) bulmasa intizom izdan chikadi.

Pedagog nutqining xususiyatlari – talabalar ma’ruzada bilimni avvalo o‘qituvchining nutki orkali oladilar. SHuning uchun ma’ruzachining nutki izchil, asosli, talaffuzi ravon bulishi, uz fikrini ma’lum tizimga solib bayon etishi, notanish suzlar ibora va atamalarni doskaga yozib, ularni izoxlab berishi kerak. Mavzularni yoritishda yangiliklar, yangi ma’lumotlar va faktlardan foydalanib borishi kerak. CHunki tezkor zamonda talabalar informatsiyalar – ma’lumotlar okimiga kumilgandirlar – radio, televideniya, matbuot, xatto internetdan foydalanadiganlar xam bor. SHaxrimizdagi bir kator o‘quv yurtlaridagi kompyuterlar internet tarmogiga ulangan.

Ma’ruzani juda tez xam, o‘ta sekin xam gapirmaslik kerak. Juda tez ma’ruza o‘qilsa, talabalar fikrlarni idrok kilib, yozib borishga ulgurmaydilar, sekin olib borilsa, talabalar zerikadi, dikkatlari chalgiydi. Baland ovozda gapirish xam tinglovchilarning asabiga tegadi, toliktiradi.

Ilmiy doklad prezentatsiyasini tayyorlash qoidalari

Prezentatsiyada ranglar

- Prezentatsiya foni matn yaxshi ko‘rinadigan rangda bo‘lishi kerak:
    - **Oq;**
    - **Och-yashil;**
    - **Och xavorang;**
    - **Och sariq.**
- Matn rangi esa ikki xildan oshmasligi kerak (auditoriya fikrini qaratmoqchi bo‘lgan so‘zlarni yorqin ranglar bilan ajratish kerak) – asosan qora, qizil va to‘q ko‘k ranglar tavsiya etiladi.

Prezentatsiya stili

- Prezentatsiya stili bir xil bo‘lishi kerak;
- Prezentatsiya maydonini kvadrat ramkaga olish tinglovchilar e’tiborini qaratadi;
- Prezentatsiya tepa va pastki qismlariga loyiha nomi yoki prezentatsiya mualliflari familiyasi yozilishi mumkin.

Prezentatsiya shrifti

- SHrift o‘lchamlari: sarlavha 24–54 o‘lchamda, oddiy matn 18–36 o‘lchamda;
- YOzuv turi: matn yozishda Arial, Tahoma, Verdana yozuv redaktorlaridan foydalanish kerak (chunki o‘qilishi oson);
- Kursiv, tagiga chizilgan, to‘q bo‘yalgan (jirnыy) yozuvlar, katta xarflarda yozilgan so‘zlar faqat maxsus ishlatiladi.



Grafik ma’lumotlar

• - Rasmlar, foto lavhalar, diagrammalar asosiy matnni to‘ldirish va boyitish uchun ishlatiladi;

• - Prezentatsiyaga mantiqan taaluqli bo‘lmagan rasmlar qo‘yilishi kerak emas;

• - Grafik ma’lumotlar rangi umumiy rangdan ajralib turishi tavsiya etiladi;

• - Illyustratsiyalar iloji boricha qisqacha ta’rifi bilan berilishi kerak;

• - Agar rasm fon sifatida qo‘llanilayotgan bo‘lsa, undagi matn oson o‘qiladigan bo‘lishi kerak.

Qaysi fon matnga mos kelgan?



Slaydlar soni

- Slaydlar soni nimani taqdimot ko‘rinishida tayyorlashingizga bog’liq;
- Ximoyada prezentatsiyalar 20 tadan oshmasligi;
- Konferentsiyada dokladlarda 14-16 tadan oshmasligi;
- O‘quv jarayonidagi maruzalar taqdimoti berilayotgan mavzuga qarab.

Matn qatori

• Odatda tinglovchi tomonidan ma’lumot yaxshi qabul qilinishi uchun matn 12-14 qatordan oshmasligi kerak;

• Matn slayd maydonini 3/2 qismini qoplashi kerak;

• Asosiy urg’u berilgan matn slaydning markazida bo‘lishi kerak;

• Formulalar, tenglamalar va shunga o‘xshash matnlar ajratilishi tavsiya etiladi.

Jadvallar

• Prezentatsiyada jadvallar tushunarli va yaxshi o‘qiladigan bo‘lishi kerak;

• Jadvallarni tushuntirishda faqat asosiy o‘zgarishlar bor punktlar tushuntiriladi;

• Jadvallarda ustunlar soni ko‘pi bilan 5 ta, qatorlar soni ko‘pi bilan 5 ta bo‘lishi lozim;

• Jadvalda berilayotgan sonlarning o‘lchov birligi albatta ko‘rsatilishi kerak.

Prezentatsiyani taqdim etish

• **Kiyinish odobiga** rioya qilinadi;

• Turli **jestlarni** ishlatmaslik tavsiya etiladi;

• So‘zlash **monoton ohangda** bo‘lishi kerak emas;

• Prezentatsiyani **o‘qib berilmaydi**;

• Auditoriya e’tiborini jalb qilish uchun muxim joylarda ovozni **bir oz ko‘tarish** mumkin;

• YOsh xodimlarga (magistr, talabalar) auditoriyada **yurishi tavsiya etilmaydi**.

Ma’ruzaning 3 ta qismi mavjud:

- Kirish;
- Asosiy qism;
- Xulosa.

Kirish

- Ma'ruza mavzusi, rejasi va maqsadi beriladi;
- Undan tashqari mavzuning dolzarbligi aniq dalilar va statistik ko‘rsatkichlar bilan bayon tiladi;
- Kirish qisqa va aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak;
- Ma'ruzaning «kirish» qismining maqsadi tinglovchini ma'ruzaga qiziqishini paydo qilishdir.

Asosiy qism

- Ma'ruzaning bu qismida tinglovchiga mavzuning asosiy nazariy qismi etkaziladi, asosiy savollar va muammo to‘liq yoritiladi, bu muammolar va savollarni echimi keltiriladi;
- Ma'ruza davomida aniq va ishonarli argumentlar va dalillar keltiriladi;

Xulosa

- Ma'ruzada bayon tilgan asosiy savollarning javoblari qisqacha beriladi va mantiqan ma'ruza tugallanadi;

- Bu qismda mavzu bo‘yicha qo‘shimcha ma'lumot uchun manbaalar (adabiyotlar, internet saytlar va boshq.) beriladi;

Nazorat savollari:

1. Ma’ruza qanday tarkibiy qismlardan tarkib topgan?
2. Hozirgi kunda ma’ruzalarga qo‘yilayotgan asosiy talablar?
3. Ilmiy ma’ruzalarning texnik talablarida qanday jihatlarga e’tibor berish kerak?
4. Ilmiy ma’ruzalarda grafik ma’lumotlar ko‘rsatishda qanday talabalar mavjud7
5. Xozirgi kunda oliy ta’lim tizimida qanday ma’ruza turlaridan foydalanish tavsiya etiladi?

3-AMALIY MASHG’ULOT. PROFESSOR-O‘QITUVCHILARNING O‘QUV, O‘QUV-USLUBIY, ILMIY-TADQIQOT VA «USTOZ-SHOGIRD» ISHLARINI TURLARI.

(2 SOAT).

Oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilari tarkibi mehnatini normalashtirish har o‘quv yili uchun professor-o‘qituvchilar va kafedra mudiri tomonidan tuziladigan hamda prorektorlar bilan kelishilgan holda o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor (fakultet dekani) tomonidan tasdiqlanadigan o‘quv yili bo‘yicha shaxsiy ish rejalariga asoslanadi.

Professor-o‘qituvchilarning o‘quv yili bo‘yicha shaxsiy ish rejasi tarkibiga o‘quv yuklamasi hamda o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «ustoz-shogird» ishlarining turlari kiritiladi. Ish turlari professor-o‘qituvchilarning o‘quv yili bo‘yicha shaxsiy ish rejalarida to‘liq va aniq aks ettirilishi kerak. Joriy o‘quv yili yakunida faqat mazkur o‘quv yili davomida amalga oshirilgan ishlar hisobga olinadi.

O‘quv yili davomida bajarilgan qo‘shimcha ish turlari professor-o‘qituvchilarning yillik shaxsiy ish rejalariga kiritib borilishi mumkin.

Professor-o‘qituvchilarning shaxsiy ish rejasi tarkibiga kiritiladigan o‘quv yuklamasi hamda o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «ustoz-shogird» ishlari:

- to‘liq shtatda faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituvchilar uchun professor-o‘qituvchilarning lavozimlariga qo‘yilgan malaka talablari asosida;

- to‘liq shtatda bo‘lmagan va o‘rindosh sifatida faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituvchilar uchun ularning stavkalariga muvofiq tarzda professor-o‘qituvchilarning lavozimlariga qo‘yilgan malaka talablari asosida;

shuningdek, mehnatga haq to‘lashning soatbay shartlari asosida faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituvchilarning o‘quv yuklamasi ushbu Qoidalarga muvofiq shakllantiriladi.

Professor-o‘qituvchilarning o‘quv yili bo‘yicha shaxsiy ish rejasining bajarilishi muntazam ravishda kafedra mudiri, har semestr yakunida fakultet dekani, dekan o‘rinbosarlari, fakultet tuzilmasi bo‘lmagan oliy ta’lim muassasalarida o‘quv bo‘limi va tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha prorektorlar tomonidan nazorat qilib boriladi.

Professor-o‘qituvchilarning o‘quv yuklamasini hisoblash

Professor-o‘qituvchilarning o‘quv yili bo‘yicha shaxsiy ish rejasiga kiritilgan, uning asosiy qismi bo‘lgan o‘quv yuklamasining soatlardagi hajmi mazkur Qoidalarning 1-jadval nazarda tutilgan Oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilarining o‘quv yuklamasi hajmini hisoblashning vaqt me’yorlarida belgilangan ish turlaridan kelib chiqib, professor-o‘qituvchilarning lavozimlariga qo‘yilgan malaka talablari asosida hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilarining o‘quv yuklamasi hajmini hisoblashning vaqt me’yorlari

T/r	Ish turlari	Ish turlari uchun ajratilgan vaqt me’yori	Ish turlarining bajarilganligini aniqlash
1.	O‘quv (ma’ruza, amaliy, seminar, yakka va laboratoriya) mashg’ulotlarini o‘tkazish.	bir akademik soat uchun — 1 soat	O‘quv mashg’ulotlari o‘quv rejaga muvofiq bir akademik soatdan (45 minut) yoki tanaffussiz ikki akademik soatdan (80 minut) o‘tkaziladi. Bunda: amaliy va seminar mashg’ulotlari talabalar soni, odatda, 25 nafargacha talaba bo‘lgan akademik guruhlarda; ma’ruza mashg’ulotlari, odatda, 100 nafardan oshmagan birlashgan akademik guruhlarda (potok), tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida klinik kafedralarda tsiklga kelgan guruhlarda (potok);

			laboratoriya mashg’ulotlari va chet (rus) tilini o‘qitish, chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanidan amaliy mashg’ulotlar, tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida tibbiy-biologik, klinikagacha bo‘lgan va gigienik fanlar (tibbiyot oliy ta’lim muassasalari uchun) o‘qitish, nofilologik yo‘nalishlarda fanni chet tilida o‘qitish, odatda, 12 — 15 nafargacha talaba bo‘lgan kichik guruhlarda; madaniyat, san’at va sport yo‘nalishlarida yakka tartibdagi mashg’ulotlar, odatda, 1 — 10 nafargacha, ansambl mashg’ulotlarida 2 — 12 nafargacha talaba bo‘lgan kichik guruhlarda; tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida klinik fanlarni o‘qitish, odatda, 5 — 10 nafargacha talaba bo‘lgan kichik guruhlarda o‘tkaziladi. O‘quv mashg’ulotlarining o‘tkazilganligi guruh jurnalida qayd etiladi. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalari uchun o‘quv mashg’ulotlarining o‘tkazilganligi o‘quv jurnalida qayd etiladi.
2.	YAkuniy davlat attestatsiyasi belgilangan fanlardan umumlashgan ma’ruzalar va maslahatlar o‘tkazish	bitta fanga (bitta potok uchun) — 6 soat	Umumlashgan ma’ruzalar va maslahatlarning o‘tkazilishi yakuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazish jadvalida qayd etiladi.
3.	Kurs ishlari va kurs loyihalariga rahbarlik qilish, ular bo‘yicha maslahatlar berish.	bir kurs ishi uchun — 2 soat; bir kurs loyihasi uchun — 3 soat.	Bir professor-o‘qituvchi bir semestr davomida, odatda, 50 nafargacha talabaga (ko‘pi bilan 1-2 ta akadem guruh talabalariga) kurs ishi (loyihasi) berishi mumkin. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalari uchun o‘quv rejada ko‘rsatilgan fanlar bo‘yicha o‘tkaziladi.
4.	Kurs ishi (kurs loyihasi) himoyasini o‘tkazish.	bir kurs ishi himoyasi uchun — 0,4 soat; bir kurs loyihasi himoyasi uchun — 0,6 soat. Bunda professor-o‘qituvchining bir kunlik ish soati hajmi 8 soatdan oshmasligi lozim.	Kurs ishi (loyihasi) himoyasida kamida 2 nafar professor-o‘qituvchi ishtirok etadi. Jami soatlar himoyada ishtirok etgan professor-o‘qituvchilar soniga bo‘linadi va ular o‘rtasida teng taqsimlanadi. Professor-o‘qituvchining kurs ishi (loyihasi) himoyasini o‘tkazishda ishtirok etishi tegishli qaydnomalarda

			aks ettiriladi.
5.	YAkuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazish.	yozma ish shaklida bir akadem guruh uchun — 3 soat; og’zaki shaklda bitta talaba uchun — 0,2 soat, ijodiy ishlarda bitta talaba uchun — 0,3 soat; yozma ish (ijodiy ish)ni tekshirish uchun har bir ishga — 0,2 soat; test shaklida bitta akadem guruh uchun — 1 soat. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida klinikagacha bo‘lgan integrallashgan imtihon va bemorda o‘tkazilgan klinik imtihon bo‘yicha bir nafar talaba uchun — 0,5 soat (integrallashgan attestatsiya uchun). YAkuniy davlat attestatsiya komissiyasi raisiga komissiyaning bitta a’zosi uchun beriladigan jami soatga qo‘shimcha ravishda 20% qo‘shiladi. Komissiya a’zolariga beriladigan bir kunlik o‘quv yuklamasi hajmi 8 soatdan oshmasligi lozim.	Bir potok (akadem guruh)da yozma ish o‘tkazish jarayonida ishtirok etgan komissiyaning har bir a’zosi (kuzatuvchi professor-o‘qituvchi)ga 3 soatdan beriladi. Og’zaki shaklda o‘tkazilgan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari jami soati unda ishtirok etgan komissiyaning har bir a’zosiga beriladi. YOzma ish shaklida o‘tkazilgan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarining jami soati yozma ishni tekshirishda ishtirok etgan komissiya a’zolari umumiy soniga bo‘linadi hamda komissiya a’zolariga teng taqsimlanadi. Test shaklida o‘tkazilgan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari jami soati unda ishtirok etgan komissiyaning har bir a’zosiga beriladi. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida klinikagacha bo‘lgan integrallashgan imtihon va bemorda o‘tkazilgan klinik imtihonda jami soatlar imtihon olishda ishtirok etganlar orasida teng taqsimlanadi. YAkuniy davlat attestatsiyasida ishtirok etish tegishli buyruq va qaydnomalarda aks ettiriladi. YAkuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi tarkibini oldindan aniqlash imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, komissiya a’zolari (kuzatuvchi professor-o‘qituvchi)ga komissiya o‘z ishini tugatgandan so‘ng, soatbay haq to‘lanadi. Bunda ushbu soatbay ish turi professor-o‘qituvchining yillik shaxsiy ish rejasiga kiritilmaydi.
6.	Namunaviy o‘quv dasturlarida ko‘zda tutilgan nazorat, hisoblash va hisob-grafik ishlarini tekshirish, maslahatlar berish, taqriz yozish va qabul qilish. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida klinik fanlarni o‘qitishda	bitta topshiriq uchun 0,3 soat, biroq bitta fanga ko‘pi bilan — 1 soat. Bitta kasallik tarixi va ekspertiza bayonnomasi uchun — 0,5 soat	Bir professor-o‘qituvchiga kafedra qaroriga asosan ko‘pi bilan 3 tagacha akademik guruh talabalari biriktiriladi. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida kasallik tarixi tegishli kafedrada bir yil davomida saqlanadi. Mazkur ishlarning bajarilishi talabalarni baholash jurnallarida aks ettiriladi.

	ishchi o‘quv dasturlarida ko‘zda tutilgan kasallik tarixlari va ekspertiza bayonnomalarini tekshirish, maslahatlar berish va qabul qilish.		
7.	Oraliq va yakuniy baholashlarni o‘tkazish, shuningdek talabaning qoldirgan (o‘zlashtirmagan) darslarini qayta topshirishini qabul qilish.	fan bo‘yicha oraliq baholashlarda jami har bir talaba uchun — 0,2 soat; yakuniy baholashda har bir talaba uchun — 0,3 soat. Qoldirilgan (o‘zlashtirilmagan) darslarni qayta topshirishni qabul qilishda har bir talaba uchun — 0,3 soat. Bunda bir o‘quv semestri davomida bir professor-o‘qituvchiga ko‘pi bilan 20 soat beriladi.	Semestr davomida bitta fandan ko‘pi bilan 2 tagacha oraliq baholash o‘tkaziladi. Bunda modul tizimida o‘qitilmayotgan va hajmi (umumiy auditoriya soati) semestr davomida haftasiga to‘liq 2 akademik soatdan (tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida 4 akademik soatdan) kam bo‘lgan fanlardan oraliq baholash o‘tkazilmaydi. Oraliq va yakuniy baholashlar o‘tkazilishi tegishli jadvallarda aks ettiriladi. YOzma ishlar natijalari e’lon qilingandan so‘ng 6 oy davomida saqlanadi. Baholashlar jadvali (grafigi) semestr boshlangan muddatda talabalarga professor-o‘qituvchi tomonidan e’lon qilinadi. Darslarni qayta topshirish tegishli jurnal yoki qaydnomalarda aks ettiriladi.
8.	Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari amaliyotiga rahbarlik qilish, ularning hisobotlarini tekshirish va baholash.	Malakaviy amaliyot o‘tayotgan har bir talaba uchun bir ish kuniga — 0,5 soat. Bunda: o‘quv amaliyotiga rahbarlik qilish 1 akadem guruh uchun bir ish kuniga — 6 soat; ishlab chiqarish va pedagogik amaliyotga rahbarlik qilish: agar ishlab chiqarish va pedagogik amaliyot o‘talayotgan tashkilot oliy ta’lim muassasasi joylashgan hudud doirasida bo‘lsa, bir ish kuniga 1 akadem guruh uchun — 3 soat; agar ishlab chiqarish va pedagogik amaliyot o‘talayotgan tashkilot oliy ta’lim muassasasi joylashgan hudud doirasida bo‘lmasa,	Mazkur ish turi bo‘yicha professor-o‘qituvchining soatlari hajmi o‘quv ishlari yuklamasining 20% idan oshmasligi lozim. Mazkur ishlarning bajarilganligi amaliyot o‘tash bo‘yicha oliy ta’lim muassasasi buyrug’i, talabaning amaliyot kundaligi va amaliyot uchun baho qo‘yilgan tegishli qaydnomalar asosida aniqlanadi.

		amaliyotga rahbarlik qilish bir ish kuniga — 6 soat. Individual holda o‘tkaziladigan amaliyotlarda butun amaliyot davriga bir talaba uchun — 2 soat.	
9.	Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalarining bitiruv malakaviy ishiga (diplom loyihasi, diplom ishi) rahbarlik qilish, xulosalar yozish.	bir o‘quv yiliga har bir talaba uchun — 25 soat, texnik yo‘nalishlarda har bir talaba uchun – 30 soat	Bir o‘quv yilida bitta professor-o‘qituvchiga 7 nafargacha talaba biriktiriladi. Professor-o‘qituvchining bitiruv malakaviy ishiga (diplom loyihasi, diplom ishi) rahbarlik qilganligi, xulosalar yozganligi oliy ta’lim muassasasi buyrug’i, yozilgan xulosa va ishning himoyaga taqdim etilganligi asosida aniqlanadi.
10.	Talabalarning bitiruv malakaviy ishi (diplom loyihasi, diplom ishi, magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasida ishtirok etish.	bir bitiruv malakaviy ishi (diplom loyihasi, diplom ishi) uchun — 0,4 soat; bir magistrlik dissertatsiyasi uchun — 0,8 soat. Professor-o‘qituvchiga beriladigan bir kunlik o‘quv ishlari yuklamasi hajmi, odatda, 8 soatdan oshmasligi lozim.	A’zolarning yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasidagi ishtiroki oliy ta’lim muassasasi buyrug’i hamda himoya natijalari to‘g’risidagi qaydnomalar asosida aniqlanadi. Jami soat yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasida ishtirok etgan har bir a’zoga beriladi. Bir YADAK yig’ilishida 4 tagacha magistrlik dissertatsiyasi, 8 tagacha BMI himoyasiga ruxsat beriladi. YAkuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi tarkibini oldindan aniqlash imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, komissiya a’zolariga komissiya o‘z ishini tugatgandan so‘ng, soatbay haq to‘lanadi. Soatbay ish turi professor-o‘qituvchining yillik shaxsiy ish rejasiga kiritilmaydi.
11.	Magistratura talabalarining ilmiy pedagogik faoliyati va amaliyotiga rahbarlik qilish. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalari uchun klinik ordinatorlarning o‘quv va klinik amaliyotiga rahbarlik qilish.	bir o‘quv yiliga bitta talaba uchun — 50 soat. Bir o‘quv yiliga bitta klinik ordinator uchun — 50 soat.	Professor yoki fan doktori 5 nafargacha, dotsent, fan nomzodi va mutaxassis 3 nafargacha talabaning ilmiy pedagogik faoliyati va amaliyotiga rahbarlikni amalga oshirishi mumkin. Professor, fan doktori, dotsent, fan nomzodi va mutaxassis 4 nafargacha klinik ordinatorning o‘quv va klinik amaliyotiga rahbarlikni amalga oshirishi mumkin. Talabaning ilmiy pedagogik faoliyatiga rahbarlik qilganlik talabaning kalendar ish rejasidagi topshiriqlarni bajarishi bilan aniqlanadi. Amaliyotga rahbarlik

			qilganlik oliy ta’lim muassasasining amaliyot o‘tash bo‘yicha buyrug’i, talabaning amaliyot kundaligi va amaliyot uchun baho qo‘yilgan tegishli qaydnomalar asosida aniqlanadi.
12.	Magistratura talabasining magistrlik dissertatsiyasi va ilmiy-tadqiqot ishiga rahbarlik (ilmiy maslahatchilik) qilish.	bir o‘quv yiliga bitta talaba uchun — 50 soat.	Professor yoki fan doktori 5 nafargacha, dotsent, fan nomzodi va mutaxassis 3 nafargacha talabaning magistrlik dissertatsiyasi va stajirovkasiga (ilmiy maslahatchilik) rahbarlikni amalga oshirishi mumkin. Mazkur ish turining bajarilganligi oliy ta’lim muassasasi buyrug’i, talabaning kalendar ish rejasi va magistrlik dissertatsiyasining himoyaga taqdim etilgani asosida aniqlanadi.
13.	Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlarni, shuningdek magistratura va klinik ordinatura mutaxassisliklari qabuli jarayonida kirish sinovlarini o‘tkazish komissiyasida, tayanch doktorant (PhD), doktorant va mustaqil izlanuvchilar tanlovi komissiyasida va malaka imtihonida ishtirok etish.	yozma ish shaklida o‘tkazilganda bir potok (abiturientlar guruhi) uchun — 3 soat; og’zaki shaklda o‘tkazilganda, bitta abiturient uchun — 0,3 soat; test shaklida o‘tkazilganda, bir potok (abiturientlar guruhi) uchun — 1 soat; har bir yozma ish (ijodiy ish)ni tekshirish uchun — 0,3 soat. Professor-o‘qituvchiga beriladigan bir kunlik o‘quv ishlari yuklamasi hajmi 8 soatdan oshmasligi lozim.	Bir potok (abiturientlar guruhi)da yozma ishni o‘tkazish jarayonida ishtirok etgan har bir professor-o‘qituvchiga 3 soatdan beriladi. YOzma ish shaklida o‘tkazilgan imtihon va sinovlarning jami soati yozma ishni tekshirishda ishtirok etgan komissiya a’zolari soniga teng bo‘linadi hamda ular o‘rtasida teng taqsimlanadi. Og’zaki (test) shaklida o‘tkazilgan imtihon va sinovlarning jami soati unda ishtirok etgan komissiyaning har bir a’zosiga beriladi. Qabul imtihonlari va sinovlarida ishtirok etganlik oliy ta’lim muassasasining tegishli buyrug’i va tegishli qaydnomalar asosida aniqlanadi. Komissiya a’zolari tarkibini oldindan aniqlash imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, komissiya a’zolariga komissiya o‘z ishini tugatgandan so‘ng, soatbay haq to‘lanadi. Soatbay ish turi professor-o‘qituvchining yillik shaxsiy ish rejasiga kiritilmaydi.
14.	Oliy ta’lim muassasasidagi doktorant va mustaqil izlanuvchiga ilmiy maslahatchilik qilish.	bir nafar doktorant uchun bir o‘quv yilida — 100 soat; bir nafar mustaqil izlanuvchi uchun bir o‘quv yilida — 50 soat.	Fan doktori, professor va fan nomzodi, dotsent o‘zi ishlayotgan oliy ta’lim muassasasida 3 nafargacha doktorant va mustaqil izlanuvchiga ilmiy maslahatchilik qilishi mumkin. Ilmiy maslahatchi bo‘lganlik oliy ta’lim muassasasining tegishli buyrug’i, doktorant va mustaqil

			izlanuvchining yakka tartibdagi ish rejasi bajarilishi asosida aniqlanadi.
15.	Ochiq, muammoli, integratsiyalashgan ma’ruzalar va master-klasslarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish.	bir akademik soat ochiq lektsiya va master-klass uchun — 5 soat; ochiq, muammoli, integratsiyalashgan ma’ruza uchun bir o‘quv yilida ko‘pi bilan — 30 soat. Master-klass: oliy ta’lim muassasasi miqyosida o‘tkazilganda, bir o‘quv yilida ko‘pi bilan 30 soat; respublika miqyosida o‘tkazilganda, bir o‘quv yilida ko‘pi bilan 40 soat; xalqaro miqyosda o‘tkazilganda, bir o‘quv yilida ko‘pi bilan 60 soat.	Oliy ta’lim muassasalarida o‘tkazilgan ochiq, muammoli, integratsiyalashgan ma’ruza va master-klasslar tegishli rejalar va ularning o‘tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida aniqlanadi.
16.	Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o‘qish.	qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o‘qiganlik uchun — haftasiga 36 soatdan.	Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o‘qiganligini tasdiqlovchi hujjat asosida aniqlanadi.
17.	Sirtqi bo‘lim talabalarining nazorat ishlariga taqriz yozish.	1 nazorat ishiga 0,75 soat; nazorat ishi bo‘yicha suhbatga 0,25 soat, bir fanga bir semestrga 1,5 soat;	Nazorat ishlari (grafigi) semestr boshlangan muddatda talabalarga professor-o‘qituvchi tomonidan e’lon qilinadi.

Professor-o‘qituvchilarning egallab turgan lavozimlari bo‘yicha o‘quv yuklamasi hajmi fakultet dekani (kafedra mudiri)ning taklifiga muvofiq oliy ta’lim muassasasining Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

O‘quv yuklamasi bo‘yicha hisoblangan soatlar hajmi oliy ta’lim muassasasining shtat birliklari sonini hamda professor-o‘qituvchilarning oylik maoshlarini belgilash uchun asos bo‘lmaydi.

SHtat birliklari professor-o‘qituvchilarning talabalar soniga nisbati bo‘yicha, oylik maoshi esa xarajatlar smetasi bo‘yicha tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 11 martdagi 133-son qarori bilan tasdiqlangan Ijodiy ta’tillar berish tartibi hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan normalarga muvofiq olib borilayotgan ilmiy-metodik va ilmiy-tadqiqot ishlarini rag’batlantirish maqsadida professor-o‘qituvchilarning o‘quv ishlari yuklamasi hajmi kafedra yig’ilishining taklifiga

asosan oliy ta’lim muassasasi kengashining qarori bilan o‘zgartirilishi mumkin. Bunda professor-o‘qituvchilarning tegishli o‘quv yuklamasining muayyan qismi kafedraning boshqa professor-o‘qituvchilarining o‘quv yuklamasiga qo‘shimcha ravishda taqsimlanadi.

Ma’ruza mashg’ulotlari ilmiy unvon va ilmiy darajaga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchilar tomonidan o‘tkaziladi. Zarur hollarda (ma’ruza mashg’ulotlari hajmi ko‘p bo‘lganda yoki professor, dotsent va katta o‘qituvchilar etarli bo‘lmaganda) oliy ta’lim muassasasi Kengashining qaroriga asosan kamida 3 yillik ilmiy-pedagogik ish stajiga ega bo‘lgan, biroq ilmiy unvon va ilmiy darajasi bo‘lmagan o‘qituvchilarga bir o‘quv yilida 250 soatgacha hajmda ma’ruza mashg’ulotlarini o‘tishga ruxsat beriladi.

Professor-o‘qituvchilarning o‘quv (ma’ruza, amaliy (yakka), seminar va laboratoriya) soatlari hajmi 400 soatdan kam bo‘lmasligi tavsiya etiladi. Kafedraga sohaning etakchi mutaxassislari (akademiklar va professorlar) jalb etilganda, ushbu o‘quv soatlari hajmiga oliy ta’lim muassasasi Kengashi qaroriga muvofiq o‘zgartirish kiritish mumkin.

Professor-o‘qituvchilarning o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «ustoz-shogird» ishlarini belgilash

Professor-o‘qituvchilar faoliyatining o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «ustoz-shogird» ishlari bo‘yicha soatlar hajmi hisoblanmaydigan ish turlari jadvalda nazarda tutilgan Oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilarining o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «ustoz-shogird» ishlari turlaridan kelib chiqib, professor-o‘qituvchilarning lavozimlariga qo‘yilgan malaka talablari asosida belgilanadi.

Oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilarining o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «ustoz-shogird» ishlarini turlari

T/r	Ish turlari	Ish turlarini amalga oshirish mexanizmi (professor-o‘qituvchining shaxsiy ish rejasida qayd etiladigan tadbirlar)	Ish turlarining bajarilganligini aniqlash
	I. O‘quv-uslubiy ishlar		
1.	YAngi ma’ruza matnlari, mashq (masalalar) to‘plami, laboratoriya, ijodiy ishlari bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalarni ishlab chiqish, yozish va nashr etish.	YAngi ma’ruza matnlari, mashq (masalalar) to‘plami, laboratoriya, ijodiy ishlar bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar yaratish	Oliy ta’lim muassasasi (fakultet) O‘quv-uslubiy (ilmiy) kengashi qarori bilan nashr etishga tavsiya etilgan ishlanmalar asosida aniqlanadi.
2.	Tarqatma o‘quv materiallari, elektron o‘quv dasturlar va video mashg’ulotlar (fan doirasida), shuningdek tegishli kompyuter dasturlaridan foydalangan holda taqdimot slaydlari, o‘qitish dasturlarini tayyorlash (yaratish).	YAngi tahrirdagi tarqatma o‘quv materiallarini tayyorlash; fan bo‘yicha kompyuter dasturlaridan foydalangan holda taqdimot slaydlari, o‘qitish dasturlarini tayyorlash; elektron o‘quv dasturlar va video mashg’ulotlar fan doirasida yaratish.	Oliy ta’lim muassasasida joriy o‘quv yilida qo‘llanilgan materiallar (dasturlar) asosida aniqlanadi.
3.	Darslik, o‘quv qo‘llanmalar yozish va nashr etishga tayyorlash.	Darslik va o‘quv qo‘llanmalarni yozish va nashrga tayyorlash.	Oliy ta’lim muassasasi (fakultet) O‘quv-uslubiy (ilmiy) kengashi qarori bilan nashr etishga tavsiya etilgan darslik va o‘quv qo‘llanma asosida aniqlanadi.
4.	Darslik, o‘quv qo‘llanmalarni to‘ldirilgan va o‘zgartirilgan holda qayta nashr etish.	Darslik va o‘quv qo‘llanmalarga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish va nashrga tayyorlash.	Oliy ta’lim muassasasi (fakultet) O‘quv-uslubiy (ilmiy) kengashi qarori bilan nashr etishga tavsiya etilgan darslik va o‘quv qo‘llanma asosida aniqlanadi.
5.	Uslubiy qo‘llanma (ko‘rsatma, risola)lar tayyorlash va nashr etish.	Ta’limga tegishli bo‘lgan Uslubiy qo‘llanma (ko‘rsatma, risola)lar tayyorlash va nashr etish.	Oliy ta’lim muassasasi (fakultet) O‘quv-uslubiy (ilmiy) kengashi qarori bilan nashr etishga tavsiya etilgan uslubiy qo‘llanma (ko‘rsatma, risola) asosida aniqlanadi.
6.	Fanning o‘quv-uslubiy majmuasini ishlab chiqish va fanning elektron modul papkasini yaratish.	Fanning o‘quv-uslubiy majmuasini yaratish.	O‘quv jarayonida qo‘llanilgan ishlar asosida aniqlanadi.

7.	Mavjud laboratoriya ishini yangilash.	Mavjud laboratoriya ishini yangilash.	Kafedra yig’ilishi bayonnomasi va laboratoriya ishi bo‘yicha joriy o‘quv yilida tayyorlangan yangi uslubiy ko‘rsatmalar asosida aniqlanadi.
8.	YAngi laboratoriya ishini tayyorlash va joriy etish, shuningdek virtual laboratoriya ishini tayyorlash va joriy etish.	YAngi laboratoriya ishini tayyorlash va joriy etish.	Kafedra yig’ilishi bayonnomasi va laboratoriya ishi bo‘yicha joriy o‘quv yilida tayyorlangan yangi uslubiy ko‘rsatmalar asosida aniqlanadi.
9.	Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi (magistratura, klinik ordinatura mutaxassisligi) bo‘yicha malaka talabi, namunaviy o‘quv reja, yangi fan uchun namunaviy o‘quv dasturlarini ishlab chiqish.	Malaka talabi, o‘quv reja, va o‘quv dasturini ishlab chiqish.	Joriy o‘quv yili uchun tasdiqlangan malaka talabi, namunaviy o‘quv reja va dasturlar asosida aniqlanadi.
10.	Ishchi o‘quv reja, fan bo‘yicha ishchi o‘quv dasturini ishlab chiqish	Ishchi o‘quv reja va fan bo‘yicha ishchi o‘quv dasturini ishlab chiqish	Kafedra yig’ilishi bayonnomasi va kafedrada mavjud bo‘lgan, joriy o‘quv yilida tayyorlangan ishchi o‘quv reja va dasturlar asosida aniqlanadi.
11.	Darslik, o‘quv qo‘llanmalar va boshqa materiallarni tarjima qilish.	Darslik, o‘quv qo‘llanma va fan doirasida boshqa materiallarni tarjima qilish.	Oliy ta’lim muassasasining tegishli buyrug’i, O‘quv-uslubiy (ilmiy) kengash qarori bilan joriy o‘quv yilida tayyorlangan tarjima materiallari asosida aniqlanadi.
12.	Fanlar bo‘yicha nazorat savollari (test, masalalar va boshqa), oraliq va yakuniy baholashlar uchun topshiriqlarni ishlab chiqish.	Oraliq va yakuniy baholashlar uchun nazorat savollari (test, masalalar va boshqa), topshiriqlar ishlab chiqish.	Ishlab chiqilgan hamda kafedra bayonnomasi bilan joriy etilgan topshiriqlar to‘plami asosida aniqlanadi.
II. Ilmiy-tadqiqot ishlari			
13.	Ilmiy maqola, tezis tayyorlash va nashr etish, ixtiro (patent), dasturiy vositalar yaratish	Xorijiy va mahalliy (OAK ro‘yxatidagi) ilmiy jurnallarda ilmiy maqolalar chop etish, ixtiro (patent) olish, tezislar nashr etish. Har bir ilmiy maqola, ixtiro va tezislari hisobga olinadi.	Joriy o‘quv yilida tayyorlangan va nashr etilgan ishlar asosida aniqlanadi.
14.	Monografiya va risola nashr etish, axborot tahliliy materiallar tayyorlash, ijodiy ishlar yaratish		Joriy o‘quv yilida nashr etilgan (tayyorlangan) ishlar asosida aniqlanadi.

15.	SHaxsiy (tematik) ijodiy asarlar katalogini nashr etish, yangi loyihalar yaratish	SHaxsiy (tematik) ijodiy asarlar katalogini nashr etish, yangi loyihalar yaratish.	Joriy o‘quv yilida nashr etilgan (yaratilgan) ishlar asosida aniqlanadi.
16.	Darslik, monografiya, risola va o‘quv qo‘llanmalariga muharrirlik qilish	Darslik, o‘quv qo‘llanma, monografiya va risolalar.	Darslik, monografiya va o‘quv qo‘llanma hamda risolalarning joriy o‘quv yilida nashr etilganligi asosida aniqlanadi.
17.	Oliy ta’lim muassasasi kengashi tomonidan tasdiqlangan mavzu bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish.	Rahbar yoki mas’ul ijrochi bo‘lganligi hisobga olinadi.	O‘quv yili davomida mavzu bo‘yicha amalga oshirilgan tegishli ilmiy-tadqiqot ishlari asosida aniqlanadi. Xo‘jalik shartnomalari doirasida tayyorlangan va davlat ilmiy-texnik dasturlariga muvofiq bajarilayotgan tadqiqot loyihalari bo‘yicha bajarilgan ishlar mazkur ish turiga kiritilmaydi.
18.	Darslik, o‘quv qo‘llanma, monografiya, risola, ilmiy maqola, dissertatsiya, avtoreferat va boshqa ishlarga taqriz yozish.	Darslik, o‘quv qo‘llanma, monografiya, dissertatsiya, avtoreferat yoki risola, ilmiy maqola, va boshqa ishlar.	Joriy o‘quv yilida yozilgan taqrizlar asosida aniqlanadi.
19.	Falsafa doktori (PhD), fan doktori (DS) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tayyorlash va himoya qilish.	Falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DS) dissertatsiyasini tayyorlaganligi. Tayyorlash va himoya qilish uchun 3 o‘quv yili davomida dissertatsiya yozish mumkin.	Avtoreferat, ilmiy daraja olish uchun dissertatsiya himoya qilganlik to‘g’risidagi Ilmiy kengash bayonnomasi asosida aniqlanadi.
20.	Ilmiy jurnallar tahririyatiga a’zo bo‘lish.	Har bir ilmiy jurnallar tahririyatiga a’zo bo‘lish.	Nashr etilgan ilmiy jurnallar va boshqa hujjatlar asosida aniqlanadi.
21.	Talabalarning ilmiy-tadqiqot va ilmiy-ijodiy ishlariga rahbarlik qilish.	Talabalarning ilmiy-tadqiqot va ilmiy-ijodiy ishlariga rahbarlik.	Talabaning ilmiy-tadqiqot va ilmiy-ijodiy ishlari (ma’ruza, maqola, tezis, she’riy to‘plam va boshqalar) nashr etganligi asosida aniqlanadi.
22.	Talabalarning fan va ilmiy to‘garaklariga rahbarlik qilish.	Talabalarning fan va ilmiy to‘garaklariga rahbarlik.	To‘garaklarga rahbarlik qilganlikni tasdiqlovchi hujjatlar asosida aniqlanadi.
23.	Ilmiy yoki uslubiy konferentsiya va seminarlar tashkil etish.	Ilmiy yoki uslubiy konferentsiya va seminarlar tashkil etiilganligi.	Ilmiy yoki uslubiy konferentsiya va seminarlarning o‘tkazilganligini tasdiqlovchi ma’lumotlar.
24.	Ilmiy yoki usulbiy kengashlarda ishtiroki.	Ilmiy yoki usulbiy kengashlarda a’zo bo‘lganligi.	Ilmiy yoki usulbiy kengashlarda a’zo bo‘lganligini tasdiqlochi ma’lumotlar.
III. «Ustoz-shogird» ishlari			
25.	Talaba oliy ta’lim muassasasiga	Talabalar oliy ta’lim muassasasiga qabul qilinganda	Talabalarning shaxsiy hujjatlari yig’ma jildlari

	o‘qishga qabul qilinganda yangi sharoitga adaptatsiya jarayonini o‘tashga va oliy ta’lim muassasasida bo‘lgan chog’ida vaqtini to‘g’ri taqsimlashga yordam berish.	ular bilan tanishish hamda talabalarning shaxsiy hujjatlari yig’ma jildini shakllantirish va yangilab borish. O‘qishga qabul qilingan talabalarni oliy ta’lim muassasasi va unda mavjud sharoitlar bilan tanishtirish. Talabalarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish bo‘yicha ish rejasini ishlab chiqish va doimiy nazoratga olish.	va tasdiqlovchi hujjatlar asosida aniqlanadi.
26.	Talabaning shaxsiy va akademik yutuqlarini rivojlantirish maqsadida uchrashuvlar o‘tkazish	Etuk fan arboblari, akademiklar, iqtidorli talabalar hamda ish beruvchi tashkilotlar vakillari bilan talabalarning shaxsiy va akademik yutuqlarini rivojlantirishga qaratilgan uchrashuvlarni o‘tkazib borish.	Uchrashuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar (bayoni, video yoki foto lavhalari) asosida aniqlanadi.
27.	Talabalar baholash tizimi qanday olib borilishini qay darajada anglaganini va qaerdan ta’lim va akademik sohada yordam olishi mumkin ekanligini nazorat qilish	Talabalarga baholash tizimi bo‘yicha ma’lumotlar berish. Ularga qaerdan ta’lim va akademik sohada yordam olishi mumkin ekanligini tushuntirish va amaliy yordam berish.	Talabalarni fanlardan o‘zlashtirish darajasi orqali aniqlanadi.
28.	O‘qish jarayonida shaxsiy va akademik muammolar yuzaga kelganda va ular ta’lim olish darajasiga ta’sir ko‘rsatsa, ularni hal qilishda ko‘maklashish.	Talabalar bilan shaxsiy va akademik muammolari bo‘yicha yakka tartibdagi suhbatlar olib borish hamda mavjud muammolarini hal qilish choralarini ko‘rish. Talabalarning fanlarda o‘zlashtirishlarini doimiy nazorat qilish va dars beruvchi professor-o‘qituvchi bilan mazkur masalani muhokama qilib borish.	Guruhdagi talabalarning fanlardan o‘zlashtirishi va boshqa faoliyatlari analizi natijasida belgilanadi.
29.	Akademik yoki kasbiy tanlov qilishda tavsiyalar berish	Talabalarga akademik yoki kasbiy yo‘lni tanlashi uchun ko‘maklashish va ularga asosli maslahatlar berib, ularni qiziqish va istaklari asosida to‘g’ri yo‘naltirilishini ta’minlash.	Talabalarning oliy ta’lim muassasasini bitirgach sohasi bo‘yicha ishlashi mumkin bo‘lgan korxona va tashkilotlar haqida ma’lumotga ega bo‘lganligi orqali aniqlanadi.
30.	Ma’ruza materiallarni qaytarish va misollarni taqdim etgan holda ularni yoritish.	O‘zlashtirishdan orqada qolgan talabalar bilan darsdan bo‘sh vaqtlarda grafik asosida ishlash.	Tashkiliy grafikning mavjudligi. Talabalarning o‘zlashtirish darajasi orqali belgilanadi.
31.	Talabalarning mutaxassislik va	O‘quv rejasidagi fanlarning muhimlilik darajasi hamda	Bitiruvchilarning kasbga tayyorgarlik holati.

	tanlov fanlaridan olgan baholari va o‘zlashtirgan bilimlari ularning kvalifikatsion darajalariga ta’sirining muhimligi haqida tushunchani shakllantirish.	malakali kadr bo‘lib etishishi uchun zarurligi haqida tushunchalar berish. Ish beruvchi tashkilot va korxonalar tomonidan bitiruvchilarga qo‘yiladigan talablar bilan doimiy tanishtirib borish.	
32.	Boshqa talaba va o‘qituvchilardan ushbu talaba haqida ma’lumot olishi.	Talabaning faoliyatini boshqa talaba va o‘qituvchilar orqali doimiy bilib borish hamda olingan ma’lumotlar asosida ushbu talaba bilan ishlash.	Talabani oliy ta’lim muassasasidagi faoliyati bo‘yicha ma’lumotlarning mavjudligi.
33.	Talabalarning ota-onalari bilan ishlash.	Ota-onalar bilan muloqatga kirishishi, ular bilan talabaning faoliyatini muhokama qilish hamda ota-onalar istagiga ko‘ra ularni talabalar bilan ishlashini taminlash.	Talabalarning faoliyatini ota-onalar bilan muhokama qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlarni mavjudligi.
34.	YAngi g’oyalarni taklif qilish, bahs-munozaralarni davom ettirish, jumladan, ijtimoiy baholarni muhokama qilish.	Fakultet va OTM kengashlarida hamda ta’lim jarayoniga bag’ishlangan seminarlarda talabalar faolligini oshirishga qaratilgan takliflar bilan ishtirok etganligi.	Talabalarda yangi g’oyalarni shakllanganligi, ular o‘rtasida bahs-munozaralar asosida o‘tkazilgan seminarlar va davra suhbatlarini tasdiqlovchi hujjatlarni mavjudligi.
35.	Talabalarni axborot bilan ta’minlash va intervyu berish.	Talabalarga doimiy axborotlar berib boradi hamda OAVlarida chiqishlar qiladi.	Talabalarning yangiliklardan xabardorligi va OAVlarida chiqishlar qilganligi.
36.	Bitiruvchilarning ishini, shu jumladan, vaqtni monitoring qilish va muzokaralarni belgilangan rejaga muvofiq amalga oshirish.	Bitiruvchilarni ish beruvchi tashkilotlar bilan doimiy tanishtirib borish, uchrashuvlar tashkil etish hamda talabalarni korxona va tashkilotlarga tashrifini uyushtirish.	Bitiruvchilarning ishga joylashish ko‘rsatkichlari orqali belgilanadi.
37.	Oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun o‘quvchi-yoshlar o‘rtasida kasbga yo‘naltirish ishlarini olib borish.	Kasbga yo‘naltirish ishlarini olib borish rejalashtirilgan tadbirlar nomi va muddati.	Oliy ta’lim muassasasi (fakultet) kengashi tomonidan tasdiqlagan (rejaga kiritilgan) ishlar natijasi bo‘yicha hisobotlar asosida aniqlanadi.
38.	Talabalarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalariga, davlat stipendiyalariga, xalqaro va respublika	Tayyorlaydigan talaba (lar) F.I.O., guruhi va kursi.	Bir professor-o‘qituvchiga ko‘pi bilan 2 nafar talaba biriktiriladi. Mazkur ish turining bajarilishi joriy o‘quv yilida talabaning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari, davlat stipendiyalari, xalqaro va respublika olimpiadalari, tanlovlari, musobaqalari ishtirokchisi

	olimpiadalari, tanlovlari, musobaqalariga tayyorlash.		bo‘lganligi hamda unga professor-o‘qituvchining biriktirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida aniqlanadi.
39.	Sport, madaniy-ma’rifiy va ijodiy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish.	Tashkil etish va o‘tkazish rejalashtirilgan tadbir nomi va muddati.	Oliy ta’lim muassasasining Ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi tomonidan ishlab chiqilgan reja va bajarilgan ishlar bo‘yicha taqdim etilgan hisobot asosida aniqlanadi.
40.	Talabalarning ijodiy ishlari ko‘rgazmalarida ularning ishlanmalari va ishtirokiga rahbarlik qilish	Rahbarlik qilish rejalashtirilgan talaba (lar) guruhi, soni va muddati.	Talabalarning ijodiy ishlari ko‘rgazmalarida professor-o‘qituvchining ishtirokini tasdiqlovchi hujjatlar asosida aniqlanadi.
41.	Tashkilotlarda ma’ruzalar qilish, ommaviy axborot vositalarida chiqishlar qilish, shu jumladan huquqiy targ’ibot ishlarini amalga oshirish.	CHiqish (ma’ruza)lar qilish rejalashtirish tadbirlar nomi va muddati.	Oliy ta’lim muassasasining Ma’naviyat va ma’rifat bo‘limiga topshirilgan chiqishlar (ma’ruzalar) qilinganligi, shu jumladan huquqiy targ’ibot ishlari amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar (ma’lumotlar, video tasvirlar va boshqalar) asosida aniqlanadi.

Professor-o‘qituvchilarning o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «ustoz-shogird» ishlari hajmi mazkur ish turlarini bajarish zaruriyatidan kelib chiqib, professor-o‘qituvchilarning lavozimlariga qo‘yilgan malaka talablari asosida fakultet dekani (kafedra mudiri)ning taklifiga muvofiq oliy ta’lim muassasasi Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Professor-o‘qituvchilarning ilmiy-pedagogik, ijodiy mahoratini uzluksiz oshirib borish, talabalarda chuqur nazariy bilim, amaliy va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish, ilm-fanga bo‘lgan qiziqishni uyg’otish, ularga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, har tomonlama etuk mutaxassis tayyorlashni nazarda tutgan holda kafedra mudiri o‘qitishni ilg’or pedagogik va kompyuter texnologiyalari, yangi avlod o‘quv adabiyotlari asosida tashkil etish hamda o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «ustoz-shogird» ishlar bo‘yicha aniq topshiriqlarni belgilaydi.

Nazorat savollari:

1. Professor-o‘qituvchilarning o‘quv yili bo‘yicha shaxsiy ish rejasining bajarilishi kimlar tomonidan va qachon nazorat qilib boriladi?

2. “Magistratura talabasining magistrlik dissertatsiyasi va ilmiy-tadqiqot ishiga rahbarlik (ilmiy maslahatchilik) qilish”. ish turiga bir o‘quv yiliga nechchi soat ajratilgan va uning bajarilganligi qanday aniqlanadi?

3. Professor-o‘qituvchilarning o‘quv yili bo‘yicha shaxsiy ish rejasiga kiritilgan “Oliy ta’lim muassasasidagi doktorant va mustaqil izlanuvchiga ilmiy maslahatchilik qilish” ish turi qaysi yuklamaga kiritilgan va kimlarga sost ajratilishi mumkin.

4. Professor-o‘qituvchilarning o‘quv yili bo‘yicha shaxsiy ish rejasiga kiritilgan “O‘quv-uslubiy ishlar”ini qanday ish turlari tashkil etadi?

5. Professor-o‘qituvchilarning o‘quv yili bo‘yicha shaxsiy ish rejasiga kiritilgan “Ilmiy-tadqiqot ishlari”ini qanday ish turlari tashkil etadi?

4-AMALIY MASHG’ULOT. PROFESSOR-O‘QITUVCHILARNING ILMIY TADQIQOT ISHLARIDA INTERNET TARMOG’IDA MAVJUD BO‘LGAN INTERFAOL PORTALLAR VA PLATFORMALARDA ISHLASH. (6 SOAT).

Scopus, Web of Science, Cochrane Library va PubMed elektron bazalari

Prezident SHavkat Mirziyoevning 2017 yil 22 martdagi «Xalqaro rivojlantirish assotsiatsiyasi ishtirokidagi oliy ta’lim muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g’risida»gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Niderlandiyaning Elsevier kompaniyasi bilan hamkorlikda «Ilm-fan – 2020» milliy rivojlanish dasturini ishlab chiqdi.

«Ilm-fan – 2020» dasturi O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish, jahon ta’lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma’lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga yo‘l ochadi.

Elsevier kompaniyasi fan, ta’lim va tibbiyot sohasida innovatsion echimlar va mahsulotlarni taklif etuvchi jahondagi eng yirik nashriyotlardan biri hisoblanadi. Elsevier — dunyodagi yirik 4 ta nashriyot uylaridan biri hisoblanadi. Xar yili dunyo bo‘yicha chop etiladigan maqolalarning 25% chop etiladi. 1880 yili Amsterdamda asos solingan, Buyuk Britaniya, Braziliya, AQSH va boshqa davlatlarda filiallari bor.

Milliy rivojlanish dasturi doirasida yurtimizdagi ilmiy jurnallarni Scopus va ScienceDirect xalqaro ilmiy ma’lumotlar bazasi tizimiga kiritish, yosh olim hamda doktorantlarga maqolalar tayyorlash va ularni nufuzli nashrlarda chop etishida ko‘maklashish ko‘zda tutilgan.

Web of Science

- **Web of Science***(WoS)* — «**Ilm-fan to‘ri**».
- *WoS*— qidiruv internet-platformasi bo‘lib, ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarning referativ ma’lumotlar bazasini o‘zida jamlagan.
- Web of Science – tabiiy, texnika, gumanitar, san’at va jamiyat sohalari fanlari bo‘yicha materiallarni qamrab olgan.

• Platforma bibliografik ma’lumotlarni qidirish, taxlil qilish va boshqarish imkoniyatlariga ega.

Scopus

• **«Scopus»** — bu bibliografik va referativ ma’lumotlar bazasi, shuningdek, ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarga qilingan xavolalarni hisoblash imkonini beruvchi platformadir;

• Texnika, tibbiyot va gumanitar soha fanlari bo‘yicha 24000 ta ilmiy nashrlarni o‘z ichiga oladi, bu nashrlar 5000 ta nashriyotlarga tegishlidir.

• Ma’lumotlar bazasi ilmiy jurnallar, konferentsiya materiallarini va ayrim kitoblarni ham indeksatsiyadan o‘tkazadi.

• Scopus yaratuvchisi va egasi Elsevier nashriyot korporatsiyasidir.

• http://www.scopus.com

Web of science va Scopus farqli jixatlari



Web of science va Scopus farqli jixatlari



Scopus va Web of Science elektron bazalarida retsenziyadan o‘tuvchi ilmiy jurnallarga ilmiy maqola tayyorlash va chop etish qoidalari.

Xalqaro ilmiy jurnallarning aksariyati eksperimental tadqiqot natijalarini tavsiflovchi maqolaga quyidagi asosiy qismlardan iborat talabni belgilaydi: Kirish, Usullar, Natijalar va Munozara (**I**ntroduction, **M**ethods, **R**esults, and **D**iscussion - **IMRAD**).

Ba’zan Annotatsiya (Abstract) ma’nosini anglatuvchi «A» harfi **IMRAD** qisqartmasiga qo‘shiladi va **AIMRAD**, deb yozilishi ham mumkin. Ilmiy maqola bo‘limlarining ichki tuzilishi batafsil tavsifi quyidagi ko‘rinishga egadir.

Agar maqola nazariy izlanishlarga bag’ishlangan bo‘lsa, unda «Methods» bo‘limi «Theoretical Basis»ga (Nazariy Asos) almashtiriladi. Maqolaning Kirish, Metodlar, Natijalar va Munozara bo‘limlari – ***maqolaning asosiy qismi*** (Article Body), deb ataladi. Muallif asosiy e’tiborni maqola asosiy qismiga qaratish kerak!

Maqola asosiy qismiga tegishli bo‘limlari ketma-ketligini o‘zgartirish mumkin emas! Qolgan bo‘limlar ketma-ketligi o‘zgarishi jurnal talablari va muallif tomonidan belgilanadi.

IMRAD formatidagi ilmiy nashrlar birinchi marta 20-asr oxirida ilmiy jurnallar sahifalarida paydo bo‘ldi. Hozirgi vaqtda ilmiy maqolalarning ushbu formati xalqaro jurnallar tomonidan ixtiyoriy ravishda qabul qilinib, universal standartga aylandi. Dastlabki tadqiqotlar natijalarining ilmiy nashrlari tarkibini birlashtirish tendentsiyasi 1972 yilda, Amerika Standartlari Milliy Instituti barcha jurnallarda foydalanish uchun **IMRAD** formatini ma’qullagan va tavsiya qilgan paytdan boshlab kuchaydi. Zamonaviy rus, ingliz va boshqa dunyo tillarida ilmiy jurnallarining aksariyati maqolalar uchun deyarli yagona talabni qo‘yadilar.

IMRAD formati juda oddiy mantiqqa asoslangan. Maqolaning bo‘limlari tabiiy savollarga javob berish kerak:

1) Birinchi savol: tadqiqot qaysi muammoga bag’ishlangan? (Kirish bo‘limi)

2) Ikkinchi savol: muammo qanday o‘rganildi? (Metodlar bo‘limi)

3) Uchinchi savol: Asosiy (ilmiy) topilmalar yoki kashfiyotlar qanday? (Natijalar bo‘limi).

4) To‘rtinchi savol: Natijalar nimani anglatadi? (Munozara bo‘limi)

Odatda har qanday maqola sarlavha bilan boshlanadi, undan so‘ng mualliflarning ro‘yxati, ularning ish joyi va manzili, taqdim etilgan tadqiqotni o‘tkazish joyi keltiriladi. Keyin maqola mazmuni haqida qisqacha ma’lumot beradigan Annotatsiya keladi va maqola so‘ngida kalit so‘zlarni (keywords) topish mumkin. Annotatsiyadan keyin maqolaning asosiy qismi keladi. Adabiyotlar ro‘yxati (Literature) odatda maqolaning so‘nggida keladi.

Maqolalar tuzulishi (tarkibi)

- Titul varag’i (Title)
- Annotatsiya (Abstract)
- Kirish qismi (Introduction)
- Material va usullar (Material and methods)

- Natijalar (Results)
- Muxokama (Discussion)
- Tashakkurnoma(Acknowledgment)
- Qiziqishlar qarama-qarshiligi
- Foydalanilgan adabiyotlar (References)

Titul varag'i (Title)

- Maqolaning nomi yoziladi – tushunarli va oson o'qiladigan bo'lishi kerak (iloji boricha qisqartmalarni ishlatmang);
- Mualliflar ism-shariflari va ish joylari ko'rsatiladi;
- Mas'ul muallifning muloqat uchun ma'lumotlari (elektron pochta, telefon va boshq.);
- Maqola matnidagi va annotatsiyadagi so'zlar soni;
- Grafik tasvirlar va jadvallar soni;
- Xar bir jurnal talabidan kelib chiqib boshqa malumotlar bo'lishi mumkin.

Annotatsiya qismi (Abstract)

- Odatda annotatsiya 200 – 300 so'zdan oshmaydi;
- Annotatsiyaning shaklini xar bir jurnal o'zi belgilaydi;
- Eng keng qo'llaniladigan ko'rinish quyidagicha:
- Qisqacha kirish – muammo dolzarbligi, maqsad;
- Material va usullar – tadqiqot ob'ekti va tadqiqotda qo'llanilgan usullar;
- Natijalar – asosiy olingan natijalar;
- Xulosa – muxim va yangi bo'lishi kerak.
- Nima tekshirildi, nima aniqlandi va qanday xulosa kelib chiqdi? Bu nima uchun muxim?

Kirish qismi (Introduction)

- Maqsadi: sizni tadqiqotingiz yangi va foydali ma'lumot berishiga o'quvchini ishontirish.
- Muammo muximligini, uning ko'lamini va xususiyatini yoritib berish;
- Qisqacha o'rganilayotgan muammo tarixi va ayni vaqtdagi holati;
- Oxirgi gapda tadqiqot maqsadi yoziladi;

- Ilgari o‘tqazilgan tadqiqotlarga xavola beriladi;
- “Adabiyotlar sharhi” qilish shart emas.
- Muammo nimada? Nimu uchun u muxim? Tadqiqotning maqsadi nima?

Material va usullar qismi (Material and Methods)

- Maqsad: ma’lumotlarni yig’ish va taxlil etish jarayoni yoritiladi.
- Tadqiqotda ishtirok etuvchilarni tanlash mezonlari, tarkibi beriladi (populyatsiya);
- Qanday ma’lumotlar yig’ildi?
- Tadqiqotda qo‘llanilgan usullar, jixozlar va muolajalar yoritiladi;
- Material yig’ilgan joy, vaqti albatta ko‘rsatilishi kerak.
- Statistik ishlov berishda qanday dasturdan foydalanildi va qaysi ko‘rsatkichlar aniqlandi.
- Muammoni siz qanday o‘rgandingiz? Nimalardan foydalandingiz va qanday bajardingiz?

Natijalarqismi (Results)

- Maqsad: ma’lumotlar taxlil natijalarini tavsiflash.
- Tadqiqotga kiritilgan aholi xarakteristikasi;
- Mantiqiy ketma-ketlikda olingan natijalar yoritiladi;
- Jadvallar va grafik tasvirlar maqolani boyitadi;
- Matn jadval va tasvirlaringizni to‘ldirsin (qaytarilmasin);
- Tasvirlardagi va matndagi sonlar bir xil bo‘lishi kerak;
- Sonli ma’lumotlarni ko‘rsatish uchun jadvallar qulay;
- Jarayonni, ortish yoki kamayish ko‘rsatkichlarini grafik tasvirlarda berish kerak.

Asosiy ahamiyatga ega natijalarga alohida urg’u bering!

Jadvallar

- Albatta jadvalning nomi bo‘lishi kerak (juda qisqa ham, uzun ham bo‘lmasin);
- Ustunlar va qatorlarning bosh kataklari ham nomlanishi kerak;
- Agar jadvalning biror katakchasida natija yo‘q bo‘lsa “-” qo‘ying;

• Jadvallarda natijalarning statistik ishonarliligini “r” ko‘rsatkichini qo‘yish kerak;

• Odatda jadval pastki qismida izoh beriladi * yoki ^ belgi bilan;

• Maqolada 2 yoki 3 ta jadvallar bo‘lsa ularning stili bir xil bo‘lishi kerak.

Rasmlar

• YUqori aniqlikka ega, professional va sifatli rasmlarni yuboring;

• Xar bir rasm va grafik tasvir nomlanishi kerak;

• Diagrammalar tushunarli va ma’lumot beruvchi bo‘lishi kerak;

• Diagrammadagi sonlar va matn aniq, ko‘rinimli yozilishi kerak;

• YUborishdan oldin bilish zarur jurnal rangli tasvir chiqaradimi yoki oq-qora tasvirmi?

• Agar grafik tasvirda insonlar yuzi aks etgan bo‘lsa, ulardan ruxsat olish kerak va ularning yuzi maxsus yashirilishi kerak.

Muxokama qismi (Discussion)

• Maqsad: olingan natijalarni interpretatsiya qilish va sharxlash;

• Ahamiyatga molik bo‘lgan natijalarni ajratib oling;

• Bu natijalarning tadqiqot maqsadi bilan bog’liqligini ko‘rsating;

• Olgan natijalaringizni boshqa mualliflar natijalari bilan solishtiring (o‘xshash yoki farqli jihatlarini);

• Olgan natijalaringizni yangilik ekanligi va muximligini ko‘rsating;

• Tadqiqotingizdagi asosiy cheklovlarni ko‘rsating;

• Xulosangizni aniq va tushunarli yoriting.

Tashakkurnoma(Acknowledgment)

• Sizni tadqiqotingizni qo‘llab-quvvatlagan insonlar va tashkilotlarga tashakkur izxor etish mumkin:

• Kafedra mudiri yoki tashkilot raxbari;

• Biror jixoz, test to‘plami, dori vositasini olib kelishda yordam bergan insonlar;

• Maxalliy xokimiyat vakillari (vazirlik va boshq.);

• Klinika, ilmiy tadqiqot instituti, laboratoriya yoki boshqa muassasalarga.

Qiziqishlarqarama-qarshiligi(Conflict of interests)

- Tadqiqotingizni moliyalashtirish manbasini ko‘rsating;
- Mualliflarning maqoladagi ulushi (vazifasi);
- Qarama-qarshilik bormi yoki yo‘qmi?

Ilmiy o‘lchov birliklari

IMPAKT-FAKTOR

Impakt-faktor (IF)– bu ilmiy jurnal muximligining sonli ko‘rsatkichi bo‘lib, hisoblashda 3 yillik ma’lumot inobatga olinadi:

IF 2018=TS/S

TS —2016-2017 yillarda chop etilgan maqolalarni 2018 yilda xavola (tsitirovanie) qilingan soni (Ilmiy ma’lumot instituti, AQSH) tomonidan

S — ushbu jurnalda 2016-2017 yillrda chop etilgan maqolalar soni

CITE SCORE

CITE SCORE – bu ilmiy jurnal sonli o‘lchov ko‘rsatkichi bo‘lib, hisoblashda 4 yillik ma’lumot inobatga olinadi:

SS2018=TS/S

TS — 2015-2016-2017 yillarda chop etilgan maqolalarni 2018 yilda xavola (tsitirovanie) qilingan soni tomonidan

S — ushbu jurnalda 2015-2016-2017 yillrda chop etilgan maqolalar soni

XIRSH INDEKSI

Xirsh indeksi (H-index) – olimning maxsulot berishining miqdoriy xarakteristikasi, hisoblashda olimning maqolalar soni va maqolalarinin xavola qilingan soni inobatga olinadi:

h indeksli olim *h* miqdorda maqola chop etgan, bu maqolalarning xar biriga *h* marta xavola qilingan

Science Direct va SCImago Journal Rank ilmiy ma’lumotlar bazalari bilan ishlash.

Science Direct to‘liq matnli ma’lumotlar bazasi bo‘lib, olimlar, o‘qituvchilar, talabalar, tibbiyot mutaxassislari va sanoat korxonalarining ilmiy-tadqiqot bo‘limlari uchun dunyodagi ilmiy nashrlarning 25 foizini o‘z ichiga olgan etakchi Elsevier axborot platformasidir. Science Direct ko‘p tarmoqli platformasi ilm-fanning barcha sohalarini keng qamrovli yoritishni ta’minlaydi, 2500 ta ilmiy jurnallar va 14000 dan ortiq Elsevier kitoblaridan, shuningdek, nufuzli ilmiy jamoalar tomonidan nashr etilgan ko‘plab jurnallardan 14 milliondan ortiq nashrlarga kirishni ta’minlaydi.

Intuitiv interfeys tadqiqotchilarga PDF va HTML dagi to‘liq matnlarga kirishni ta’minlaydi va boshqa nashriyot platformalarida bir qator ilmiy, texnikaviy va tibbiy maqolalarga havolalarni beradi. Science Direct 70 dan ortiq mamlakatlarda qo‘llaniladi. Undan oyiga bir necha million maqola yuklanadi, platformaning tarkibi har kuni yangilanadi. Science Direct - bu yuqori sifatli ilmiy, texnik va tibbiy ma’lumotlarni topishga va baholashga imkon beradigan eng samarali va to‘liq elektron interfaol tizim.

Science Direct saytida siz quyidagilar bilan tanishishingiz mumkin.

- jurnallar to‘plamlari
- arxivlangan jurnal to‘plamlari
- kitoblar to‘plamlari

Science Direct ma’lumotlar bazalari, shuningdek ushbu tizimdan foydalanish imkoniyatlari juda kengdir.

Science Direct zamonaviy ilmiy ma’lumotlar platformasidan foydalangan holda, eng samarali ishlash uchun barcha vositalar bilan jihozlangan tadqiqot, o‘qitish yoki o‘qitish sifatini oshiring.

Fan, texnologiya va tibbiyotning 24 asosiy yo‘nalishi bo‘yicha millionlab yuqori sifatli, tegishli nashrlar uchun yagona platforma (o‘rtacha sitatatsiya darajasi 25,3%).

Eng so‘nggi tahlil qilingan tarkibga Matbuotdagi maqolalar orqali kiring

SHaxsiy bildirishnoma sozlamalari (jurnallar, kitoblar, mavzular va qidiruv so‘rovlari uchun)

Ma’lumotlar bazalariga va mualliflar tomonidan taqdim etilgan qo‘shimcha ma’lumotlarga ega bo‘lgan havolalaringizdan maksimal darajada foydalaning.

Mavzu bo‘yicha boshqa olimlar tomonidan tarkibdan foydalanish statistikasi bo‘yicha tanlangan tegishli tarkib uchun tavsiyalar

Quyidagi vositalar yordamida tarkibning sifati va ahamiyatini tezda baholash imkoniyati:

- Metrik maqolalar (Scopus iqtiboslari soni)
- Boshqa mualliflarning havolalari va iqtiboslari
- Interfaol grafika, 3D modellar, ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish
- Raqamlar va jadvallar
- har bir muallif haqida ma’lumot
- Mendeley yoki boshqa havolalar menejerlari bilan maqolalar yoki bo‘limlarni saqlang va baham ko‘ring
- Ko‘pgina mobil qurilmalar uchun optimallashtirilgan qulay platforma
- To‘liq matnli nashrlarni mashhur qidiruv tizimlari orqali topish oson
- Masofadan kirish
- 600 ta ochiq jurnal
- Bir vaqtning o‘zida 20 tagacha hujjatlarni yuklab olish imkoniyati.

Science Direct ma’lumotlar bazasida ishlash

https://www.sciencedirect.com/

Science Direct bosh sahifasi ko‘rinishi



Science Direct bosh sahifasda kalit so‘zni kriting



masalan “ascariasis” kalit so‘zi



shundan so‘ng “qidiruv” belgisini bosing



so‘rovingiz bo‘yicha 3377 ta maqola topildi



yuklab olinadigan maqolani toping (PDF)

maqoladan bepul foydalaning



Pancreatic Ascariasis Causing Acute Pancreatitis

M Sharma and P Rai, Jaswant Rai Speciality Hospital, Meerut, Uttar Pradesh, India

© 2013 Elsevier GmbH. Open access under CC BY-NC-ND license.

Received 13 July 2012; Revision submitted 13 July 2012; Accepted 10 September 2012

Abstract

Ascariasis is the most common helminthic infection in the world. Intestinal infestation of humans by *Ascaris lumbricoides* is endemic in India. *Ascaris*-induced pancreatitis is a rare but important cause of acute pancreatitis. Of all patients with pancreaticobiliary ascariasis, only approximately 5% have pancreatic disease. The authors demonstrate a patient with ascariasis-induced acute pancreatits diagnosed by endoscopic ultrasound and managed by endoscopic removal. This article is part of an expert video encyclopedia.

Keywords

Acute pancreatitis; *Ascaris*; Endoscopic retrograde cholangiopancreatography; Endoscopic ultrasound; Video.

Video Related to this Article

Video available to view or download at doi:10.1016/S2212-0971(13)70246-2

for therapeutic rather than diagnostic use as papillotomy can lead to reentry of the worm into the common bile duct.[1] Computed tomography shows a 'bull's eye' and magnetic resonance imaging shows an 'eye glass' appearance of ascariasis in the bile duct.[4] Endoscopic ultrasonography is now

SCImago Journal Rank - SJR ko‘rsatkichi

SCImago Journal Rank (SJR ko‘rsatkichi) - bu ilmiy jurnallarning ilmiy ta’sirini o‘lchovi, bu jurnal tomonidan olingan iqtiboslar soni va bunday iqtiboslar kelib chiqqan jurnallarning ahamiyati yoki nufuzini hisobga oladi. Jurnalning SJR - bu raqamli jurnal bo‘lib, tanlangan yil davomida ushbu jurnalda oxirgi uch yil ichida nashr etilgan bir hujjat uchun olingan o‘rtacha tanlangan iqtiboslarning sonini bildiradi. SJR-ning yuqori ko‘rsatkichlari jurnalning obro‘-e’tiborini oshirish uchun mo‘ljallangan.

SJR indikatori tarmoq nazariyasida qo‘llaniladigan eigenvektorning markazliligini o‘lchash variantidir. Bunday chora-tadbirlar tarmoqdagi tugunning ahamiyatini yuqori ko‘rsatkichli tugunlarga ulanish tugunning baliga ko‘proq hissa qo‘shishini ta’minlaydi. SJR ko‘rsatkichi juda katta va turli xil jurnal jurnallaridan iqtibos keltiradigan tarmoqlarda foydalanish uchun ishlab chiqilgan. Bu kattalikka bog’liq bo‘lmagan ko‘rsatkichdir va uning qiymatlari jurnallarni "har bir maqola uchun o‘rtacha obro‘-e’tibor" bo‘yicha buyurtma qiladi va fanni baholash

jarayonlarida jurnallarni taqqoslash uchun ishlatilishi mumkin. SJR indikatori PageRank-ga o‘xshash algoritmdan foydalangan holda ilhomlangan va bepul jurnal o‘lchovidir.

SJR indikatori ta’sir qiluvchi omilga (IF) alternativani yoki ikki yillik davrdagi har bir hujjat uchun o‘rtacha iqtibosni taqdim etadi, "Hujjatlar uchun sitatlar (2y)" deb qisqartirilgan.

Agar ilmiy ta’sir maqola shaklida jurnalni tasdiqlashlar soniga bog’liq deb hisoblansa, unda obro‘-e’tiborni ma’qullashlar soni va ularni nashr etadigan jurnallarning nufuzi yoki ahamiyati yig’indisi sifatida tushunish mumkin. SJR indikatori ular kelgan jurnallarning ahamiyatiga qarab iqtiboslarga turli xil qiymatlarni ajratadi. SHunday qilib, juda muhim jurnallardan olingan iqtiboslar yanada qimmatli bo‘ladi va shu sababli ularni qabul qiladigan jurnallarda obro‘-e’tiborni oshiradi. SJR indikatorini hisoblash Eigenfactor balliga juda o‘xshaydi, birinchisi Scopus ma’lumotlar bazasiga, ikkinchisi esa Web of Science ma’lumotlar bazasiga asoslanadi.

SJR indikatorini hisoblash barqaror echimga erishilgunga qadar jurnallar orasida obro‘li qiymatlarni taqsimlaydigan iterativ algoritm yordamida amalga oshiriladi. SJR algoritmi har bir jurnal uchun bir xil miqdordagi obro‘-e’tiborni belgilashdan boshlanadi, keyin takroriy protsedura yordamida ushbu nufuz jurnallarda erishilgan obro‘-e’tiborni iqtiboslar orqali bir-birlariga o‘tkazadigan jarayonda qayta taqsimlanadi.

SCImago Journal Rank saytidan foydalanish

Sayt bosh sahifasi quyidagicha ko‘rinishda. Bu sahifadan ilmiy jurnallar reytingi tugmasini bosing.



Shundan so‘ng menyuda fan tarmog’ini belgilash uchun maxsus tugmani bosing.



“Tibbiyot” yo‘nalishini tanlang



Shundan so‘ng “fanni” tanlang

Misol uchun “Yuqumli kasalliklar”

SHundan so‘ng “Davlatni” belgilang

Misol usul “Rossiya Federatsiyasi”ni belgilang



Bu amallarni bajarganingizdan so‘ng sizni monitoringizda Scopus tizimida ro‘yxatdan o‘tgan Rossiya Federatsiyasida chop etiladigan YUqumli kasalliklar bo‘yicha ilmiy jurnallar ro‘yxati shakllantiriladi.



	Title	Type	SJR	H index	Total Docs. (2018)	Total Docs. (3years)	Total Refs. (2018)	Total Cites (3years)	Citable Docs. (3years)	Cites / Doc. (2years)	Ref. / Doc. (2018)
1	HIV Infection and Immunosuppressive Disorders	journal	0.189 Q4	2	31	34	930	24	34	0.71	30.00
2	Voprosy Virusologii	journal	0.169 Q4	13	31	143	600	37	143	0.24	19.35
3	Antibiotiki i Khimioterapiya	journal	0.152 Q4	10	39	150	1319	35	150	0.15	33.82
4	Jurnal Infektologii	journal	0.142 Q4	3	51	128	1212	19	128	0.15	23.76
5	Infektsionnye Bolezni		0.131	2	57	125	1319	17	125	0.15	23.14
6	Russian Journal of Infection and Immunity	journal	Q4	2	56	46	1631	16	46	0.35	29.13

Ularni orasidan birortasini tanlang va muallif uchun qoidalar bilan tanishib chiqing, talab asosida maqolangizni tayyorlang va yuboring.

Jurnal Infektologii

Country	Russian Federation - SIR Ranking of Russian Federation
Subject Area and Category	Medicine Infectious Diseases
Publisher	Interregional public organization Association of infectious disease specialists of Saint-Petersburg and Leningrad region (IPO AIDSSPbR)
Publication type	Journals
ISSN	24999865, 20726732
Coverage	2016-ongoing
Scope	The purposes of the journal are to describe modern achievements in the study of infectious diseases, and in related sciences as well; to promote the exchange of clinical experience among the experts; to publish the results of clinical research of medical products and medical equipment; to give the information on medical congresses on infectious diseases as well as other significant events in the field of modern infectology in our country and abroad.
	Homepage
	How to publish in this journal
	Contact

3
H Index

Nazorat savollari:

1. Scopus qanday platforma hisoblanadi?
2. Web of Science qanday platforma hisoblanadi?
3. Impakt-faktornima degani?
4. CITE SCOREnima degani?
5. Maqolalar tuzulishi (tarkibi) qanday qismlardan iborat?
6. Web of science va Scopus farqli jixatlari?
7. Science Direct ma’lumotlar bazasi qanday baza?
8. Science Direct ma’lumotlar bazasida qanday ishlanadi?
9. SCImago Journal Rank ma’lumotlar bazasida izlanayotgan ilmiy jurnal to‘g’risida ma’lumot olsa bo‘ladimi?

V. KEYSLAR BANKI

Keys – bu aniq bir vaziyatning bayonidir (“real voqeaning foto-lavhasi”) . Keys – bu yaxlit axborotli majmua.

«Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi.

Keys – stadi texnologiyasi – ishbilarmonlik o‘yinlarining o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib, aniq vaziyatlarni tahlil qilish, ijodiy fikrlash va to‘g’ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig’ni belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig’ining echimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil echim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir echimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil echimlarni tanlash
4-bosqich: Keys echimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish

1 – topshiriq

1-guruh.

Ilmiy tadqiqotlarda muammoni aniqlash va uning dolzarbligini asoslashda nimalarga ahamiyat beriladi?

Holat muammosi haqida jadval to‘ldiring

Muammo turi	Holat muammalarini tug’ilish sabablari	Muammoni etish yo‘llari

2- guruh

Mutaxasisligingiz bo‘yicha dolzarb muammoni guruhingiz bilan tahlil qiling

Holat muammosi haqida jadval to‘ldiring

Muammo turi	Holat muammalarini tug’ilish sabablari	Muammoni echish yo‘llari

2 - topshiriq

“T-chizma” jadval to‘ldiring

Pedagogik mahoratni yuksaltirishda mavjud muammolar taxlili

Asosiy muammolar	Bu muammollarni bartaraf etish yo‘llari

Topshiriq №1.

66 yoshli bemor 50 metr yurgandan so‘ng o‘ng boldir sohasida og’riqlar paydo bo‘ldi, xatto yoz paytida oyoq muzlab kichik yurish masofasida og’riqlar kuzatiladi. Ko‘rikda: o‘ng oyoq kafti va boldir pastki uchligi o‘ng oyoqqa karaganda okargan va paypaslanganda sovuqroq. O‘ng oyoqda puls fakat son arteriyasida sust aniqlanadi. O‘ng yonbosh arteriyasida yaqqol sistolik shovqin eshitiladi. Bemor umumiy ahvoli qoniqarli, xotirasi sustlashuvi va zo‘riqish vaqtida vaqti-vaqti bilan yurak sohasida og’riq his qiladi.

Tashxisi. Tekshirish. Taktikasi.

Topshiriq №2.

Bemor 69 yoshda, klinikaga murojat etishdan 2 kun ilgari o‘ng oyoqda to‘satdan kuchli og’riq paydo bulgan. Tekshiruv natijasida bemorda YUIK, xilpillovchi aritmiya, o‘ng oyokda III-V darajali ishemiyaning klinik ko‘rinishi aniqlanadi.

Sizning tashxisingiz, bu holatda angiografiya qilish kerakmi? Bemorga qanday davo chorasi ko‘rsatigan?

Topshiriq №3

Bemor 68 yoshda klinikaga epigastral va kindikdan chaproqdagi og’riqlarga shikoyat qilib tushdi. Tekshirilganda qorin bo‘shlig’ida o‘rta liniyadan bir oz chaproqda pulsatsiyalovchi hosila aniqlanadi. Auskultatsiya qilinganda: son arteriyalariga uzatiluvchi aniq sistolik shovqin eshitiladi. YUrak tonlari bo‘g’iqlashgan, aorta ustida II-ton aktsenti eshitiladi. AKB 160/90, pulsi 92.

Sizning tashxisingiz, tekshiruv etaplari, davo taktikasi

Topshiriq №4

Bemor 26 yoshda klinikaga bo‘yin sohasida kattaligi 1,5x 2 smli pulsatsiyalanuvchi hosila borligiga shikoyat qilib keldi. Anamnezidan: 2 oy ilgari bo‘yin sohasidan o‘k-otar quroldan jarohat olgan va shundan so‘ng bo‘yin sohasida shish paydo bulgan. Auskultatsiya qilinganda: shish ustidan sistolik shovqin eshitiladi.

Sizning taxminiy tashxisingiz, tekshiruv rejasi va davo taktikasi

VI. GLOSSARIY

Tushuncha	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Pedagogik mahorat -	O‘kituvchining shaxsiy-kasbiy faoliyati natijasi umumlashmasi bo‘lib, muayyan bilim, ko‘nikma, malakalar yig’indisidan iborat.	The result of the teacher's personal and professional activity is a generalization, consisting of a set of specific knowledge, skills, abilities.
Kompetentsiya	Olingan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuasini amaliyotga qo‘llay olish qobiliyati va layoqati.	Ability and ability to apply the acquired theoretical knowledge, practical skills, qualifications and a set of personal qualities in practice.
Kasbiy kompetent-lik	Mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi	Acquisition by a specialist of knowledge, skills and competencies necessary for the implementation of professional activities and their application in practice at a high level
Bolonya jarayoni (Bolonya deklaratsi-yasi)	Evropa oliy ta’lim tizimlarini uyg’unlashtirish to‘g’risida qo‘shma deklaratsiya	Is a series of ministerial meetings and agreements between European countries to ensure comparability in the standards and quality of higher-education qualifications
Professor-o‘qituvchilarning shaxsiy ish rejalari	Professor-o‘qituvchilarning o‘quv yili bo‘yicha shaxsiy ish rejasi tarkibiga o‘quv yuklamasi hamda o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «ustoz-shogird» ishlarining turlari kiritiladi	The personal work plan of professors and teachers for the academic year includes the workload and types of teaching, research and "teacher-student" work
Tadqiqotchi	Tadqiqot olib boradigan kishi ilmiy tadqiqotlar bilan shug’ullanadi.	The person who conducts the research is engaged in scientific research.

Usul	O‘rganilayotgan mavzu tarkibidagi ichki o‘zini o‘zi harakatlanish shaklini anglash.	Awareness of the form of internal self-movement of the content of the studied subject.
Fan	Voqelikni ob’ektiv bilishni rivojlantirish va tizimlashtirishga qaratilgan inson faoliyati sohasi.	The field of human activity aimed at the development and systematization of objective knowledge of reality.
O‘quv virtual laboratoriya	Bu yakunlangan dasturli mahsulot bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyati avtomatlashtirilgan hamda loyihalashtirish samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan katta dasturli tizim	It is a complete software product, characterized by a large software system that is automated and aimed at increasing design efficiency
Muammoga asoslangan o‘qitish yoki PBL (Problem-based Learning) –	Bu shunday o‘qitish yo‘nalishiki, bunda talabalarni o‘qitish maqsadida real muammolar qo‘llaniladi.	Is a student-centered pedagogy in which students learn about a subject through the experience of solving an open-ended problem found in trigger material
Web of Science	Qidiruv internet-platformasi bo‘lib, ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarning referativ ma’lumotlar bazasini o‘zida jamlagan.	is a website that provides subscription-based access to multiple databases that provide comprehensive citation data for many different academic disciplines
IMRAD	Xalqaro ilmiy jurnallarning aksariyati eksperimental tadqiqot natijalarini tavsiflovchi maqolaga quyidagi asosiy qismlardan iborat talabni belgilaydi: Kirish, Usullar, Natijalar va Munozara (Introduction, Methods,	In scientific writing, (Introduction, Methods, Results, and Discussion)[1] is a common organizational structure (a document format). IMRaD is the most prominent norm for the structure of a scientific

	Results, and Discussion).	journal article of the original research type
Elsevier	Ilmiy, texnikaviy va tibbiy informatsion maxsulotlar va xizmatlarni taqdim etuvchi dunyodagi yirik kompaniyadir	Is a leading global provider of scientific, technical and medical information products and services.
Science Direct	Elsevier kompaniyasining etakchi ma'lumotlar platformasi	Leading Information Platform Elsevier
Impakt faktor	- bu ilmiy jurnal muximligining sonli ko'rsatkichi bo'lib, hisoblashda 3 yillik ma'lumot inobatga olinadi	Is a measure of the frequency with which the average article in a journal has been cited in a particular year.
Xirsh indeksi (H-index)	– olimning ilmiy maxsulot berishining miqdoriy xarakteristikasidir	Is an author-level metric that attempts to measure both the productivity and citation impact of the publications of a scientist or scholar

VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

2. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.

3. Mirziyoev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.

4. Mirziyoev SH.M. Niyati ulug’ xalqning ishi ham ulug’, hayoti yorug’ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.

5. Mirziyoev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.

7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g’risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g’risida”gi 4947-sonli Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston

Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PF-5729-son Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g’risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi 797-sonli Qarori.

16. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatini rasmiylashtirish qoidalari.

SH. Maxsus adabiyotlar

17. Materialы seminara «Kompleks nauchno-issledovatelskix instrumentov». Uzbekistan, g. Tashkent 23 – 27 aprelya 2018 g. CDC ma’lumotlari;

18. Jamalieva L.M. Dizayn issledovaniy. Otdel neprerыvnogo professionalnogo razvitiya i dokazatelnoy meditsinы;

19. Raxmatov A.D., YUnusov R.F. Ilmiy tadqiqot asoslari. Toshkent – 2008.

20. Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.YU.i dr.Sovremennыe obrazovatelnыe texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiya. – Novosibirsk: Izdatelstvo TSRNS, 2015. – 318 s.

21. Belogurov A.YU. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obщestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016.-116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.

22. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. -312 b.

23. Ibraymov A.E. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/ tuzuvchi. A.E.Ibraymov. – T.: “Lesson press”, 2020. -112 b.

24. Ignatova N. YU. Obrazovanie v tsifrovuyu epoxu: monografiya. M-vo obrazovaniya i nauki RF– Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s.

25. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. -60 b.

26. Maltseva A.N. Sovremennыe metodы v uchebnom protsesse meditsinskogo Vuza // Sovremennыe problemы nauki i obrazovaniya. – 2019. – № 4.;

27. Muslimov N.A. va boshq. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

28. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – T.: “Tafakkur-bo`stoni” nashriyoti. 2011.

29. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat. – T.: “O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi” nashriyoti. 2006.

30. Cooper J.B., Taqueti V.R. A brief history of the development of mannequin simulators for clinical education and training // Postgrad. Med. J. 2008. V.84. №997. R.563-570.

31. Safar P. Mouth-to-mouth airway // Anesthesiology. 1957. V.18. №6. P.904-906.

32. Gaba D.M., DeAnda A. A comprehensive anesthesia simulation environment: re-creating the operating room for research and training // Anesthesiology. 1988. V.69. №3. P.387-394.

IV. Internet saytlar

33. http://edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

34. http:// www.minzdrav.uz- O‘zbekiston Respublikasi sog’liqni saqlash vazirligi

35. http://lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari

milliy bazasi

36. http://bimm.uz – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi

37. http://ziyonet.uz – Ta’lim portali ZiyoNET

38. http://tma.uz – Toshkent tibbiyot akademiyasining rasmiy sayti

39. http://scopus.com

40. http://elsevier.com

41. http://sciencedirect.com